

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



“Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasi
“QIMMATLI QOG'OZLAR QIYMATINI BAHOLASH”
fanidan
MA'RUZA MATNI

Bilim sohalari: 200 000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta'lim sohalari: 230 000 – Iqtisod

Ta'lim yo'nalishi: 5231501 – Baholash ishi

1 - mavzu. Qimmatli qog'ozlar baholash ob'ekti sifatida

- 1. Qimmatli qog'ozlarning umumiy tushunchasi**
- 2. Qimmatli qog'ozlarning xususiyatlari**
- 3. Qimmatli qog'ozlarlarning turlari va tavsifi.**
- 4. Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi va ularning turlarini tasnifi**

Tayanch iboralar: qimmatli qog'ozlar, davlat qimmatli qog'ozlari, aksiya, veksel, korporativ obligatsiyalar.

1. Qimmatli qog'ozlarning umumiy tushunchasi

2008 yil 22 iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuniga muvofiq "qimmatli qog'ozlar – hujjatlar bo'lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'ttasidagi mulqiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qog'ozlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi". Yuqorida qayd etilgan qonunga ko'ra, qimmatli qog'ozlarga aktsiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatları, depozit va jamg'arma sertifikatlari, veksellar, shuningdek, hosila qimmatli qog'ozlar kiradi.

Horijiy davlatlarning me'yoriy hujjatlarida qimmatli qog'ozlar "hujjat egasining bunday hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulqiy huquqlarini yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi pul hujjati sifatida" ancha qisqa ta'riflanadi.

Huquqiy nuqtai nazardan, an'anaviy tarzda qimmatli qog'ozlar ancha keng ma'noda ko'rib chiqiladi – ya'ni bular "mulqiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar bo'lib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalgalashirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'ladi". Bu ma'noda qimmatli qog'ozlarga "quyidagilar kiradi: obligatsiyalar, veksellar, cheklar, depozit va jamg'arma sertifikatlari, bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi, qonosament hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar".

Shunday qilib, turli manbalarda, jumladan "Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida"gi qonun hamda "Fuqarolik kodeksi"dagi qimmatli qog'ozlarning ta'rifi bir – biridan jiddiy tarzda farq qiladi.

Qimmatli qog'ozlarni bundan ham keng ma'noda ko'rib chiqish mumkin. Yuqorida tilga olingan hujjatlardan tashqari, yana shunday, qimmatli qog'ozlarga tegishli bo'lmasada, lekin, ayrim iqtisodchilarning fikriga ko'ra, qimmatli qog'ozlar, deb tan olinayotgan hujjatlar ham mavjud, chunki ular ko'pgina hozirgi ta'riflarda qimmatli qog'ozlarning barcha asosiy belgilarini o'zida mujassamlantiradi. Gap, albatta, pul haqida borayapti.

XX asrning 90-yillari o'rtalarigacha qimmatli qog'ozlarning huquqiy asoslari haqidagi masala bu qadar keskin turmagan edi. Bu shu narsa bilan izohlanadiki, o'sha yilda qimmatli qog'ozlarning rivojlangan bozori yo'q edi. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar sovet siyosiy iqtisodiyot fanida qalbaki kapital bilan bog'lanardi, 90-yillargacha unga nisbatan juda salbiy munosabatda bo'lindi. Qimmatli qog'ozlarning boshqa yana bir qancha ta'riflari mavjud. Masalan, odatiy qo'llanishda ham, shuningdek, mutaxassislar ichida ham qimmatli qog'ozlarga nisbatan atamaviy chalkashlik ko'zatiladi: "qimmatli qog'oz", "qimmatli qog'oz sertifikati", "qimmatli qog'ozga sertifikat", "qimmatli qog'oz blanki", "sertifikat blanki" va h.k. An'anaviy rusiyabon iqtisodiy tushunchalar tizimida qimmatli qog'ozlar deganda aynan qog'oz, ma'lum huquqiy munosabatlarni rasmiylashtiruvchi hujjat tushuniladi. Iqtisodiy qonunlarning deyarli barcha jumlalarida qimmatli qog'oz – bu hujjat. Biroq jahon amaliyoti bilan tanish bo'lgan har bir mutaxassisga shu narsa ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi qimmatli qog'ozlar aynan qog'ozlar, blanklarni talab qilmaydigan naqdsiz shaklda chiqariladi. Ushbu qimmatli qog'ozlarni chiqarish, hisobga olish va ularning harakati to'liq ixtisoslashtirilgan korxonalar va banklarning hisobraqamlari bo'yicha buxgalteriya yozuvlari ko'rinishida amalga oshiriladi. O'zbekistonda ham, masalan, aktsiyalarning katta miqdori naqdsiz shaklda, shuningdek, keng tarqalgan davlat qisqa muddatli

obligatsiyalari esa, mutlaqo qog'ozsiz shaklda chiqariladi. Qimmatli qog'ozlar – bu hujjat (blankli) shaklida yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotlar (depozitariylar)dagi hisob–raqamlarda yozuvlar ko'rinishida alohida usul bilan tasdiqlanadigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qarz yoki aktsiyadorlik kapitali shaklida jalb etiladigan mablag'larni jalb qilish, qayta taqsimlash va qaytarib to'lash sohasidagi mulqiy hamda u bilan bog'liq nomulqiy huquqlardir.

Mulqiy huquq – bu u bo'yicha iqtisodiy o'zaro munosabatlar sub'ektlari mol – mulkka, tovar–moddiy boyliklariga, pul mablag'lari da'vogarlik qilishi mumkin bo'lgan huquqdir. Nomulqiy huquq – bu, masalan, aktsiyadorning kompaniyaning umumiy yig'ilishida ovoz berish, emitentning faoliyati haqida axborot berilishini talab qilish va h.k. huquqidir.

2. Qimmatli qog'ozlarning xususiyatlari

Qimmatli qog'ozlarning asosiy (fundamental) xususiyatlariiga *aylanuvchanlik, likvidlilik va xatar* kiradi.

Aylanuvchanlik – bu qimmatli qog'ozning bozorda harid qilinishga va sotilishga, shuningdek, ko'pchilik hollarda boshqa tovarlar muomalasini osonlashtiruvchi mustaqil to'lov vositasi sifatida qo'llanishiga qodirligidir. Barchaga ma'lum bo'lgan P – T (pul – tovar), T – P (tovar – pul) metamorfozalarda qimmatli qog'ozlar ham tovar sifatida, ham pul sifatida qatnashishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar ma'lum ma'noda tovar hisoblanadi, u o'z qiymatiga va iste'mol qiymatiga ega. Ushbu alohida turdag'i tovarning qiymati bir qancha omillarga bog'liq, masalan, ular tomonidan keltiriladigan daromadning hajmi, ssuda foizining me'yori, nisbatan yuqori kurs bo'yicha sotilishi mumkinligi, korxonani boshqarishda ishtirok etish imkoniyati va hokazolar. Qimmatli qog'ozlarning iste'mol qiymati shundan iboratki, ular orqali qimmatli qog'oz egasi o'z kapitalini oshirish, saqlash, korxonani boshqarishda ishtirok etishdagi aniq talablarini qondiradi. Shu bilan birga, ba'zi holatlarda qimmatli qog'ozlarning alohida turlari (davlat obligatsiyalari, veksellar) ma'lum bir qulay vaziyatlarda pul vazifasini – muomila va to'lov vositasini ham bajarishi mumkin. Ma'lumki, ayrim mamlakatlarda ko'chmas mult, avtomobil va boshqalar bilan hisob – kitob qilish chog'ida yuqori likvidli davlat obligatsiyalaridan to'lov vositasi sifatida foydalilanildi.

Likvidlilik – bu qimmatli qog'ozning uning egasi uchun deyarli zarar keltirmagan holda tez sotilish, pul mablag'lari aylayaish qudratidir. Likvidlilikka ta'sir ko'rsatadigan omillar uchta guruhga: a) umumiqtisodiy omillar; b) mazkur mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil qilish darajasi bilan bog'liq omillar; v) emitentning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq omillar. Umumiqtisodiy omillarga pul muomalasi, iqtisodiyotni davrning u yoki bu bosqichida bo'lishi, sarmoyadorlar tomonidan to'lovga qodir talabning mavjudligi, bank hisob – kitoblarini amalga oshirish tezligining darajasi kabilar kiradi. Fond bozorini tashkil etish bilan bog'liq omillarga imkoniyatli sarmoyadorlarning axborotga ega bo'lismi darajasi, market–meykerlar muassasasining mavjudligi, bir tranzaktsiya qiymatining miqdorini kiritish mumkin. Alohida emitent darajasida qimmatli qog'ozlarning likvidliliqi, avvalo, uning moliyaviy ahvoliga, amal qilishi muddatiga, zararsiz faoliyat ko'rsatishiga, to'lanadigan daromadlarning miqdoriga, rivojlanish taxminlari hamda istiqbollariga va hokazolarga bog'liq. So'zsiz, bu ma'noda fond birjalarida baholanadigan qimmatli qog'ozlar eng yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar bo'lishi tabiiy.

Xatar – qimmatli qog'ozlar (shu jumladan, investitsiyalar bilan) operatsiyalari bilan bog'liq yo'qotishlar va muqarrar ravishda ularga xos ehtimollardir. Qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga doir xatarlar qandaydir bir operatsiyani bajarishda ko'pgina tasodify omillarning unga ta'siri tufayli istalgan natijaga ega bo'lmaslik extimoli bilan bog'liq. Ushbu bozordagi deyarli har qanday operatsiya uning ishtirokchilari (emitentlar, sarmoyadorlar yoki vositachilar) u yoki bu xatar darajasini o'z bo'yniga olishini anglatadi. Endigina o'zining fond bozorlarini tashkil etayotgan mamlakatlarda bozorlar ishtirokchilari uchun xatarlar bozor munosabatlarining ko'p yillik tarixiga ega bo'lgan mamlakatlardagiga qaraganda bir necha marta yuqori. Fond bozoridagi faoliyat xatarning turli xillari bilan bog'liq. Shuning uchun qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilariga o'z faoliyatida xatarlarning turli xillarini inobatga olishiga to'g'ri keladi, bular: inflyatsiya jarayonlari, tarmoqlar va mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq makroiqtisodiy xatarlar; emitentning to'lovga qodirligi va kredit qobiliyati bilan bog'liq korxonaning xatarlari;

portfeli boshqarish xatarlari va texnikaviy xatarlar, ularga yilinchalik, operatsion, selektiv xatarlar, hisob-kitoblarni tartibga solish bilan bog'liq xatarlar va hokazolar kiradi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti xatarning har bir turiga qarshi turuvchi sug'urtalash shakllari va usullarini ishlab chiqdi. Sobiq Ittifoq hududi mamlakatlarida qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bilan bog'liq xatarlarni sug'urtalash hozircha etarli darajada rivojlanmagan. Bunday xatarlarni sug'urtalash qimmatli qog'ozlar bozori va sug'urta ishining birlashishidagi eng muhim faoliyat sohalaridan biri hisoblanadi, uni mamlakat amaliyotida juda yaqin yillar ichida o'zlashtirish vazifasi turibdi.

3.Qimmatli qog'ozlarlarning turlari va tavsifi.

Aktsiyalarning mohiyati

Aktsiya (frantsuzcha action so'zidan) – o'z egasining aktsiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aktsiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Aktsiya o'zining faqat unga tegishli sifatlari bilan har xil turdag'i qimmatli qog'ozlar ichida alohida o'r'in tutadi.

Eng avvalo bu – amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u uni chiqargan aktsiyadorlik jamiyati amal qilib turgan yil mobaynida muomalada bo'lishi mumkin. Aktsiya egasi aktsiyadorlik jamiyati tugatilgan hollarda uning mol–mulkini taqsimlashda ishtirok etish xuquqiga ega.

Aktsiyalar bo'yicha olingan daromad – dividend, deb nomlanadi. Dividend, odatda, aktsiyadorlik jamiyatining foydasiga bog'liq bo'ladi. Agar kompaniya hisobot yili natijalariga ko'ra katga foydaga ega bo'lsa, unda katta dividend to'lash imkoniyati bo'ladi va aksincha. Agarda foyda mutlaqo bo'lmasa, dividend to'lanmasligi mumkin. Biroq, umumiy qoidalardan istesno hollar ham mavjud. Bu, masalan, imtiyozli aktsiyalarga tegishli, ular qo'yiroqda ko'rib chiqiladi.

Odatda, kredit quroli bo'lgan va kredit munosabatlarni o'zida aks ettirgan boshqa qimmatli qog'ozlar turlari (obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksellar)dan farqli o'laroq, aktsiya mulqiy munosabatlarni tartibga soluvchi vositadir. Uning egasi kompaniya aktsiyadorlarining umumiy yig'ilishida u yoki bu qarorga o'z ovozini bergen holda aktsiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega.

Aktsiyada ko'rsatilgan pul summasi nominal qiymat, deb nomlanadi. Aktsiya sarmoyadorga birinchi marta sotilganidan keyin bu qiymat aktsiyaning fond bozoridagi keyingi harakati uchun hech qanday jiddiy ahamiyatga ega emas va ulush sarmoyasi hajmini tavsiflagan holda axborot xususiyatiga ega bo'ladi. Ko'pchilik, ayniqsa aktsiyadorlik mulki ustun turadigan (AQSh) mamlakatlarda aktsiyalar ularda nominal qiymat ko'rsatilmagan holda chiqariladi. Faqat kompaniya ustav sarmoyasi muayyan ulush miqdoriga bo'linganligi ko'rsatiladi.

Ayrim iqtisodchilar umuman aktsiyaga haridor qancha pul to'lashga tayyor bo'lsa, uning narxi shuncha, deb hisoblashadi. Biroq aksariyat mamlakatlarning aktsiyalarida nominal qiymat bari bir ko'rsatiladi.

Aktsiyalarga nominal qiymatning belgilanishi fond bozori endigma rivojlanib borayotgan O'zbekiston uchun ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Bu, birinchidan, nominal qiymat qimmatli qog'oz egasiga aynan ruhiy ta'sir ko'rsatadi va unga bu oddiygina mavxum majburiyat emas, balki ma'lum bir miqdordagi mulqiy unvon, deb hisoblashga asos beradi. Bundan tashqari, chiqarilgan aktsiyalarning nominal qiymatidan aktsiyadorlik jamiyatining ustav sarmoyasi vujudga keladi. Aktsiyalarni nominal qiymatisiz chiqarish, shubhasiz, hisobga olishda qiyinchiliklar tug'dirgan bular edi. Va, nixoyat, aktsiyalarni ikkilamchi boz orda sotishda nominal hamda kurs qiymati o'rtasidagi ijobjiy farq imkoniyatli sarmoyador uchun kompaniyadagi ishlar ahvoliga nisbatan ayrim xulosalarni chiqarish imkonini beradi, bu qimmatli qog'ozlarni harid qilish haqidagi qaror qabul qilishda juda muhimdir.

Turli mamlakatlarda aktsiyalarning eng kam (minimal) nominal qiymatlari turlicha belgilangan. Hozirgi kunda O'zbekistonda aktsiyaning nominal narxi 5000 so'm etib belgilangan. Aktsiyaning bozorda sotiladigan narxi aktsiya kursi, deb nomlanadi. Bu aktsiyalar bahosining asosiy shaklidir.

Ushbu narx aktsiyaning real qiymatini belgilab beradi. Aktsiyalar kursi aktsiya bo'yicha olinadigan dividendga bevosita bog'liq bo'lса, ssuda foizining me'yoriga nisbatan teskari munosabatda bo'ladi. Aktsiyalar kursi – bu kapitallashtirilgan dividend bo'lib, u pul sarmoyasi summasiga tenglashtiriladi, ushbu kapital bankka qo'yilgan yoki qarzga berilgan holda aktsiya bo'yicha olinadigan dividendga teng miqdorda daromad keltiradi. Kurs bahosiga, dividend va qarz me'yordan tashqari, boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi, bu haqda keyinroq so'z yuritiladi.

O'zbekiston qonunchiligidagi aktsiyalarning har xil turlari – oddiy va imtiyozli, egasining nomi yozilgan va "ko'rsatuvchi egalik qiladigan", shuningdek, kumulyativ aktsiyalarning ta'rifini uchratish mumkin. Biroq mazkur bobda qayd etilgan aktsiyalarning boshqa turlari amalda bo'lish xuquqiga ega emasligini anglatmaydi. Ularni chiqarish, muomalada bo'lishi va so'ndirish shartlari, shuningdek, alohida o'ziga xos xususiyatlari aktsiyadorlik jamiyati ning tashkil etilishida uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatilishi mumkin.

Qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlar

Obligatsiyalar

Obligatsiya (lotincha obligatio so'zidan, majburiyat) – obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulqiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulqiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Soddaroq qilib aytganda bu uning egasi qarz bermanligidan guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan (qat'iy) foiz to'langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Aktsiyadan farqli ravishda obligatsiya emitentning mol-mulkiga nisbatan mulk unvoni hisoblanmaydi. U ovoz berish va boshqarish xuquqini bermaydi. Obligatsiya – bu bir shaxsning (sarmoyador – kreditorning) boshqa bir shaxsga (emitent – qarzdorga) mablag'larni yilinchalik foydalanish uchun bermanligi (kredit) haqidagi guvohnomadir. Obligatsiyalar ma'lum muddatga chiqariladi va so'ndirilishi shart. Emitentning faoliyati tugatilgan yilda ularning egalari qimmatli qog'ozlar boshqa turlarining egalariga qaraganda an'anaviy tarzda ustunlikka ega bo'ladi.

Emitentning xususiyatiga ko'ra obligatsiyalar quyidagi uchta katta guruhga bo'linadi: **davlat obligatsiyalari, munitsipal obligatsiyalar, korxonalar obligatsiyalari**.

Davlat obligatsiyalari

Davlat qimmatli qog'ozlari - O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatları va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat berman organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyaları.

Davlat obligatsiyalari monopolistik kapitalizmaga bo'lgan davrda paydo bo'ldi. Obligatsiyalar o'zida kredit munosabatlarini aks ettiradi, bunda davlat qarzdor, aholi yoki korxona va tashkilotlar kreditor sifatida ishtiroy etadi (davlat krediti). Bugungi kunda davlat obligatsiyalari obligatsiyalarning eng keng tarqagan turidir. Davlat obligatsiyalari emissiyasini hukumat, aksariyat hollarda, davlat byudjeti taqchilligini qoplash maqsadida amalga oshiradi. Bevosita davlat obligatsiyalari operatsiyalari bilan kredit muassasalari shug'ullanadi. Foizlarni to'lash manbasi – davlat xazinasiga korxonalardan soliq ko'rinishida kelib tushadigan, amalga oshirilgan qo'shimcha qiymatdir. Davlat obligatsiyalari, odatda, mamlakatning mol-mulki, boyligi bilan kafolatlangan va shuning uchun ham investitsiya aktivlarining eng ishonchli turi hisoblanadi. Davlat obligatsiyalari bo'yicha olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi. Shuning uchun ular bo'yicha foiz stavkalari korporatsiyalarning eng birinchi darajali obligatsiyalari bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalariga qaraganda past. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda jami davlat qarzining katta qismini aynan turli yirlarda chiqarilgan obligatsiyalar tashkil etadi.

Sobiq Ittifoq davridagi adabiyotlarda kapitalistik davlat kreditining mavjudligi tegishli mamlakatlar hukumatlari tomonidan o'zining harbiy va boshqa noishlab chiqarish harajatlarini qoplash zarurati bilan bog'liq, deb ko'rsatilar edi. Bunday hollarga deyarli hamma yirlarda bir xil

salbiy baho berilar edi. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida aytilgan harajatlar har qanday davlat byudjetining majburiy unsuri hisoblanadi.

Davlat qimmatli qog'ozlari bozorini tashkil qilish va uning rivojlanishi o'zining salbiy holatlari bilan birga, deyarli hamma yilda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar uchun kreditdan davlat byudjeti daromadarini shakllantirishning manbasi sifatida foydalanish va bu bilan xo'jalikni moliyalashtirishning resurs salohiyatini kengaytirish imkonini berdi.

Davlat qimmatli qog'ozlari bilan turli operatsiyalar qilish, masalan, ularni kredit tizimi ishtirokida ochiq bozorda sotib olish yoki sotish yordamida ko'pchilik zamonaviy kapitalistik davlatlar iqtisodiyotini pul – kredit jihatdan tartibga solishga erishiladi. Aholi hamda korxonalar uchun davlat majburiyatlarini harid qilish o'z omonatlari va jamg'armalarini nisbatan ishonchli saqlash shakli hisoblanadi. Bu qandaydir darajada o'zini inflyatsiya jarayonlari ta'siridan chegaralash imkonini beradi.

Munitsipal obligatsiyalar (mahalliy zayomlar obligatsiyalari)

Bunday obligatsiyalarning emitentlari sifatida O'zbekiston Respublikasining milliy – davlat va ma'muriy – hududiy tuzilmalarining hokimiyat idoralari qatnashishi mumkin. Obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror davlat hokimiyatining mahalliy idoralari: Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar hokimiyatlari tomonidan qabul qilinadi.

Munitsipal obligatsiyalarni chiqarishning eng asosiy masalalaridan biri – bu ularni ta'minlash masalasidir. Shunga ko'ra ular qoplanishning quyidagi asosiy manbalari bilan chiqarilishi mumkin:

Qarzlarni to'lash to'g'risidagi umumiy majburiyat zamirida. Bunday obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi hokimiyat idorasining obligatsiyalarning keyingi so'ndirilishi va ular bo'yicha foizlar to'lanishi uchun mahalliy byudjetning qandaydir aniq manbalarini biriqtirmasdan soliqlar, bojlar, ijara to'lovlari va boshqa to'lovlarni undirishga qodirligi bilan ta'minlanadi.

Soliq qudrati chegaralangan qoplashning umumiy majburiyat zamirida. Ushbu holatda davlat hokimiyati idoralari mahalliy byudjetga tushumlarning qaysi bir turi hisobiga kelajakda obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarning bajarilishi ta'minlanishini belgilaydi.

Maqsadli tushumlar zamirida. Obligatsiyalarni chiqarish shartlarida aniq loyixa ko'rsatiladi, uni amalga oshirishga qimmatli qog'ozlarning haridorlaridan olingen mablag'lar yo'naltiriladi va u obligatsiyalarning egalari oldidagi majburiyatlarning bajarilishi uchun ma'lum daromadlar keltirishi lozim. Bu munitsipal mulk ob'ektlari (aeroportlar, vokzallar, bunda terminaldan foydalanganlik uchun to'lov so'ndirish manbasi hisoblanadi), mahalliy elektr stantsiyalari, gaz o'tkazgichlar, suv o'tkazgichlar, issiq suv o'tkazgichlar, yo'llarning qurilishi (to'lov manbasi ko'rsatilgan xizmatlar va foydalanish xuquqi uchun muayyan iste'molchilar tomonidan to'langan to'lovlari), kasalxonalar, istiroxat bog'lari, o'yingohlar, munitsipalitet (hokimiyat)ning boshqa to'lovli jamoat ob'ektlarining qurilishi bo'lishi mumkin.

Bunday qimmatli qog'ozlarni chiqarish shartlarida keladigan daromadlarning qaysi qismi obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarni so'ndirishga va qaysi biri daromadlar keltirayotgan ob'ektdan foydalanishning joriy harajatlarini qoplashga hamda munitsipalitetga yo'naltirilishi haqida kelishib olinadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda munitsipal obligatsiyalar, odatda, banklar, nufuzli firmalar kafolati ostida chiqariladi va birinchi darajali aktsiyalar darajasida baholanadi. Ular juda ommabop bo'lib, eng foydali investitsiya aktivlaridan biri hisoblanadi.

Korxonalar obligatsiyalari

Korporativ obligatsiyalar - ochiq aktsiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar.

Korxonalar obligatsiyalari tijorat krediti va munosabatlarining asosiy quroli bo'lib, unda bir turdag'i korxonalar qarzdorlar, boshqa korxonalar yoki aholi esa, kreditorlar bo'lismadi.

Korxonalar obligatsiyalari sanoat korxonalarini kreditlash jarayonlarida, ya'ni banklar berilgan kreditlarga qarshi ulardan yanada mayda summalarga bo'lingan qarz majburiyatlari (obligatsiyalar)ni olgan yillarda paydo bo'ldi. Sanoat obligatsiyalari o'rniga beriladigan bunday kredit ko'pincha bank kreditining boshqa turlariga qaraganda arzonroq bo'lgan. Sanoat obligatsiyalari bo'yicha, odatda,

ancha yuqori foizlar to'lanar edi. Chunki obligatsiyalar bo'yicha foiz to'lovlarini korxonaning soliqqa tortiladigan foydasidan chiqarib tashlash mumkin bo'lib, aktsiyalar bo'yicha dividendlar esa, soliqqa tortilar edi.

Moliyalash vositasi sifatida obligatsiyalar o'zlarining ustun tomonlari bilan bir qatorda kamchiliklariga ham ega. Sanoat obligatsiyalari bo'yicha qat'i foiz kompaniya uchun doimiy harajatlarning o'sishini anglatadi. Tanglikka uchragan davrlarda bunday harajatlar dividendlardan farqli ravishda, emitent uchun juda sezilarlidir, chunki dividendlar kompaniyaning daromadlariga qarab ancha past darajada belgilanishi yoki umuman to'lanmasligi ham mumkin.

Belgilangan daromadga ega bo'lgan korxonalar obligatsiyalarining jozibadorligi shunda namoyon bo'ladiki, ular aktsiyalardan farqli o'laroq, o'z nominal qiymatidan past bo'lgan kursda sotilishi mumkin, masalan, 1000 so'm o'rniga 970 so'mga. Narxning bunday arzonlashuvi dizajio deb nomlanadi. Shuningdek, obligatsiyalarni so'ndirish nominal bo'yicha emas, balki ancha yuqori bo'lgan bozor narxida o'tkazilishi to'g'risida kelishuvga erishish ham mumkin, masalan, 1000 so'm o'rniga 1025 so'mdan. Ustama xaqi, yoki ajio obligatsiyalarning tegishli muddatida (foizli to'lovlar bilan bir qatorda) qo'shimcha daromadni o'zida namoyon qiladi.

Rendit (rendite) – obligatsiyalarning umumiy daromadi obligatsiyalar shartlarini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Odatda, omonatchilar mazkur qimmatli qog'ozlarni ularning nominalidan farq qiladigan narxda harid qilishadi. Shuning uchun rendit (daromad) va obligatsiya bo'yicha nominal foiz bir – biridan katta farq qilishi mumkin.

G'azna majburiyatları

O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatları - emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga pul mablag'lari kiritganliklarini tasdiqlovchi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar.

O'zbekistonda g'azna majburiyatlarining quyidagi turlari chiqariladi:

Uzoq muddatli – 5 va undan ortiq yil muddatga chiqarilishi mumkin (xalqaro amaliyotda ular BOND degan nomni olishgan).

O'rta muddatli – 1 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga chiqariladigan (NOTE)

Qisqa muddatli – 1 yilgacha, 3, 6 va 9 oygacha bo'lgan muddatga chiqariladigan (BILL).

"Uzoq muddatli va o'rta muddatli xazina majburiyatlarini chiqarish to'g'risida"gi qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan, qisqa muddatilarni chiqarish qarori esa – Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi.

O'z tabiatiga ko'ra xazina majburiyatları davlat obligatsiyalariga juda yaqin. Amalda xazina majburiyatları jismoniy shaxslar uchun chiqariladigan davlat obligatsiyalaridan boshqa narsa emas, ular bo'yicha daromadlarni qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida olish mumkin.

Depozit sertifikatlari

Depozit sertifikati (ingl. Certificate of deposite) – bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergen bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

Depozit sertifikatlari 60-yillardan boshlab AQSh va Buyuk Britaniyada omonat depozit guvohnomasining bir turi kredit muassasasiga pul qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida faol taraqqiy etdi. Ushbu hujjat orqali omonat talab qilib olinishi mumkin. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda muddatli muomalada bo'ladigan depozit sertifikatlarini chiqarish keng tarqaldi, ular omonatchilar tomonidan dilerlarga emas, balki bankka foizlarning yo'qotilishi bilan sotilishi yoki o'tkazma yozuvlar yordamida bir shaxsdan ikkinchi shaxsga qayta sotilishi mumkin. Bunday sertifikatlar AQShda yirik summalarga chiqariladi. 100 mingdan 1 mln. dollargacha. Sarmoyador sifatida yirik korxonalar, horijiy omonatchilar, mahalliy xokimiyat idoralari ishtirok etishi mumkin. Sertifikatlar ayniqsa ularni soliq to'lashga qabul qilinishi tufayli juda ommabop bo'lib qoldi.

O'zbekistonda mustaqillikka erishilganidan keyin 1994 yildan boshlab sertifikatlar ikki turda chiqarila boshlandi:

depozit sertifikatlari – yuridik shaxslar uchun, 1 yilgacha muddatga;

depozit (jamg'arma) sertifikatlari – jismoniy shaxslar uchun, 3 yilgacha muddatga.

Sertifikatning muomalada bo'lismuddati berilgan sanadan boshlab uning egasi omonatni talab qilib olish xuquqini oladigan sanagacha hisoblanadi. Agar sertifikat bo'yicha depozit va omonatni olish muddati kechiktirilsa, u holda bunday sertifikat u bo'yicha talab qilib olinadigan hujjat hisoblanadi, ushbu sertifikat bo'yicha bank uning egasining birinchi talabiga ko'ra zudlik bilan unda ko'rsatilgan summani to'lash majburiyatini oladi,

Bank sertifikatni muddatidan oldin to'lovga taqdim etilishi extimolini nazarda tutishi mumkin. Bunday hollarda bank tomonidan oldindan, sertifikatni berish yilda belgilangan sertifikatning unda yozib qo'yilgan qiymati va pasaytirilgan stavka bo'yicha foizlar to'lanadi. Sertifikat egasiga sertifikatning muomalada bo'lismuddati tugashi bilan uning egasiga tegishli bo'lgan dastlab chiqarish va muomalada bo'lismudattalarida belgilangan stavka bo'yicha foizlar emitent bank tomonidan, ushbu sertifikat harid qilingan yildan qat'i nazar, to'lanishi lozim.

Sertifikatlar bir martalik qilib ham, seriyali, egasining nomi yozilgan va ko'rsatuvchi egalik qiladigan turlarda ham chiqarilishi mumkin.

Sertifikatni chiqaruvchi bank Markaziy bank bilan kelishgan holda unga boshqa qo'shimcha shartlar va rekvizitlarni kiritishi mumkin. Sertifikat blankida chiqarish va muomalada bo'lismuning barcha shartlari (sertifikat bo'yicha talab qilish xuquqini boshqa shaxsga berish shartlari va tartibi) ko'rsatilishi zarur. Agarda sertifikat bilan uning blankida ko'rsatilgan shartlarda nazarda tutilmagan operatsiya amalga oshirilgan bo'lsa, unda bunday operatsiya xaqiqiy emas, deb hisoblanadi.

Veksellar

Veksel (nemischa Wechsel so'zidan) – veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

Oddiy veksel (solo veksel) – bu qarzdorning (veksel beruvchining) muayyan pul summasini ko'rsatilgan muddatda kreditorga (birinchi oluvchisiga) to'lash majburiyatini ifodalovchi hujjat.

O'tkazma veksel (tratta) – bu veksel beruvchi kreditor(trassant)ning qarzdor(trassat)ga ma'lum pul summasini ko'rsatilgan muddatda uchinchi shaxs birinchi oluvchi(remitent)ga to'lashi buyrug'ini ifodalovchi hujjat.

O'tkazma veksel, agar u qarzdor – trassat tomonidan aktseptlanmagan bo'lsa, qonuniy kuchga ega bo'lmaydi. Aktsept (to'lash uchun rozilik) yozma ravishda vekselning ustki tomonida amalga oshiriladi. Aktsept umumiyligi yoki chegaralangan (qisman) bo'lisi mumkin. Qismli aktsept – bu qarzdorning veksel valyutasi bir qismini to'lash uchun yozma ravishdagi roziligidir. Veksel aktseptlanmagan hollarda yoki u bo'yicha to'lovdan bosh tortilsa, veksel bo'yicha da'vo qilinishi mumkin. Bunda uning egasida veksel bo'yicha majburiyatga ega bo'lgan oldingi shaxslarga regress, ya'ni qaytarma talab tartibida to'lash xuquqi paydo bo'ladi.

Veksel majburiy rekvizitlarga ega bo'lishi lozim, ulardan hech bo'limganda bittasining yo'qligi vekselni haqiqiy bo'lmasligiga olib keladi.

O'tkazma vekselning oddiy vekseldan asosiy farqi shundan iboratki, u qimmatliklarni bir shaxs ixtiyoridan boshqa shaxs ixtiyoriga o'tkazish uchun mo'ljallangan.

O'tkazma vekselning mazmunidan shu narsa kelib chiqadiki, u bo'yicha majburiyat trassat (to'lovchi) uchun faqat u veksel (aktsept)ni qabul qilgan yildan boshlab paydo bo'ladi. Aks holda trassat veksel beruvchi uchun mutlaqo begona shaxs bo'lib qoladi. Bundan kelib chiqib, veksel bo'yicha pullarni oluvchilar oldindan, to'lov muddati kelgunga qadar to'lovchining vekselni to'lashga bo'lgan munosabatini aniqlashi mumkin. Bu maqsadga vekselni trassatga uni aktseptlash, demak, o'z zimmasiga to'loymi amalga oshirish majburiyatini olish taklifi bilan taqdim etish yo'li orqali erishiladi.

Shu bilan birga, vekselni aktseptga taqdim etish veksel egasi trassat va trassantning qodirligiga ishongan hollar uchun majburiy hisoblanmaydi. Veksel aktseptga istalgan yilda, veksel berilgan kundan boshlab to to'lov muddati boshlanadigan yilgacha taqdim etilishi mumkin. Veksel hatto

to'lov muddatidan keyin ham aktseptga taqdim etilishi hamda aktseptlanishi mumkin va trassat u bo'yicha vekselni muddatigacha qabul qilgandek javob beradi.

Odatda, veksel aktseptga banklar tomonidan to'lovchining manzili bo'yicha taqdim etiladi. Trassat unga veksel birinchi marta taqdim etilganidan bir kundan so'ng uni ikkinchi marta taqdim etilishini talab qilish huquqiga ega. Agar u ushbu muddatdan so'ng qabul qilinmasa, u holda veksel qabul qilinmagan hisoblanadi. Trassat vekselni aktsept uchun o'zida qoddirishni talab qilish huquqiga ega emas.

Aktsept, odatda, vekselning ustki tomoni chap qismida belgilanadi va to'lovchining imzosi majburiy ravishda qo'yilgan holda "aktseptlangan", "qabul qilindi", "to'layman" so'zleri bilan ifodalanadi. Vekselning ustki tomonidagi oddiy imzo ham vekselning qabul qilinganligini anglatadi.

Veksel istalgan summaga 3 oy muddatgacha, istisno hollarda esa – 6 oy gacha yozilishi mumkin. U "belgilangan kunga" yoki "tuzilgan kundan qandaydir yilga" muddat bilan berilishi mumkin. Agar vekseda muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u taqdim etilganda to'lanishi lozim bo'lган veksel sifatida ko'rib chiqiladi.

To'lov muddati kelib, veksel taqdim etilgan yilda veksel beruvchi unda ko'rsatilgan summani veksel egasiga to'lashga majbur, shundan so'ng ikki kunlik muddatda veksel berilganligini ro'yxatga olgan bankka veksel bo'yicha to'lov amalga oshirilganligi haqida xabar berishi kerak. Agar veksel muddatida to'lanmagan bo'lsa, bank qarzdor korxonaning hisobraqamiga kelib tushadigan pul mablag'larini veksel bo'yicha majburiyatlarni qoplash hisob raqamiga o'tkazish huquqiga ega.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlar va ularning xususiyatlari

Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning umumiy tushunchasi

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari - o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning optionlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar

Hosila qimmatli qog'ozlar (HQQ) – bu shartnomalar bo'lib, ular bo'yicha bir tomon qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini ma'lum muddatda kelishilgan narxda sotib olish yoki sotish huquqi yoxud majburiyatini oladi. Ko'pincha bazis aktiv (ya'ni shartnoma asosida yotuvchi qimmatli qogoz) sifatida aktsiyalar va obligatsiyalar ishtirok etadi.

O'zbekistonda xosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ular muomalada bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Hosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularning muomalada bo'lishi haqidagi Nizomga muvofiq respublika hududida faqat ularning negizida akdiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari yotadigan xosila qimmatli qog'ozlar chiqarilishi mumkin. Mazkur xosila qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasi davlat ro'yxatidan o'tishi va belgilangan tartibda ro'yxatga olish raqamiga ega bo'lishi lozim.

Hosila qimmatli qog'ozlarning emitenti – bu HQQni chiqaruvchi va ushbu qimmatli qog'ozlar egalarining oldida ular bo'yicha o'z nomidan majburiyatga ega bo'lgan yuridik shaxsdir. Hosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror uni chiqarish vakolatiga ega bo'lgan emitentning boshqaruv idorasi tomonidan qabul qilinadi.

Hosila qimmatli qog'ozlar naqd hamda naqdsiz shakllarda chiqarilishi mumkin. Naqdsiz shaklda chiqarilgan hollarda ular global sertifikat HQQning naqdsiz shaklidagi butun nashirini (yoki bir qismini) tasdiqlovchi va depozitariyda saqlanadigan, shuningdek, bir martalik sertifikat uchun talab etiladigan barcha rekvizitlar, HQQ nashri emissiyasi va muomalasining umumiy shartlari ro'yxatini o'z ichiga olgan hujjat bilan rasmiylashtiriladi.

Hosila qimmatli qog'ozlar optionlar, fyucherslar va warrantlar ko'rinishida chiqarilishi mumkin.

Options (nemischa option co'zidan) – emitentning muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini optionsonda ko'rsatilgan muddatda qat'iy belgilangan narxda sotib olish huquqini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Optionsning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning egasi qimmatli qog'ozning o'zini harid qilmaydi, balki uni sotib olish yoki sotish huquqiga ega bo'ladi. Bunda u o'zining harid qilish yoki sotish xuquqidan foydalanishi yo bo'lmasa, undan voz kechishi mumkin.

Option shartnomasida ikki tomon ishtirok etadi option haridori (egasi) – ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotish xuquqiga ega bo'ladi shaxs hamda sotuvchi (ustiga yozuvchi) – tegishli ravishda ushbu qimmatli qog'ozlarni sotish yoki harid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oluvchi shaxs.

Barcha optionlar ikki xilga bo'linadi. Harid qilish uchun option "kolloption" (sall) va sotish uchun option – po'toptsion (rut). Harid tsilish optioni (sall) kelajakda xosila qimmatli qog'oz tomonidan belgilangan shartlarda bazis aktivini sotib olish xuquqini beradi. Sotish optioni (rut) o'z egasiga kelajakda bazis aktivini hosila qimmatli qog'oz shartlariga muvofiq sotish xuquqini beradi.

Option va fyuchers savdolarining negazida olibsotarlik manfaati, qimmatli qog'ozlar kursining ko'tarilishi yoki pasayishidan pul ishlab olishga intilish yotadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq, optionlar ular emitentining ilgari chiqarilgan shaxsiy qimmatli qog'ozlarini ham, uchinchi shaxslar qimmatli qog'ozlarini ham harid qilish yoki sotish xuquqini tasdiqlashi mumkin. Bazis aktivi emitentning birinchi marta muomalaga chiqarilayotgan shaxsiy qimmatli qog'ozlaridan iborat bo'lган optionlarning chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Varrant – bu uning egasi ma'lum muddat davomida yoki ma'lum bir kunda warrantlar emitenti tomonidan dastlabki chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni harid qilish huluqini olganligini tasdiqlovchi hujjat. Shunday qilib, warrantlarni chiqarish bazis aktivini tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlarini chiqarish bilan bog'lanadi. Varrantning bazis aktivi bo'lган qimmatli qog'ozlarning bir nashri faqat warrantning bitta nashriga xuquq beradi.

Warrantlar muomalaga chiqarilgan va uchinchi shaxslarning qo'lida bo'lган yoki emitentning o'zi tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar bo'yicha chiqarilishi mumkin emas. Bazis aktivining bahosi qimmatli qog'ozlar nominalidan past bo'lган warrantlarnin gemissiyasi taqiqanadi (obligatsiyalar bundan mustasno).

Varrant emitentlari warrantlarning dastlabki egalariga ularni harid qilish uchun teng narx shartlarini ta'minlashi kerak. Warrantlar egalari uchun qimmatli qog'ozlarni joylashtirish narxi ushbu qimmatli qog'ozlarni warrantlar egasi bo'lмаган sarmoyador tomonidan joylashtirilishi narxidan farq qilishi mumkin. Warrantlar bilan operatsiyalar qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlarida bajarilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers (futures) - o'zida nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarni qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Fyuchers shartnomalari birjalarda sotiladigan qimmatli qog'ozlarga ham, tovarlarga ham taqdim etilishi mumkin.

Fyucherslarning asosiy belgisi – narxining aniqligi va ijro etishning majburiyligidir. Fyucherslar shartnoma bo'yicha sotib olinadigan qimmatlikka egalik qilish huquqining bir qo'ldan boshqa qo'lga zudlik bilan o'tkazilishini nazarda tutmaydi. Fyucherslar yordamida qonun bilan kafolatlangan majburiyat sotib olinadi, bu bitim sifatida rasmiylashtirilishi mumkin. Fyuchersning o'ziga xos belgisi shundan iboratki, ular mazkur qimmatliklar (sotuvchilarda yoki umuman) ayni yilda bormi yoki yo'qmi, undan qati nazar, sotilishi mumkin.

Fyucherslarning optionlar bilan o'xshash tomoni shundaki, ularning ikkalasi ham fond boyliklarini kelajakda sotib olish imkonini beradi. Farqlarga kelsak, ular quyidagilardan iborat:

Fyucherslar oldi-sotdi hujjati sanalmaydi; fyuchers fond boyliklarini etkazib berish qatiy majburiyatidir. Fyuchers belgilangan muddat tugashi bilan majburiy hisob – kitobni talab qiladi.

Fyuchers bo'yicha xatar, optionnikiga qarganda ancha yuqori, chunki fyuchers haridori option haridoridan farqli o'laroq, option bo'yicha yo'qotilgan mukofotga qaraganda ancha katta summani yo'qotishi mumkin.

Fyuchers shartnomasining shartlari andozalidir. Fyuchers shartnomasining narxi birja kimoshdi savdolarida talab va taklif muvozanatining natijasi sifatida belgilanganadi. Fyuchers bitimlari bo'yicha hisob-kitoblar, odatda, fyuchers bilan savdo qiluvchilar (sotuvchilar va haridorlar)ning hisob raqamlari ochilgan birjalarning kliring palatalari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonning qonun hujjatlariga ko'ra, fyuchers – bu ma'lum qimmatli qog'ozlarni shartnomada belgilangan narxda ma'lum kelajak sanada sotib olish yoki sotish uchun so'zsiz majburiyatni tasdiqlovchi qimmatli qog'oz (shartnoma)dir. Bazis aktivi bиринчи мarta muomalaga чиқарилотган qimmatli qog'oz bo'lgan fyucherslarni чиқаришга yo'l qo'yilmaydi. Fyucherslar fyuchers emitentining o'zi tomonidan yoki uchinchi shaxslar tomonidan чиқарilgan qimmatli qog'ozlarni harid qilish yoki sotish majburiyatini tasdiqlaydi. Fyucherslar o'z xuquqini amalgalashirishdan bosh tortishni nazarda tutuvchi optionlardan yoki varrantlardan farqli ravishda, ijro etish uchun majburiydir. Fyuchers egasi yo qimmatli qog'ozlarni etkazib berishi yoki uni keyingi muomalada bo'lishi uchun qontr agentga sotishi lozim.

4.Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi va ularning turlarini tasnifi

Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi va ularning turlarini tasnifi Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi. Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi ularning yuridik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy mohiyati bilan chambarchas bog'langan. Qimmatli qog'ozlar qiymati, odatda, ularning narxidan farqlanadi, chunki qiymat professional baholovchi, xaridor, sotuvchi, potentsial investor, vositachi yoki emitentning muayyan fikrini ifodalaydi, narx esa tuzilgan bitim shartlarini o'zida aks ettiradi. Qimmatli qog'ozlar qiymati hisoblanadi, narxi esa to'lanadi.

Qimmatli qog'ozlarni baholash maqsadlari qo'llaniladigan qiymat standartlarini oldindan belgilab beradi. Natijada aynan bir qimmatli qog'oz bir vaqtning o'zida miqdori bo'yicha jiddiy farqlanadigan bir nechta qiymat turiga ega bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar qiymatining har bir turini aniqlashda maxsus metodika qo'llaniladi.

Qimmatli qog'ozlar qiymati turlari tasnifi:

1.Nominal qiymat. Bu shunday moliyaviy mablag'larki, hatto korxona tugatilgan taqdirda ham ular albatta qimmatli qog'ozlar egalariga qaytariladi;

2. Emissiya qiymati. Aksiyalarni ochiq bozorda joylashtirish vaqtida belgilanadigan qiymat;

3. Balans qiymati. Emitent kompaniyalarning buxgalteriya hisobi ko'rsatkichi, demak, kompaniyalar moliyaviy faoliyatini tahlil qilish vositasi ham hisoblanadi.

4. Tugatish qiymati. Tashkilotlarning aktivlari kim oshdi savdosida sotilganda, tugatish tartibotini amalga oshirishda va hatto ularning faoliyati yakunlanishi bo'yicha ham o'zgarmasligicha qoladigan qiymat;

5. Investitsiya qiymati. Investor nuqtai nazaridan eng qiziqarli qiymat. U mazkur qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarning daromadliligi va foydaliligin belgilab beradi;

6. Bozor qiymati. Ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni xarid qilish uchun to'lov miqdorini belgilab beruvchi qiymat;

7. Hisob-kitob qiymati. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash natijasi sifatida hisoblash metodi bilan keltirib chiqariladigan qiymat.

2 – mavzu. Qimmatli qog’ozlar qiymatini baholashning turlari va regulativ asoslari

Reja:

- 1. Baholash faoliyatini huquqiy-me’yoriy tartiblashtirish**
- 2. Qimmatli qog’ozlar qiymatini baholashning asosiy maqsadlari**
- 3. Qimmatli qog’ozlar qiymatini baholash xususiyatlari**
- 4. Qimmatli qog’ozlarni baholash uchun zaruriy hujjatlar**

Tayanch iboralar: qimatbaho qog’ozlarning balans (yoki buxgalter) qiymati, likvidatsion (yo’q qilish, qutilish) qiymati, nominal qiymat, baholash faoliyati, bozor qiymati.

1.Baholash faoliyatini huquqiy-me’yoriy tartiblashtirish

Baholash faoliyati to’g’risida o’zbekiston respublikasi qonuni 1999 yil 19 avgustda, 811-I-son bilan qabul qilingan va 2009 yil 9 aprelda, O’RQ-208-son bilan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilgan.

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonun baholash faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq munosabatlarni tartibga soladi.

2-modda. Baholash faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlari

Baholash faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Agar O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O’zbekiston Respublikasining baholash faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo’lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo’llaniladi.

3-modda. Baholash faoliyati tushunchasi

Baholash faoliyati baholovchi tashkilotning baholash ob’ekti qiymatini aniqlashga qaratilgan faoliyatidir.

4-modda. Baholash faoliyatini litsenziyalash

Baholash faoliyati litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Baholash faoliyatini litsenziyalash tartibi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Baholash faoliyatini litsenziyalashni amalga oshiruvchi organ (bundan buyon matnda litsenziyalovchi organ deb yuritiladi) baholovchi tashkilotning qonun hujjatlarida belgilangan litsenziya talablariga va shartlariga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

«4¹-modda. Baholovchi tashkilot

Baholovchi tashkilot baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo’lgan yuridik shaxsdir.

Baholovchi tashkilot o’z faoliyatida mustaqildir. Xizmatlarning iste’molchisi (bundan buyon matnda buyurtmachi deb yuritiladi) yoki boshqa manfaatdor shaxslarning baholovchi tashkilot faoliyatiga aralashishiga yo’l qo’yilmaydi.

Baholovchi tashkilot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi va o’z faoliyatini amalga oshirishi mumkin, ochiq aktsiyadorlik jamiyati bundan mustasno. Bunda quyidagi majburiy shartlarga rioya etilishi kerak:

baholovchi tashkilotning rahbari baholovchi bo’lishi;

baholovchi tashkilotning shtat birligi tegishli malakaga ega bo’lgan baholovchilarining shtatdagagi eng kam soniga doir, qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq bo’lishi;

baholovchi tashkilotda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan miqdordagi ustav fondining mavjudligi;

baholovchi tashkilotda baholovchi tashkilotning fuqarolik javobgarligini sug’urta qilish shartnomasi bo’yicha sug’urtalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi sug’urta polisining mavjudligi.

Baholovchi (baholovchilar) faqat bitta baholovchi tashkilotning muassisi (ishtirokchisi, aktsiyadori) bo'lishi mumkin.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanganmagan bo'lsa, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining baholovchi tashkilotni tashkil etishi, shuningdek baholash faoliyatini amalga oshirishi taqiqlanadi.

4²-modda. Baholovchi

Baholovchi belgilangan tartibda litsenziyalovchi organ tomonidan berilgan baholovchining malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Baholovchi baholash ishlarini o'tkazishga, agar u baholovchi tashkilotning shtatida turgan bo'lsa yoki baholovchi tashkilot u bilan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomaga tuzgan bo'lsa, baholovchi tashkilot tomonidan jalb etilishi mumkin.

Baholovchi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'tkazadigan tekshirishlarda va boshqa tadbirdorda baholovchi tashkilot hamda ushbu organlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosidagina mutaxassis sifatida ishtirok etishi mumkin.

4³-modda. Baholovchining yordamchisi

Baholovchining yordamchisi baholovchining malaka sertifikatiga ega bo'limgan va baholovchining baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish bilan bog'liq topshiriqlarini bajaradigan, baholash ob'ektini baholash to'g'risidagi hisobotni (bundan buyon matnda baholash to'g'risidagi hisobot deb yuritiladi) hamda baholashni o'tkazish bilan bog'liq boshqa rasmiy hujjatni imzolash huquqiga ega bo'limgan jismoniy shaxsdir.

Baholovchi yordamchisining mehnat shartlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, baholovchi tashkilot bilan tuzilgan mehnat shartnomasida (kontraktda) belgilab qo'yiladi.

Baholovchining yordamchisi sifatida ishlangan vaqt baholovchining malaka sertifikatini olish uchun zarur bo'ladigan ish stajiga qo'shiladi»;

5-modda. Baholash ob'ektlari

Baholash ob'ektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

alohida moddiy ob'ektlar (ashyolar);

shaxsning mol-mulkini tashkil etuvchi ashyolar majmui, shu jumladan muayyan turdag'i (ko'char yoki ko'chmas) mol-mulk;

mol-mulkka yoki mol-mulk tarkibidagi ayrim ashyolarga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar;

talab qilish huquqlari, majburiyatları (qarzlar);

ishlar, xizmatlar, axborot;

intellektual mulk ob'ektlari va qonun hujjatlariga fuqarolik muomalasida bo'lishi mumkinligi belgilangan boshqa fuqarolik huquqlari ob'ektlari.

6-modda. Baholash ob'ekti qiymatining turlari

Baholash maqsadlariga qarab baholash ob'ekti xususida bozor qiymati yoki bozornikidan farqlanuvchi qiymat qo'yiladi.

Baholash ob'ekti qiymati turlarining qo'llanish sohasi va ularning farqlanuvchi xususiyatlari baholash standartlari bilan belgilanadi.

Baholash ob'ektini baholash pul shaklida amalga oshiriladi.

7-modda. Baholash ob'ekting bozor qiymati

Baholash ob'ekting bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko'ra mazkur baholash ob'ekting ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda o'z manfaatlarini yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi.

Agar biron-bir baholash ob'ekting baholashda majburiy o'tkazish talabi mavjud bo'lgan normativ hujjatda yoki baholash ob'ekting baholash to'g'risidagi shartnomada (matnda bundan buyon shartnomaga deb yuritiladi) qiymatning aniq turi ko'rsatilgan bo'lmasa, mazkur ob'ekting bozor qiymati belgilanishi lozim. Mazkur qoida normativ hujjatda baholash ob'ekti qiymatining

turini aniqlovchi, ushbu Qonunda yoki baholash standartlarida nazarda tutilmagan atamalarda foydalanilgan taqdirda ham qo'llanishi kerak.

8-modda. Baholash ob'ektining bozornikidan farqlanuvchi qiymati

Baholash ob'ektining bozornikidan farqlanuvchi qiymati deganda mazkur baholash ob'ektining baholash ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilganidan farqli shartlarida o'tkazilgan eng ehtimol tutilgan baho tushuniladi.

9-modda. Baholash standartlari

Baholash standartlari o'zaro bog'liq norma va qoidalar majmuidan iborat bo'lib, ular quyidagilarni belgilaydi:

- baholash tushunchalari va printsiplarini;
- baholash faoliyatida qo'llaniladigan atamalar va ta'riflarni;
- qiymat turlariga qo'yiladigan talablarni;
- boshlang'ich axborotga qo'yiladigan talablarni;
- baholash o'tkazish tartibini;
- baholash usullarini qo'llanish xususiyatlari;
- baholash natijalarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarni;
- boshqa talablarni.

Baholash standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, ularga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda amalga oshiriladi.

10-modda. Baholashni o'tkazish va uning natijalaridan foydalanish huquqi

Baholash o'tkazish huquqi mutlaq huquqdir.

Baholash ob'ektlarini baholash ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Baholashni o'tkazish natijalaridan baholash ob'ekti o'z balansida turgan shaxslar buxgalteriya hisobi va hisobot ma'lumotlariga tuzatishlar kiritish uchun foydalanishlari mumkin.

11-modda. Baholash o'tkazishning majburiyligi

Baholashni o'tkazishni davlatga to'la yoki umumiyligida qisman qarashli baholash ob'ektlari bitim tuzishga jaib etilgan taqdirda, shu jumladan:

- baholash ob'ektlarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, ishonchli boshqaruvga topshirish yoki ijaraga berish maqsadida ularning qiymati aniqlanayotganda;

- baholash ob'ektlaridan garov narsasi sifatida foydalanayotganda;

- baholash ob'ektlari sotilayotganda yoki o'zga shaxsga boshqacha tarzda o'tkazilayotganda;

- baholash ob'ektlari bilan bog'liq qarz majburiyatlaridan boshqaning foydasiga voz kechilayotganda;

baholash ob'ektlari yuridik shaxslarning ustav fondlariga ulush tariqasida berilayotganda majburiydir.

Baholash o'tkazish baholash ob'ektining qiymati to'g'risida nizo chiqqan taqdirda ham, shu jumladan:

- mol-mulk natsionalizatsiya qilinayotganda;

- ipoteka krediti berilayotganda;

- taraflardan birining talabiga binoan er-xotinning mol-mulki bo'linayotganda;

- mol-mulk mulkdorlaridan davlat ehtiyojlari uchun sotib olinayotgan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha tarzda olib qo'yilayotganda;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri to'lanishi ustidan nazorat o'tkazilayotganda majburiydir.

Ushbu moddaning amal qilishi davlat unitar korxonalari, muassasalari va tashkilotlari o'rtasida ularga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi bilan berkitib qo'yilgan mol-mulkni tasarruf etishda kelib chiqadigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

«12-modda. Baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish uchun asoslar

Baholovchi tashkilot va buyurtmachi o'rtasida tuziladigan shartnoma yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sud ajrimi baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish uchun asoslardir.

13-modda. Baholash ob'ektini baholash to'g'risidagi shartnomaga oid majburiy talablar

Baholovchi tashkilot va buyurtmachi o'rtasidagi shartnoma yozma shaklda qonun hujjatlariga muvofiq tuziladi.

Shartnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

baholash ob'ektining nomi;

baholash ob'ektini baholashning maqsadi;

baholash ob'ektining aniqlanadigan qiymati turi;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish muddati;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazgani uchun pul mukofoti miqdori.

Shartnomaga baholovchi tashkilotda baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu litsenziyaning tartib (ro'yxatdan o'tkazilganlik) raqami va berilgan sanasi ko'rsatilgan holda, shuningdek baholovchi tashkilotning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'ortalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi sug'urta polisining mavjudligi haqidagi ma'lumotlar kiritilishi shart.

Baholash ob'ektini baholashdan o'tkazganlik uchun pul mukofotining miqdori shartnomada belgilab qo'yiladi va u baholash ob'ekti qiymatining baland-pastligiga bog'liq bo'lishi mumkin emas.

14-modda. Baholovchi tashkilotning huquqlari

Baholovchi tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

qonun hujjatlarida belgilangan baholash usullarini mustaqil qo'llash;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlardan foydalanish erkinligi ta'minlanishini buyurtmachidan talab qilish, yozma shaklda tushuntirishlar va qo'shimcha ma'lumotlar olish;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborotni uchinchi shaxslardan talab qilib olish. Agar mazkur axborotni berishning rad etilishi baholashning ishonchlilikiga jiddiy ta'sir etadigan bo'lsa, baholovchi buni baholash to'g'risidagi hisobotda ko'rsatib o'tadi;

baholash ob'ektlarini baholashdan o'tkazishda ishtirok etishga boshqa baholovchilarni va mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb etish;

buyurtmachi shartnoma shartlarini buzgan hollarda baholash ob'ektini baholashdan o'tkazishni rad etish.

Baholovchi tashkilot qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

15-modda. Baholovchi tashkilotning majburiyatları

Baholovchi tashkilot:

baholash faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlarida belgilangan litsenziya talablariga va shartlariga rivoja etishi;

baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani, baholovchining (baholovchilarning) malaka sertifikatini shartnoma tuzilishi oldidan buyurtmachining talabiga ko'ra ko'rsatishi;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazishda ushbu Qonunning 16-moddasida nazarda tutilgan, xolisona baholashni o'tkazishga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelganligi oqibatida o'zining ishtirok etish imkoniyati yo'qligi to'g'risida buyurtmachiga xabar berishi;

buyurtmachining so'rvonomasiga ko'ra baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari haqida axborot taqdim etishi;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish davomida olinadigan hujjatlarning but saqlanishini ta'minlashi;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish davomida aniqlangan zarar etkazilganligi, shuningdek qonun hujjatlarining boshqacha tarzda buzilganligi faktlari to'g'risida baholash ob'ekti mulkdoriga va (yoki) buyurtmachiga xabar berishi;

baholash to'g'risidagi hisobotning nusxasi uch yil mobaynida saqlanishini ta'minlashi;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish davomida buyurtmachidan olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi;

baholovchilarning har yili malaka oshirish kurslarida belgilangan tartibda o'qishini ta'minlashi;

baholovchi tashkilotlar faoliyatining reytingini baholash uchun baholovchi tashkilotlar va baholovchilar birlashmalarining so'rovnomasiga ko'ra axborot taqdim etishi shart.

Baholovchi tashkilotning zimmasida qonun hujjaligiga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lisi mumkin»;

5) quyidagi mazmundagi 15¹-modda bilan to'ldirilsin:

«15¹-modda. Baholovchi tashkilot tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha professional xizmatlar

Baholovchi tashkilot quyidagi qo'shimcha professional xizmatlar ko'rsatishi mumkin:
baholash to'g'risidagi hisobotlarning ishonchlilagini ekspertiza qilish;
investitsiya loyihamalarini ishlab chiqish va tahlil qilish, biznes-rejalar tuzish;
baholash jarayonini avtomatlashtirish va baholash faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish;

baholash faoliyati sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va ularning natijalarini tarqatish.

Baholovchi tashkilot qonun hujjaligiga muvofiq boshqa qo'shimcha professional xizmatlar ham ko'rsatishi mumkin»;

«16-modda. Baholash ob'ektini baholashdan o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi

Baholash ob'ektini baholashdan o'tkazishga quyidagi hollarda yo'l qo'yilmaydi, agar:

buyurtmachi baholovchi tashkilotning mulkdori, muassisi (ishtirokchisi, aktsiyadori), kreditori, sug'urtalovchisi, baholovchisi bo'lsa;

baholovchi tashkilot va (yoki) baholovchi buyurtmachining mulkdori, muassisi (ishtirokchisi, aktsiyadori), kreditori bo'lsa;

baholovchi tashkilotning va (yoki) baholovchining baholash ob'ektida mulqiy manfaati bo'lsa;

baholovchi baholash ob'ektida mulqiy manfaati bo'lган shaxslar bilan yaqin qarindoshlik yoki qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik munosabatlarda bo'lsa.

17-modda. Baholash to'g'risidagi hisobot mazmuniga oid talablar

Baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish natijalari baholash to'g'risidagi hisobot bilan rasmiylashtiriladi.

Baholash to'g'risidagi hisobotda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lisi kerak:

baholash to'g'risidagi hisobot tuzilgan sana va uning tartib (ro'yxatdan o'tkazilganlik) raqami;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish uchun asos;

baholash ob'ektini baholashning maqsadi;

baholash ob'ektining aniqlanadigan qiymati turi;

baholovchi tashkilotning nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va unga berilgan, baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litzenziya to'g'risidagi ma'lumotlar;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazgan baholovchining (baholovchilarning) malaka sertifikati to'g'risidagi ma'lumotlar;

baholash ob'ektining uning qiymatini aniqlash sanasidagiga aynan identifikasiya qilish imkonini beradigan tavsifi, shuningdek baholash ob'ekti mulkdorining rekvizitlari;

baholash standartlari, ulardan foydalanish uchun asos, baholash ob'ektini baholashdan o'tkazishda foydalanilgan ma'lumotlarning mazkur ma'lumotlar olingan manbalar ko'rsatilgan holdagi ro'yxati;

baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish izchilligi, shuningdek olingan natijani qo'llanish chegaralari;

baholash ob'ektining qiymati aniqlangan sana;

baholovchi tashkilot foydalanadigan hamda baholash ob'ektining miqdor va sifat xususiyatlarini belgilaydigan hujjalar ro'yxati.

Agar baholash ob'ektini baholash bir nechta baholovchi tomonidan o'tkazilgan bo'lsa, baholash to'g'risidagi hisobotni tayyorlash jarayonida ular tomonidan bajarilgan ish baholash to'g'risidagi hisobotda ko'rsatiladi.

Agar baholash ob'ektini baholashdan o'tkazishda bozor qiymatidan farqlanuvchi qiymat aniqlangan bo'lsa, baholash to'g'risidagi hisobotda bahoni aniqlash mezonlari va baholash ob'ektining bozor qiymatini aniqlash imkoniyatidan voz kechish sabablari ko'rsatilgan bo'lisi kerak.

Baholash to'g'risidagi hisobotda baholash ob'ekti qiymatini asoslash uchun zarur bo'lган boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Baholash ob'ektlarining ayrim turlarini baholashdan o'tkazish uchun qonun hujjatlarida baholash to'g'risidagi hisobotlarning maxsus shakllari nazarda tutilishi mumkin.

Baholash to'g'risidagi hisobotning har bir beti baholash ob'ektini baholashdan o'tkazgan baholovchi (baholovchilar) tomonidan imzolanadi, hisobot baholovchi tashkilot rahbarining imzosi, mazkur tashkilotning muhri bilan tasdiqlanadi va buyurtmachiga topshiriladi.

Baholash to'g'risidagi hisobot har xil sharhlashga yo'l qo'ymasligi yoki chalg'itmasligi kerak»;

18-modda. Hisobotning ishonchliligi

Ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda tuzilgan hisobot ishonchli deb tan olinadi.

Baholash ob'ektining hisobotda ko'rsatilgan qiymati, agar qonun hujjatlari yoki sud qarori bilan boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, baholash ob'ekti xususida bitim tuzish maqsadi uchun tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi.

18¹-modda. Baholash to'g'risidagi hisobotning nizoliligi

Zarur bo'lган holda, baholash to'g'risidagi hisobotning ishonchliliginin tekshirish uchun mazkur hisobot qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa baholovchi tashkilot tomonidan shartnomasi asosida ekspertizadan o'tkazilishi mumkin.

Baholash to'g'risidagi hisobotning ishonchliliginin ekspertizadan o'tkazish natijalari ekspert xulosasi bilan rasmiylashtiriladi.

Ekspertiza o'tkazayotgan baholovchi tashkilotning ekspert xulosasida baholash to'g'risidagi hisobotning ishonchliligi haqidagi xolisona fikr bo'lishi kerak. Bunda mazkur tashkilot takroriy baholashni o'tkazishga va baholash ob'ektining qiymati to'g'risida ekspert xulosasini chiqarishga haqli emas.

Baholovchi tashkilotni ilgari o'zi bajargan baholash to'g'risidagi hisobotning ishonchliliginin ekspertizadan o'tkazishga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

Buyurtmachi baholash to'g'risidagi hisobot ishonchliligi to'g'risida olingan ekspert xulosasiga rozi bo'lмаган taqdirda, nizo sudda ko'rib chiqilishi kerak.

Baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish materiallarini nizoli hollarda ekspertizadan o'tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekspert komissiyasi tuziladi.

Baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish materiallarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspert komissiyasining mazkur materiallarning ishonchliliginin aniqlashga doir xulosasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faqat sud ajrimiga ko'ra tayyorlanadi. Baholash to'g'risidagi hisobot sud tomonidan ishonchli emas deb topilganda baholash ob'ektini baholash materiallarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspert komissiyasi sudning ajrimiga ko'ra baholash ob'ektini takroriy baholashdan o'tkazadi va baholash ob'ektining qiymati to'g'risidagi xulosasini sudga taqdim etadi»;

«19-modda. Baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Baholovchi tashkilot shartnomani bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida buyurtmachiga zarar etkazilganligi uchun uning oldida javobgar bo'ladi. Buyurtmachiga etkazilgan zararning, shu jumladan boy berilgan foydaning o'rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, baholovchi tashkilot tomonidan qoplanishi kerak.

Baholovchi baholash ob'ektini baholashni sifatsiz o'tkazganligi yoki lozim darajada o'tkazmaganligi, maxfiy ma'lumotlarni oshkor etganligi natijasida etkazilgan zarar yoki baholovchi tashkilotning zarar ko'rshiga olib kelgan boshqa xatti-harakatlar uchun baholovchi tashkilot oldida qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

20-modda. Baholovchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish

Baholovchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

21-modda. Baholovchi tashkilotlarning va baholovchilarning birlashmalari

Baholovchi tashkilotlar va baholovchilar o'z manfaatlarini himoya qilish hamda ifoda etish maqsadida uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda birlashishi mumkin».

22-modda. Nizolarni hal etish

Baholash faoliyati amalga oshirilayotganda yuzaga keladigan nizolar belgilangan tartibda hal etiladi.

2.Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning asosiy maqsadlari

Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- ularning oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar tuzish, meros qoldirish va in'om etish tartibotini amalga oshirish;
- aksionerlik jamiyatiga investitsiyalar jalb qilish;
- korxonalar restrukturizatsiyasi: qo'shilish, qo'shib olish va boshqalar;
- qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish uchun yoki ularni qo'shimcha joylashtirish va muomalaga chiqarish uchun bahosini aniqlash;
- kreditlashda garov qiymatini aniqlash uchun qimmatli qog'ozlar bahosini aniqlash;
- qimmatli qog'ozlarni ishonchnoma asosida boshqaruvga berishda;
- masalan, qaytarib olish uchun to'lovni amalga oshirishda kompaniya va uning aktivlarining joriy bozor qiymatini aniqlash.

Aksiyalarni baholash bu muayyan korxona (biznes), aniqrog'i, baholanayotgan aksiyalar paketiga to'g'ri keladigan biznes qiymati ulushining bozor qiymatini aniqlashdir.

Amal qilish muddati tugashi bilan nominalga mutanosiblikda muqarrar to'lanadigan fiksirlangan daromadli moliyaviy instrumentlar (veksellar va obligatsiyalar) dan farqli ravishda korporatsiyalar aksiyadorlari oldida aksiyalarni qayta sotib olish bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi. Aksiyalar qiymati (kotirovkasi) faqatgina qimmatli qog'ozlarning ochiq bozoridagi talab va taklif nisbati bilan belgilanadi.

Veksellarni baholash – bu bitim tomonlari barcha zaruriy axborotlarga ega bo'lган, bitim narxi miqdorida esa qandaydir favqulorra holat aks etmagan holda

ongli tarzda harakatlanayotgan raqobat sharoitida ochiq bozorda veksel sotilishi mumkin bo'lган eng ehtimoliy narxni aniqlashdir. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan emissiya qilingan oddiy va o'tkazma veksellarni uchun baholash ekspertizasi o'tkazilishi mumkin.

Obligatsiyalarni baholash shundan iboratki, obligatsiyalarning amal qilish muddati davomida uning egasi xarid qilish vaqtida obligatsiyaga joylashtirgan summani olishi lozim. Buning o'ziga xosligi obligatsiyalar egasi olishi lozim bo'lган jami to'lovlar vaqt bo'yicha taqsimlanganligi, o'z navbatida esa barcha kelgusi pul oqimlarini obligatsiyalar qiymatini baholash amalga oshiriladigan vaqtga diskontlash zarurligida namoyon bo'ladi. Diskont ko'rsatkichi sifatida o'xshash moliyaviy instrumentlarning daromadlilagini qabul qilish lozim.

Qimmatli qog'ozlarning barcha shakllarida moliyaviy investitsiyalashni amalga oshirish jarayonida *qimmatli qog'ozlarning investitsiya xususiyatlarini baholash* bozorda muomalada bo'lган alohida moliyaviy instrumentlarning investitsiya xususiyatlarini baholash kabi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarning investitsiya xususiyatlarini baholash investitsiya portfelini shakllantirish maqsadlari hisobga olingan holda investor tomonidan amalga oshiriladigan uning alohida turlarining integral tavsifini o'zida aks ettiradi.

3.Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash xususiyatlari

Qimmatli qog'ozda aks ettirilgan barcha aktivlar va majburiyatlarning qiymatini aniqlash qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning asosiy xususiyati hisoblanadi. Uning istiqboliliginini va qo'yilmalar foydaliliginini prognozlash uchun emitent tashkilotlar moliyaviy qo'yilmalarini tahlil qilish zarur. Bu uning qarzları va biznesda ishtirok shakli asosida qarz qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini o'rnatishga imkon beradi.

Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini baholashga xos xususiyatlar shundan iboratki, ular fond bozorida muomala qilgan holda mohiyatan kapital mayjudligining maxsus turi sanaladi.

Ammo bozorda ham muomala sodir bo‘ladi, demak, qimmatli qog‘ozlar tovar ham hisoblanadi. Bunda QQ moddiy ko‘rinishdagi tovar emasligini anglash zarur, shuning uchun qimmatli qog‘ozlar narxini unga egalik qilishda aksiyadorga o‘tadigan huquqlarga yo‘naltirilgan holda o‘rnatish talab qilinadi. Masalan, aksiyalar egasi uchun – bu korxonalar faoliyatidan qandaydir dividendlar olish imkoniyati, kompaniyalarni qayta tashkil etishda mulk ulushini olish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish imkoniyati va hokazo, veksel egasi uchun esa – bu daromadni qoplash, o‘tkazish yoki uni olishdir. Boshqacha aytganda, qimmatli qog‘ozlarni baholash – bu aksiyadorlarning barcha huquqlari birikmasini aniq va to‘liq tahlil qilish va muayyan vaqtida (qimmatli qog‘ozlar baholanishini o‘tkazish sanasiga) ushbu huquqlar uchun bozor narxini belgilashdir. Qimmatli qog‘ozlar ularning egasiga turli huquqlarni ta’minkaydi, bu O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi («Aksionerlik jamiyati to‘g‘risida»gi,

«Birja faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlar va boshqalar).

Qimmatli qog‘ozlar qiymatin baholashda uning turi, emitent, birja kotirovkasi mavjudligi yoki mavjud emasligi, moliya bozori va birjadan tashqari aylanmada qimmatli qog‘ozlar qatnashishi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar baholash uchun taqdim etilgan qimmatli qog‘ozlar ochiq bozorda joylashtirilgan bo‘lsa, u holda ularning qiymatini baholash qiyosiy yondashuv va huquqlar qiymatini o‘rnatish bo‘yicha ayrim metodikalar yordamida aniqlanishi mumkin. Agar qimmatli qog‘ozlar birja kotirovkasiga ega bo‘lmasa hamda u haqda axborot etarlicha bo‘lmay, kam ma’lumotli bo‘lsa, u holda uning qiymatini baholashda moliya bozori kon'yunkturasi tahlili, kompaniya daromadliligi va emitentning

ishonchliligi haqida ma’lumotlar, uning moliyaviy holati barqarorligi asosida shakllantirilgan hisoblash metodlaridan foydalilanadi.

4.Qimmatli qog‘ozlarni baholash uchun zaruriy hujjatlar

Aksiyalarni baholash uchun hujjatlar. Quyidagilar taqdim etilishi zarur:

1. Ta’sis hujjatlaridan nusxalar (Ustav, Muassislik shartnomasi, Ro‘yxatdan o‘tganlik haqida guvohnoma).
2. Emissiyalarning qisqacha bayonlari va qimmatli qog‘ozlarni chiqarish yakunlari haqida hisobotlardan nusxalar.
3. Kompanianing faoliyat turlari va tashkiliy tuzilmasi.
4. Ko‘chmas mulkka oid ijara shartnomalarining nusxalari (agar mavjud bo‘lsa).
5. Oxirgi 3-5 yil uchun buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari (yoki oldingi davrlarning mumkin bo‘lgan miqdori):
 - o buxgalteriya balansi
 - o foyda va zararlar to‘g‘risida hisobot
6. So‘nggi auditorlik xulosasi (agar auditorlik tekshiruvi o‘tkazilgan bo‘lsa).
7. Asosiy fondlar axborotnomasi.
8. Mulkarning inventar ro‘yxati.
9. Jami aktivlar (ko‘chmas mulk, zaxira, veksellar, nomoddiy aktivlar va b.) haqida ma’lumotlar.
10. Kreditorlik qarzi kengaytmasi.
11. Debitorlik qarzi kengaytmasi:
 - oyuzaga kelish muddatlari bo‘yicha;
 - odebitorlik qarzi bo‘yicha;
 - oshubhali qarzlar ulushi.
12. Sho‘ba kompaniyalar, xoldinglar mavjudligi haqida axborot (agar bo‘lsa), ular bo‘yicha moliyaviy hujjatlashtirish.
13. Yillar bo‘yicha tovar/xizmatlar bo‘yicha rejalashtirilgan yalpi tushum, zaruriy investitsiyalar, xarajatlar, sof foyda ko‘rsatilgan holda yaqin 3-5 yil uchun biznes-reja.

Obligatsiyalarni baholash uchun hujjatlar

Ochiq qimmatli qog‘ozlar bozorida muomalada bo‘lgan obligatsiyalar bo‘yicha baholashni

o'tkazishda faqatgina obligatsiyalarga qonuniy tarzda egalik qilinayotganligini tasdiqlovchi hujjat (masalan, oldi-sotdi shartnomasi) ni taqdim etish zarur.

Ochiq qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'lmanan obligatsiyalarni baholashda quyidagi hujjatlari taqdim etilishi zarur:

Obligatsiyaga egalik huquqini belgilovchi hujjat (oldi-sotdi shartnomasi yoki boshqalar).

Obligatsiyaning chiqarish parametrlari.

Emitent korxonaning ta'sis hujjatlari (Ustav, Muassislik shartnomasi, Ro'yxatdan o'tganlik haqida guvohnoma).

Emitentning oxirgi 3-5 yil uchun buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari (yoki oldingi davrlarning mumkin bo'lgan miqdori) – buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to'g'risida hisobot.

Taqdim etilgan buxgalteriya hisoboti bo'yicha auditorlik xulosasi (agar auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan bo'lsa).

Baholash sanasi uchun emitentning asosiy mablag'lari ro'yxati.

Emitentning jami aktivlari (ko'chmas mulk, zaxira, chet jamiyatlar aksiyalari, veksellar, nomoddiy aktivlar patentlar, litsenziyalar) haqida ma'lumotlar, kengaytmasi bilan.

Veksellarni baholash uchun hujjatlari. Quyidagilar taqdim etilishi zarur:

1. Kopiya veksellar va xarid shartnomasi yoki veksel huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning nusxalari.

2. Ta'sis hujjatlardan nusxalar (Ustav, Muassislik shartnomasi, Ro'yxatdan o'tganlik haqida guvohnoma).

3. Emitentning oxirgi 3-5 yil uchun buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari (yoki oldingi davrlarning mumkin bo'lgan miqdori) – buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to'g'risida hisobot.

4. Asosiy fondlar axborotnomasi.

5. Mulkarning inventar ro'yxati.

6. Kreditorlik qarzi kengaytmasi..

7. So'nggi auditorlik xulosasi (agar auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan bo'lsa).

8. Debitorlik qarzi kengaytmasi:

O yuzaga kelish muddatlari bo'yicha;

O debitorlik qarzi bo'yicha;

O shubhali qarzlar ulushi.

Hujjatlarning mazkur ro'yxati boshlang'ich xarakterga ega bo'lib, baholovchi baholash vazifalari va veksel parametrlari bilan batafsil tanishib chiqqanidan so'ng qisqartilishi yoki kengaytirilishi mumkin.

3 - mavzu. Qimmatli qog'ozlarning qiymatiga narxi

Reja:

- 1. Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi va turlari**
- 2. Qimmatli qog'ozlar narxi tushunchasi**
- 3. Qimmatli qog'ozlar qiymati va narxining o'zaro bog'liqligi**

Tayanch iboralar: baho, baholash, baholash faoliyati, narx, bozor qiymati.

1.Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi va turlari

Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi ularning yuridik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy mohiyati bilan chambarchas bog'langan. Qimmatli qog'ozlar qiymati, odatda, ularning narxidan farqlanadi, chunki qiymat professional baholovchi, xaridor, sotuvchi, potentsial investor, vositachi yoki emitentning muayyan fikrini ifodalaydi, narx esa tuzilgan bitim shartlarini o'zida aks ettiradi. Qimmatli qog'ozlar qiymati hisoblanadi, narxi esa to'lanadi.

Qimmatli qog'ozlarni baholash maqsadlari qo'llaniladigan qiymat standartlarini oldindan belgilab beradi. Natijada aynan bir qimmatli qog'oz bir vaqtning o'zida miqdori bo'yicha jiddiy farqlanadigan bir nechta qiymat turiga ega bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar qiymatining har bir turini aniqlashda maxsus metodika qo'llaniladi.

Qimmatli qog'ozlar qiymati turlari tasnifi:

1.Nominal qiymat. Bu shunday moliyaviy mablag'larki, hatto korxona tugatilgan taqdirda ham ular albatta qimmatli qog'ozlar egalariga qaytariladi;

2. Emissiya qiymati. Aksiyalarni ochiq bozorda joylashtirish vaqtida belgilanadigan qiymat;

3. Balans qiymati. Emitent kompaniyalarning buxgalteriya hisobi ko'rsatkichi, demak, kompaniyalar moliyaviy faoliyatini tahlil qilish vositasi ham hisoblanadi.

4. Tugatish qiymati. Tashkilotlarning aktivlari kim oshdi savdosida sotilganda, tugatish tartibotini amalga oshirishda va hatto ularning faoliyati yakunlanishi bo'yicha ham o'zgarmasligicha qoladigan qiymat;

5. Investitsiya qiymati. Investor nuqtai nazaridan eng qiziqarli qiymat. U mazkur qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarning daromadliligi va foydaliligini belgilab beradi;

6. Bozor qiymati. Ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni xarid qilish uchun to'lov miqdorini belgilab beruvchi qiymat;

7. Hisob-kitob qiymati. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash natijasi sifatida hisoblash metodi bilan keltirib chiqariladigan qiymat.

Mulk bozor munosabatlari ob'ekti sifatida muomalada bulishi uchun u, ma'lum xossa (xosiyat)larga, sifat va mikdoriy kursatkichlarga, iktisodiy mexanizmga, yuridik konstruktsiyam, informatsion ta'minotga va anik mulkdorga ega bulishi zarur.

Mulkning sub'ektga (mulkdorga) tegishliligi yoki tegishli emasligi yuridik nuktai nazaridan ma'lum bir xajmda (mikdorda) va me'yoriy qiymatda tasdiklanishi, kafolatlanishi, ta'minlanishi va amalga oshirilishi zarur. Aynan shunday xolat mulkning qiymatini baxolash va narxini shakllantirish xamda ularni xnsobga oluvchi mulk va u bilan boglik turli xukuk (ya'ni mulqiy xukuk)lar zaruratini va ularning xossalari yuzaga keltiradi. Bu esa uz-uzidan mulk va u bilan boglik turli xukuklarni (mulk va mulqiy xukuklarning xossasi nuktai nazaridan) kapital (ne'mat, moddiy va nomoddiy boylik), mulk bozori ob'ekti (tovari), munosabatlar vositasi (instrumenti), bunda axborot manbai va retseptori (sezgir kabul kilib oluvchi) bulishiga asos buladi. Bularning barchasi tegishli axborot bilan ta'minlangan mulk va mulqiy xukuklarning ijtimoiy-iktisodiy-xukuqiy-informatsion realizatsiyasini keltirib chikaradi. Bunda mulk va u bilan boglik xukuklar kapital sifatida bulishi uchun mulk va mulqiy xukuklari qiymatga ega bulishi zarur. Mulk va mulk xukuklari bozor tovari bulishi uchun esa boshlangich (start) bozor qiymati baxosiga xamda bozor kon'yunkturam (talab va taklif) va psixologiyasi asosida shakllangan narxga ega bulishi lozim. Mulk va u bilan boglik xukuklar mulk bozori (MB) va mulk qiymatini baxolash xizmatlari bozorida (MK.BXB) shchtisodiy va xukuqiy munosabatlar vositasi, axborot manbai va retseptori sifatida namoyon bulishi uchun iktisodiy

mazmunga, yuridik konstruktsiyaga va informatsion (axborot) ta'minotiga, ya'ni ij-timoiy-iktisodiy-xukuqiy-informatsion muomala mexanizmiga, xamda kdymat va narxga ega bulgan munosabatlар ob'ekta bulishi zarur.

Shunday kilib, mulk narxi mulk (jumladan mulqiy xukuklar) bozori tovari va mulk qiymati esa uning qiymatini baxolash xizmatlari bozori ob'ekta xisoblanadi. Bu bozorlar tabiatan, mazmunan va shaklan farkdansada, lekin ular bir-biri bilan uzviy boglikdikda faoliyat yuritadi. Chunki aynan ushbu bozorlar yordamida mulk qiymati uning narxiga va aksincha (ya'ni mulk narxi uning bozor qiymatiga) yunalishda transformatsiyalanadi. Bunda narxning kanchalik ob'ektivligi va qiymatning kanchalik adolatliligi xamda ularning kanchalik uzaro boglikligi darajasi tegishli mezonlar (kriteriyalar) asosida baxolanadi.

Yukorida keltirilgan tushunchapar mulk va unga oid turli xukuk iktisodiyoti nazariyasi namoyondalari karashlari xamda ularga asoslangan mulk va unga oid xukuk qiymatini baxolash nazariyasi koidalari moe umumlashtirilgan bulib, ular mulk va unga bulgan xukuklarni bozor munosabatlari, qiymatni baxolash va narxni shakllantirish ob'ektlari sifatida namoyon bulishi mazmun-moxiyatini ochib berishga xizmat kilishi mumkin. Bunda mumtoz karashlar muxim axamiyatga ega. Masalan, A.Smit23 fikricha: "Har kanday aloxida olingen tovar (ob'ekt) bozor narxi uning bozorga olib chikilgan mikdori va ushbu tovarning tabiiy narxi yoki tulik qiymatini tulab berishga tayyor bulganlar tomonidan unga bulgan talab nisbati bilan anikdanadi." Ushbu ta'rifga kura, tovarning (tovar sifatida mulkning xam) tabiiy narxi deganda erkin (ochik va effektiv) bozorda tabiiy xolda talab va taklif asosida (ularning oniy vaktdagi muvozanati mivdorida) shakllanadigan narx tushuniladi.

Effektiv bozorda tovar (mulk)ning shakllangan bunday narxi uning moddiy boylik (ne'mat, kapital, investitsiya) sifatidagi qiymatiga vaktning xar bir momentida moe kelishi mumkin, bu esa natijada bozor va uning ob'ekta tugrisidagi barcha axborot bozor narxlarda bevosita va tulik uz aksini topadi degan xulosaga uning "Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov" nomli mashxur asarvida keltirilgan.

kelish mumkinligini bildiradi. Mazkur xulosa tasdiqi sifatida kimmattli kogozlar effektiv bozori ta'rifi keltirish mumkin: "Har bir kimmattli kogozning narxi uning investitsion qiymati bilan vaktning xar bir momenta (ongi)da moe keluvchi bozor - bu effektiv bozordir"¹.

Dj.Merfi iborasiga kura: "Bozor xar nimani xisobga oladi". Boshkacha kilib aystsak: "Bozor narxlari xar nimani uzida aks ettiradi". Bunda narxni shakllantirish va belgilash esa bozorning muxim funktsiyalaridan biri bulib, resurslarning kayta taksimlanish indikatori xisoblanadi. Tulik real qiymati deganda esa, odatda, uning mikdorini unga ketgan tuda sarf- xarajatlar asosida ekspert tomonidan baxolangan mikdori tushuniladi.

Shu urinda, yanada aniklik kiritish maqsadida, mulk bozor qiymati va narxining iktisodiy mazmuni, funktsiyalari va vazifalari talkinini keltirish maqsadga muvofik-

Hozirda qiymat va narxning mazmunini ochib beruvchi kuyidagi nazariy yondashuvlar mavjud:

* mumtoz (klassik) yondashuvga (A.Smit, D.Rikardo) asosan qiymat va narx - tovar (mulk)ning pulda ifodalangan baxosi;

* neoklassik yondashuvga asosan qiymat va narx - tovarning foydalilagini baxolovchi vosita;

* zamonaviy neoklassik yondashuvga asosan (A.Marshapl) narx - ishlab chikarish xarajatlarining pulda ifodalangan chegaraviy foydaliligi xamda talab va taklif nisbati;

* qiymatni baxolash nazariyasiga kura, qiymat narx emas, baxo esa ular tugrisidagi sifatiy va mikdoriy xulosa. Chunki qiymat ekspertlar baxosi, narx bozor kon'yunkturasi natijasi. Zero qiymat va narx uzaro transformatsiyalanish xususiyatiga ega bulib, ular ideal xolda teng bulishi mumkin. Odatda bu xol kamdan-kam uchraydi, uchrasha xam, ular muvozanati omillarning uzgaruvchan ta'sirida tezda buziladi.

Demak, bozor narxi - foydali xisoblangan ob'ektga bulgan talab va taklif nisbatining ma'lum bir nisbatida ushbu ob'ekt uchun sarflangan iktisodiy resurslarning puldagi ifodasi.

Narx va qiymat kuyidagi funktsiyalarni bajaradi:

* xisob yuritish funktsiyasi (narx va qiymat xarajatlar va ijtimoiy takror ishlab chikarishning barcha fazalarida ijtimoiy mexnat maxsullarini ulchash vositasi sifatida namoyon buladi);

- * xisob-kitob funktsiyasi (ishlab chikaruvchi va iste'molchi xamda bank va solik tashkilotlari urtasidagi turli majburiyatlar buyicha ushbu funktsiyaki bajaradi);
- * balanslovchi funktsiya (narx yordamida bozorda talab va taklif urtasidagi muvozanat urnatiladi);
- * tartibga solish funktsiyasi (bozor qiymati va narxi, davlatning narx-navo siyosati iktisodiyotni uning faolligiga ta'siri orkali tartibga solish vositasi funktsiyasini bajaradi);
- * taksimlash va kayta taksimlash funktsiyasi (ijtimoiy maxsulot qiymati va narxini, qiymat unsurlari (xarajatlar, daromad va jamgarmalar)ni taksimlash va kayta taksimlash vositasi sifatida namoyon buladi);
- * rakobat vositasi funktsiyasi (agarda ishlab chikaruvchilar, resurs egalari va iste'molchilar narx va qiymat yordamida rakobatlansa, unda ular rakobat vositasi funktsiyasini bajaradi);
- * ijtimoiy funktsiya (ushbu funktsiya mulkni imtiyozli, tovarni dotatsion (byudjet mablaglari xtssobiga pasaytirilgan) narxda sotilishi chogida bajariladi).

2. Qimmatli qog'ozlar narxi tushunchasi

Narx iqtisodiy mazmuniga kura, bozorda turlarining ko'pligi bilan ajralib turadi.

Narxning shakllanishida iste'molchilarning ta'siri sezi-larli bulib, bunda nafakat iktisodiy, balki psixologik omillar xam e'tiborga olinishi lozim. Bu erda asosan iste'molchilarning narxini kabul kilish psixologiyasi yoki narxga munosabati xisobga olinadi. Narxlarni belgilashda iste'molchilar talabi, rakobat, xarajatlar kabi omillar narx strategiyasi tarkibida taxlil kilinadi.

Ta'kidlash zarurki, yukorida sanab utilgan narx (1-ilova) va qiymat turlari bozor iktisodiyoti amaliyotidagi ularning mavjud umumiy sonidan ancha kam bulib, ularni zarur bulsa tegishli adabiyotlardan kurish mumkin.

Iktisodiyotda amal kilib turgan barcha qiymat va narx turlari ularning xar biriga moe keluvchi tizimlar — qiymat tizimi va narx tizimi - tarkibiga kiradi. Bu tizimlar turli yunalishlar buyicha amal kiladi. Bunda qiymat va narx xar doim turlari buyicha uzgarib turuvchi va ixtisoslashuvi aniklashib boruvchi kategoriyalardir.

Fikrimizcha, yukorida aytilganlardan kurinib turibdiki, narx va qiymat uzaro boglikdik bulsada, lekin ular mazmunan turli tushunchalar ekanligini paykash mumkin. Ya'ni narx qiymat emas, zero ular ideal xolda teng bulishi mumkin. Odatta bu xol kamdan-kam uchraydi, uchrasa xam, ular muvozanati uzgaruvchan omillar ta'sirida tezda buziladi va x-k.

Mulk ijtimoiy-xukuqiy-iktisodiy-siyosiy-informatsion mu-nosabatlar ob'ekti sifatida erkin muomalada bulishi uchun tovar, kapital va muomala vositasi shakllarida namoyon bulib, ularning xar biri uz xossalariiga ega bulgan xolda sifatiy va mikdoriy kursatkichlarga, umuman olganda iktisodiy va informatsion ta'minotga xamda yuridik konstruktsiya va xukuqiy bazaga ega buladi.

Fukarolik xukuklarining ob'ektlari erkin muomalasi deganda ularni bir sub'ekt (shaxs)dan boshka shaxslarga berilishi yoki universal xukuqiy vorislik (meros kilib olish, yuridik shaxsni kayta tashkil etish) tartibida yoxud boshka usul bilan, agar ular muomaladan chikarilmagan yoki ularning muomalada bulishi cheklab kuyilmagan bulsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga utishi tushuniladi.

Fukarolik xukuklari ob'ektlarining bir sub'ektdan boshka sub'ektga konuniy utishini ta'minlashi uchun ushbu ob'ektlar qiymatini baxolash va narxni shakllantirish bozor ob'ektiga aylanadi.

Bunda ob'ektning bozor tovari, kapital va iktisodiy- ijtimoiy-xukuqiy-informatsion munosabatlar vositasi sifatida bozor qiymati va bozor narxi, ob'ektiv narx vaadolatli qiymat degan tushunchalar kelib chikadi. Ammo, globallashuv sharoitida MShcheXB va MB talablari va tizimli risk (global va regional inkirozlar soni va kulami)ning ortishi, natijada ushbu bozorlarda sun'iy ravishda ob'ektlar qiymati va narxi kontekstida real aktivlar buyicha "kupiklar" vujudga kelishi, xozirda bu tushunchalarning bir muncha zamonaviylashgan shakli sifatida xar kanday ob'ektning mazmunan bir-biridan farklanuvchiadolatli qiymati va ob'ektiv narxi degan terminlar kullanilishini talab etmokda. Bunday talab, xar kanday ob'ektningadolatli qiymatini baxolash va ob'ektiv narxini shakllantirishni bir-biri bilan bogliklikda amalga oshiri-lishini takozo etadi.

Demak aytish mumkinki, uz-uzidan xar kanday ob'ektning, jumladan mulk va mulqiy xukukning, adolatli qiymatini baxolash va ob'ektiv narxini shakllantirish muammolarini bir-biri bilan bogliklikda echishning ilmiy kontseptsiysi (terminologik apparat, jamlangan bilimlar va metodologiya) va xalkaro, jumladan Uzbekiston, amaliyoti muxim axamiyatga ega. Bunda kullaniladigan definitsiyalar va nazariy karashlar Uzbekiston uchun yangi bulgani uchun ularning jaxon amaliyotidagi mazmun-moxiyatini taxlil kilish asosida ularni Uzbekiston sharoitiga moe ravishda shakllantirish vazifasi muxim axamiyat kasb etadi. Bu vazifa nafakat Uzbekiston me'yoriy-xukuqiy xujjalarda uz aksini topgan (2-ilova4) yoki kiritilishi kutilayotgan atama va tushunchalarga, balki baxolash institatlari, mulkdor va bozor vositachilar tomonidan yaqin kelajakda keng kullanilishi mumkin bulgan maxsus terminologik apparatning zaruriy xajmdagi tuplamiga xam taallukli. Chunki fakat bir-biri dan farkdi bulgan mulk qiymatini baxolash va narxini shakllantirish faoliyatlar buyicha jaxon tajribasidagi mavjud terminologiya va karashlarni xamda bunda qiymat narx emasligini xisobga olib anik tushunib olgan xoldagina Uzbekistonlik olim va mutaxassislar ular uchun yangi bulgan bilim va kontseptsiyalarni tula uzlashtirishi mumkin. Fakat katiy terminologiya va karashlarga asoslangan konun va standartlar chikaruvchi organlar mulk qiymatini baxolash va narxini shakllantirish mazmuni va faoliyatiga moe keladigan metodologiya, konuniyatlar va xulkatvor koidalarini ifodalashga kodir buladi. Shu aytilganlar va Uzbekistondagi konun xujjalarda ba'zi terminologik disproportsiyalar mavjudligi⁵ munosabati bilan, kuyidagilar maqsadga muvofik.

Agarda qiymat va narxning uzaro boglikligini xisobga olsak, narx qiymatning bozor munosabatlarida kon'yunkturaviy belgilanadigan pul birligidagi ifodasi deb kabul klinishi mumkin. Bunda ta'kidlash zarurki, iktisodiyot fanlari doirasida mulk qiymati va narxi tushunchalari uzbek va rus (jumladan barcha xorij) tillarida chop etilgan adabiyotlarda ma'lum darajada farklansada, lekin xorijda ularning kullanilishi uxshash. Masalan, uzbek tilidagi adabiyotlarda, narx va baxo sinonim terminlar deb talkin klinadi. Zero, rus tilidagi iktisodiy adabiyotlarda esa chet ellardagidek (AKD1, Evropa mamlakatlari, Yaponiya va x.k. mamlakatlar)⁷ qiymat (ruscha "stoimost", inglizcha "cost", "value", "appraisal", "assess") va uning moliyaviy (puldag'i, valyutadagi) baxosi (ya'ni xisoblanib topilgan baxo - ruscha "otsenka", inglizcha "estimation", "valuation", "mark") xamda narx (ruscha "tsena", inglizcha "price") turli tushuncha deb ta'kidlanadi. Rus tilidagi "sebestoimost" degan suz esa uzbek tiliga, negadir, "tannarx" deb tarjima kilingan. Fikrimizcha, aynan bunday tarjima Uzbekistonda qiymat, narx va baxo tushunchalariga ma'lum darajada chalkashlik kiritmokda. Shu munosabat bilan va jaxon baxolash amaliyotida qiymat narx emas deb kabul kilinganligini xisobga olib, fikrimizcha, "tannarx" suzini rus tilidagi "sebestoimost" va ingliz tilidagi "cost", "appraisal", "assess", "value" suzlariga moe ravishda "maxsulot yoki mulkni sotib olish, yaratish, ishlab chikarish xarajatlarini jamlab xisoblab topilgan qiymati" (kiskacha - "sarfqiyomat" yoki jami sarf-xarajatlar sarxisobidan iborat qiymat mazmuniga monand "sarqiyomat") deb yuritsa maqsadga muvofik.

Ushbu "sarfqiyomat" degan suz ikki kiemdan - "sarf" (uning sinonimi bulgan "xarajat" yoki "sarfxarajat" suzi) va "qiymat" suzlarini birikmasidan - iborat bulib, fikrimizcha, mazmunan "tannarx" suzining urnini bosishi mumkin. Zero "tannarx" terminidagi "tan" (yoki tularok shakli "tana") suzi (terminining birinchi uzagi) uzbek tilida, odatda, jonsiz mulkka (ya'ni jism, buyum, kuchmas, xarakatlanuvchi (kuchar, xarakatdagi), intellektual va shular kabi boshka mulk turlariga) emas, balki jonli mulk (xayvonotga, jonli mavjudodga) va odamga nisbatan ishlatalidi. Shu bilan birga, "tannarx" terminining ikkinchi uzagi - "narx" - esa krorida aytilganidek "qiymat" suzi bilan mazmunan moe kelmaydi.

"Baxolash" (otsenka, appraise, estimation, valuation, mark) suzi bir necha ma'noni - narxni aniqlash (baxolash), qiymatni belgilash (baxolash), naflik va qimmatlilik darajasiga baxo berish, mivdorni baxolash, nimanidir sifati yoki kadr-qimmati tugrisida xulosa chikarish jarayoni - ma'nolarni anglatadi. Bunda "baxo" atamasi baxolashning sharti va maqsadi mazmuniga kdrab bir necha ma'noni - baxolash doirasidagi xarakatni, qiymat xakidagi xulosani yoxud tadkikot natijalari buyicha xulosalarni - anglatishi mumkin. Shunga kura, "baxolovchi" degan suz ruschada "otsenshchik" va inglizchada "appraiser" deb kabul kilingan.

Afsuski, Uzbekistonda ba'zilarning qiymat, narx kimmata, baxo kabi terminlar talkinida ma'lum darajada noanikliklar mavjud. Xususan, xanuzgacha "narx" va "baxo" xamda ayrim xollarda

"narx" va "qiymat" sinonim suzlar deb karaladi. Bunday terminologik chalkashlik xolati, fikrimizcha, K.Marksning "Kapital" asarini rus tiliga tarjima kilishda nemis tilidagi "wert" suzini "qimmatli" (ruscha "tsennost") emas, balki "qiymat" (ruscha "stoimost") deb tarjima qilish evaziga yul quyilgan terminologik xatolikdan kelib chikkan. Vaxolanki, nemis tili "wert" suzi bilan bir katorda "kosten" suzini xam uz ichiga oladi. Bunda uzbekcha "qiymat" xamda ruscha "stoimost" va inglizcha "cost" suzları mazmunan nemischa "kosten" suziga aynan moe. Ingliz tilida esa "value" suzi uzbekcha "kimmatli" va ruscha "tsennost" suzları bilan mazmunan moe bulib "cost" suzi bilan almashtirilmaydi. Xuddi shunday iktisodiy kontekstda inglizcha "price" va "mark", ruscha "tsena" suzları uzbekcha "narx" suziga mazmunan moe.

Demak, nemischa "kosten", inglizcha "cost" va ruscha "stoimost" suzları uzbekcha "qiymat" suzi bilan mazmunan uxshash (MOs). Nemischa "wert", inglizcha "value" va ruscha "tsennost" suzları esa uzbekcha "kimmatli" suziga mazmunan moe.

Shunday kilib, "qiymat", "narx", "kimmatli", "baxo", "baxolash" kabi terminlarni moliya, buxgalteriya, audit, bank- kredit va investitsiya faoliyatlaridagi terminologik traditsiyalarini xisobga olgan xolda iktisodiy leksikada uz urnida kullash zarur. Ushbu fikrga kura, bu terminlar kullanilishi mulkning alovida turlari bulmish pul va kimmatli kogozlar tushunchasi misolida kuyidagicha bulish mumkin.

Pul - bu barcha turdag'i tovar (xizmat)lar ayirboshlanishi jarayonida ular qiymati va narxini uzida mikdoran ifodalovchi umumiy ekvivalent sifatidagi xamda ularga boglik xolda muomalasini ta'minlovchi uz bozoriga ega moliyaviy instrument (vosita) turi.

Qimmatli qog'oz — bu qiymat va narxga ega mulk ekvivalenta sifati-dagi ularga boglik xolda naf keltiruvchi, kimmatli va pul xujjati xisob-lanuvchi, investitsion risk va xossalarga ega moliyaviy instrument turi.

Yukorida berilgan fikr-muloxazalar asosida mulk qiymati, narxi va baxosi xamda ularni MB va MQBXB majmuasida amal kilishi bilan boglik tushuncha, karash va ta'riflarni kuyidagicha berish mumkin.

MBda va MQBXBlarda narx xar doim xam qiymatga teng bulavermaydi. Chunki, MBdag'i narx MQBXBdag'i qiymat emas, lekin ular ekvivalent (uxshash). Bunda mulk qiymati maxsus xdsoblash yondashuv va usullari asosida malakali baxolovchilar tomonidan xisoblab topiladi.

Mulk qiymati baxosi mulkning MBga dastlabki tarzda chikarilishi chogida boshlangich bozor narxi sifatida kabul kilinishi mumkin. Lekin mulkning ob'ektiv bozor narxi unga bulgan real talab va taklif (bozor kon'yunkturasi) asosida bozor munosabatlari psixologiyasini xisobga olgan xolda shakllanadi.

Bunda mulkning ob'ektiv bozor narxi bozor kon'yunktu- rasining uzgarishiga karab mulkning bozor qiymati baxosidan ortik yoki past bulishi mumkin. Bozorda yukori rakobat va effektivlilik darajasi fazasida esa narx qiymatga yakin yoki teng xam bulishi mumkin.

Aytish joizki, mulk qiymati uni rentabel darajada ishlab chikarishga ketadigan sarf-xarajatlar summasidan tarkib topadi. Mulk narxi esa MBda uning kon'yunkturasi asosida shakllanadi.

Umuman olganda, mulk qiymati uning narxiga va aksincha transformatsiyalanish xususiyatiga ega.

Bozor munosabatlari vositasi, kapital va tovar bulmish ma'lum sifat va mikdor, shakl va mazmun xamda zarurat darajasi va moxiyatga ega bulgan mulkning narxi va qiymati turlicha ifodalanishi mumkin.

MBda vakning ma'lum bir ongida (nuktasida, diskretasida) talab va taklifning muvozanatiy narxi va muvozanatiy xajmi uzaro moe kelib bir-biriga mutanosib buladi. Bunda muvozanatiy narx va xajm moe ravishda mulkning ob'ektiv bozor narxi va xajmini anglatadi.

Talab va taklif asosida MBning muvozanatiy narxi va xajmi kupaytmasini vakning oniy nuktasida kurish mumkin va vakning ma'lum davri ichida (vakning bir necha diskretalarida) uzgarishini kuzatish mumkin. Vakning oniy nuktasida (ya'ni bir diskretasida) MBda talab va taklif xamisha oniy muvozanatda buladi, chunki vakning bir diskretasida bozorda taklif kilingan mulkning xajmi va narxiga talab kilingan narx va xajm tugri keladi. Vakning bir necha diskretasida xosil bulgan oniy muvozanatiy narxlarning bir-biriga nisbatan uzgarishi narxning ma'lum tendentsiyasini

xosil kiladi. Agar narxning ma'lum bir vakt davri ichidagi diskretalari buyicha uzgarish tendentsiyasi gorizontal chizikda joylashea, unda talab va taklif ila narxlar barkaror buladi. Bu chizikdan xar kanday (pastga yoki yukoriga) nisbiy ogish volatillikni (narxlarni sakrashini) bildiradi. Bunda agar diskretalar tendentsiyasi gorizontal chizikka nisbatan yukoriga tomon yunalgan bulsa, unda bu chizikni kutarilib boruvchi deb yuritiladi, aksincha xolatda esa pastga tomon tushib boruvchi chizik deyiladi. Kutarilib boruvchi chizik narxlarni ortib borish tendentsiyasini bildiradi, pastga tomon tushib boruvchi chizik esa narxlarni pasayishi tendentsiyasini anglatadi.

Bozorda ikki xolatni kuzatish mumkin. Birinchi xolat: narxlar tendentsiyasi taklif etilajak mulk xajmini belgilaydi. Ikkinci xolat: taklif etiladigan mulk xajmi narxlar tendentsiyasini belgilaydi.

Har ikkala xolat bir-biri bilan uzviy boglik, bir-biriga bevosita ta'sir kursatadi, bir-biridan ma'lum vakt davrlarida kelib chikadi. Lekin xar bir xolatning vujudga kelishi, uz navbatida, ta'sir etuvchi omillarga va turli risklarga boglik.

Aytish joizki, mulkning bozor narxi, qiymati va xajmida mulk va uning egasi, xaridori, vositachilari xamda bozor va umuman ikgisodiyotning oniy va tendentsion xolati tugrisidagi ob'ektiv axborot mujassamlashgan buladi. Shuning uchun MB va MKfXB bиргалликда real iktieodiyot xolatining ob'ektiv "barometri" rolini bajarishi mumkin.

Baxo ob'ektni batafsil taxliliy urganish asosida uning qiymati, kimmatligi, nafligi va narxi tugrisidagi xulosaviy fikr. Bunday fikr ekspert baxolash yuli bilan shakllanadi. Shu bilan birga, narx baxosi sotuvchi taklifi va xaridor tanlovinib belgilab beruvchi omil.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ma'lumotlardan foydalanuvchilari uchun korxona moliyaviy faoliyati to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanuvchilar, ayniqsa aktsiyadorlar o'zlarining manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, tegishli boshqaruv qarorlarni qabul qilishda foydalanishi lozim.

6-mavzu: Qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash

Reja:

- 1. Qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash xususiyatlari.**
- 2. Muddatsiz obligatsiyalarning umumiy holati va qiymati**
- 3. Qaytarilishi cheklangan muddatli obligatsiyalar qiymati**
- 4. Obligatsiyalarni baholash uchun zaruriy hujjatlar**
- 5. Korporativ obligatsiyalar chiqarilish shartlari, muamolasi va qiymatini baholash**

Tayanch iboralar: kупонсиз obligatsiya, foiz xavfi, korporativ defolt xavfi, kupon stavkasi, diskontirlash.

1. Qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash xususiyatlari.

Qimmatli qog'ozda aks ettirilgan barcha aktivlar va majburiyatlarning qiymatini aniqlash qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning asosiy xususiyati hisoblanadi. Uning istiqbolliligini va qo'yilmalar foydalilagini prognozlash uchun emitent tashkilotlar moliyaviy qo'yilmalarini tahlil qilish zarur. Bu uning qarzlarini va biznesda ishtirot shakli asosida qarz qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini o'rnatishga imkon beradi.

Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini baholashga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular fond bozorida muomala qilgan holda mohiyatan kapital mavjudligining maxsus turi sanaladi. Ammo bozorda ham muomala sodir bo'ladi, demak, qimmatli qog'ozlar tovar ham hisoblanadi.

Bunda qimmatli qog'oz moddiy ko'rinishdagi tovar emasligini anglash zarur, shuning uchun qimmatli qog'ozlar narxini unga egalik qilishda aksiyadorga o'tadigan huquqlarga yo'naltirilgan holda o'rnatish talab qilinadi. Masalan, aksiyalar egasi uchun – bu korxonalar faoliyatidan qandaydir dividendlar olish imkoniyati, kompaniyalarni qayta tashkil etishda mulk ulushini olish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirot etish imkoniyati va hokazo, veksel egasi uchun esa – bu daromadni qoplash, o'tkazish yoki uni olishdir. Boshqacha aytganda, qimmatli qog'ozlarni baholash – bu aksiyadorlarning barcha huquqlari birikmasini aniq va to'liq tahlil qilish va muayyan vaqtida (qimmatli qog'ozlar baholanishini o'tkazish sanasiga) ushbu huquqlar uchun bozor narxini belgilashdir. Qimmatli qog'ozlar ularning egasiga turli huquqlarni ta'minlaydi, bu O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi («Aksiyadorlik jamiyati to'g'risida»gi, «Birja faoliyati to'g'risida»gi qonunlar va boshqalar).

Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashda uning turi, emitent, birja kotirovksi mavjudligi yoki mavjud emasligi, moliya bozori va birjadan tashqari aylanmada qimmatli qog'ozlar qatnashishi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar baholash uchun taqdim etilgan qimmatli qog'ozlar ochiq bozorda joylashtirilgan bo'lsa, u holda ularning qiymatini baholash qiyosiy yondashuv va huquqlar qiymatini o'rnatish bo'yicha ayrim metodikalar yordamida aniqlanishi mumkin. Agar qimmatli qog'ozlar birja kotirovkasiga ega bo'lmasa hamda u haqda axborot etarlicha bo'lmay, kam ma'lumotli bo'lsa, u holda uning qiymatini baholashda moliya bozori kon'yunkturasi tahlili, kompaniya daromadliligi va emitentning ishonchliligi haqida ma'lumotlar, uning moliyaviy holati barqarorligi asosida shakllantirilgan hisoblash metodlaridan foydalaniлади.

2. Muddatsiz obligatsiyalarning umumiy holati va qiymati

Ushbu holatda obligatsiyalarning haqiqiy qiymati muddatsiz obligatsiyalarning keltirilgan qiymati sifatida aniqlanadi va foiz to'lovlarini cheksiz oqimining kapitallashgan qiymatiga

tenglashtiriladi.

Shunday qilib, muddatsiz obligatsiyalarning keltirilgan qiymati davriy foiz to‘lovlarni bir davr uchun mutanosib diskontlash stavkasiga bo‘lishdan hosil bo‘lgan bo‘linmani o‘zida aks ettiradi. Muddatsiz obligatsiyalarning haqiqiy qiymati foiz to‘lovlaring cheksiz oqimining kapitallashgan qiymatiga teng bo‘ladi.

Masalan, investor cheklanmagan vaqt davomida unga yiliga 50 so‘mdan foyda keltirishi mumkin bo‘lgan obligatsiyani sotib oldi. Faraz qilaylik, bu turdagি obligatsiyalar uchun investor tomonidan talab qilingan yillik daromadlilik stavkasi 16% ni tashkil etadi. Bunday qimmatli qog‘ozning keltirilgan qiymati quyidagiga teng bo‘ladi: $Sobl = 50/0,16 = 312,5$ so‘m.

Bu – xarid muddatli tartibda amalga oshirilmay, qiymatni baholash masalasida yetarlicha asosli va bosimga uchramaydigan sharoitda bunday obligatsiya uchun odatda investor to‘lashga tayyor bo‘lgan summadir.

3. Qaytarilishi cheklangan muddatli obligatsiyalar qiymati

Qaytarilishi cheklangan muddatli obligatsiyalarni baholashda nafaqat foiz to‘lovlari oqimini, balki uni qaytarish vaqtida to‘lanadigan ularning nominalini ham hisobga olish talab qilinadi.

Uzoq muddatli obligatsiyalar qiymati ham muddatsiz obligatsiyalar uchun qoidalar bo‘yicha aniqlanadi.

Turli vaqt davrlarida yuzaga keluvchi pul oqimlari uchun, odatda, turli diskontlash stavkalari ko‘zda tutiladi. Obligatsiyalarning haqiqiy qiymatini aniqlash uchun mutanosib diskontlash stavkalari yordamida ularning egalari tomonidan kutilgan pul oqimlarini diskontlash talab qilinadi. Obligatsiyalardan pul oqimlari kupon to‘lovlari (obligatsiyalarni qaytarish sanasi kelgunga qadar) va obligatsiyalar nominal qiymatining yakuniy to‘lovini o‘z ichiga oladi.

Yuqori foiz stavkasida obligatsiyalar egasiga hisoblanadigan to‘lovlarning keltirilgan qiymati past bo‘ladi. Shunday qilib, bozor foiz stavkalari oshganda, obligatsiyalar narxi pasayadi. Bu obligatsiyalarning haqiqiy qiymatini aniqlashning eng muhim umumiy qoidalarini tasvirlaydi. Foiz stavkalari oshganda, obligatsiyalar narxi pasayishi lozim, chunki obligatsiyalar bo‘yicha to‘lovlarning keltirilgan qiymati yanada yuqori foiz stavkasida diskontlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Bozorda foiz stavkalarining pasayishi fiksirlangan daromadli qimmatli qog‘ozlar (obligatsiyalar) narxi oshishiga imkon beradi va aksincha.

Shuni ham nazarda tutish lozimki, foiz stavkalari qanchalik o‘ssa, narxlar shunchalik darajada pasayadi. Foiz stavkasi o‘sishining shu tahlitdagи muntazam kamaytiruvchi ta’siri yuqoriroq stavkalarda obligatsiya kamroq qiymatga ega bo‘lishining oqibati hisoblanadi. O‘z navbatida, stavkalarning qo‘sishma oshishi kamroq boshlang‘ich bazaga ta’sir qiladi, bu esa narxning kamroq pasayishiga olib keladi.

4.Obligatsiyalarni baholash uchun zaruriy hujjatlar

Ochiq qimmatli qog‘ozlar bozorida muomalada bo‘lgan obligatsiyalar bo‘yicha baholashni o‘tkazishda obligatsiyalarga qonuniy tarzda egalik qilinayotganligini tasdiqlovchi hujjat (masalan, oldi-sotdi shartnomasi) ni taqdim etish zarur.

Ochiq qimmatli qog‘ozlar bozorida muomalada bo‘lmagan obligatsiyalarni baholashda quyidagi hujjatlar taqdim etilishi zarur:

- Obligatsiyaga egalik huquqini belgilovchi hujjat (oldi-sotdi shartnomasi yoki boshqalar).
- Obligatsiyaning chiqarish parametrlari.
- Emitent korxonaning ta’sis hujjatlari (Ustav, Muassislik shartnomasi, Ro‘yxatdan o‘tganlik haqida guvohnoma).
- Emitentning oxirgi 3-5 yil uchun buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari (yoki oldingi davrlarning mumkin bo‘lgan miqdori) – buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to‘g‘risida hisobot.

- Taqdim etilgan buxgalteriya hisoboti bo'yicha auditorlik xulosasi (agar auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan bo'lsa).
- Baholash sanasidagi emitentning asosiy mablag'lari ro'yxati.
- Emitentning jami aktivlari (ko'chmas mulk, zaxira, chet jamiyatlar aksiyalari, veksellar, nomoddiy aktivlar – patentlar, litsenziyalar) haqida ma'lumotlar, kengaytmasi bilan.

5. Korporativ obligatsiyalar chiqarilish shartlari, muomalasi va qiyamatini baholash

Egasining nomi yozilgan, hujjatsiz shakldagi, foizli, korporativ obligatsiyalar joylashtirish usuli – obligatsiyalarni ommaviy joylashtirish orqali (soni cheklanmagan investorlar orasida reklamadan foydalangan holda ochiq obuna qilish).

Korporativ obligatsiyalar egalarining huquqlari:

- obligatsiyalar muomalada bo'lган davr ichida har oraliq davri yakuni bo'yicha foiz daromadlarini olishga;
- obligatsiyalarni so'ndirish sanasida obligatsiyaning nominal qiyamatga teng bo'lган mablag'ni olishga;
- qonunchilikda belgilangan tartibda uchinchi shaxsga obligatsiyalarga bo'lган egalik huquqini o'tkazishga;
- obligatsiyalar bo'yicha emitent tomonidan to'lov majburiyatları bajarilmagan taqdirda ushbu masala yuzasidan qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat qiluvchi vakolatli organlariga yoki sud organlariga da'vo arizasi bilan murojaat qilishga;
- Korxonaning faoliyati tugatilgan taqdirda unga tegishli bo'lган to'lovlarni talab qilishga;
- obligatsiyalar egalariga teng huquqni beradi;
- sanab o'tilgan huquqlardan tashqari qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa huquqlarga ega.

Chorak oraliq davr bo'lib hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiiga muvofiq), quydagilar bundan mustasno:

- birinchi oraliq davri, bunda uning boshlanish sanasi obligatsiyalar chiqarilishini joylashtirishning birinchi kuni hisoblanadi, davrning tamomlanish sanasi esa tegishli chorakning tamomlanish sanasiga mos keladi;
- oxirgi oraliq davri, bunda uning boshlanish sanasi tegishli chorakning boshlanish sanasiga mos keladi, davrning tamomlanish sanasi esa obligatsiyalar chiqarilishini so'ndirish sanasi bo'lib hisoblanadi.

Obligatsiyalar yuridik shaxs investorlar orasida ochiq ommaviy joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Agar korporativ obligatsiyalarni joylashtirish muddati korporativ obligatsiyalarni chiqarilishi to'g'risidagi biror-bir axborotni oshkor qilish sanasini ko'rsatgan holda belgilansa, unda bunday axborotni oshkor qilish tartibi ham o'rsatiladi.

Ushbu obligatsiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab 365 kun davomida. Mazkur chiqarilishdagi so'nggi obligatsiyaning sotish sanasi hisoblanib, ushbu sana mazkur obligatsiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatga olish sanasidan 365 kundan ziyod bo'lmasligi lozim.

Mazkur obligatsiyalarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi ma'lumot korxona tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi asosan o'rnatilgan tartibda gazetada e'lon qilinadi.

Agar emitent tomonidan korporativ obligatsiyalarni joylashtirish emitentga korporativ obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi qimmatli qoo'ozlar bozori professional ishtirokchi (anderrayter)larini jalb qilish bilan amalga oshirilsa, har bir bunday shaxs yuzasidan qo'shimcha ravishda quydagilar ko'rsatiladi:

- to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi;
- professional faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziyaning raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati, ko'rsatilgan litsenziyani bergen organ;
- ushbu shaxsnинг asosiy vazifalari, agar emitent va unga qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi shaxs o'rtasidagi shartnomada shu kabi shartnomaga bilan belgilangan muddatlarda joylashtirilmagan korporativ obligatsiyalarni oxirgisi tomonidan

o'z hisobidan olinishi nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek ushbu muddat va uni belgilash tartibi.

Ushbu obligatsiyalarni joylashtirish quyidagicha amalga oshiriladi:

– qimmatli qog'ozlarning tashkillashtirilmagan bozorida emitent bilan investor o'rtaida o'rnatalgan tartibda shartnomaga tuziladi. Shu bilan birga agar obligatsiyalar qimmatli qog'ozlarning tashkillashtirilgan bozorida, ya'ni Respublika Fondi birjasi yoki qimmatli qog'ozlarning tashkil etilgan birjadan tashqari savdosi tashkilotchilarining maydonchalarida sotilsa, bunda ularning savdo qoidalari muvofiq obligatsiyalar bo'yicha oldi-sotdi bitimlari tuziladi.

Ovoz beruvchi aksiyalarga ayriboshlanadigan joylashtirilayotgan korporativ obligatsiyalarni olishga bo'lган imtiyozli huquq taqdim etilgan taqdirda quyidagilar ko'rsatiladi:

– bunday imtiyozli huquqga ega shaxslarning ro'yxati tuzilgan sana (sanani belgilash tartibi);

– bu usulda joylashtirilayotgan korporativ obligatsiyalarni olishga bo'lган imtiyozli huquqni amalga oshirish ehtimoli to'g'risida bildirish tartibi;

– bu usulda joylashtirilayotgan korporativ obligatsiyalarni olishga bo'lган imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi;

– korporativ obligatsiyalarni ovoz beruvchi aksiyalarga ayriboshlash tartibi. Obligatsiyalarni joylashtirish narxi birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi oraliq davrlarning birinchi kunida nominal qiymati bo'yicha sotiladi. qolgan kunlarda esa obligatsiyalar investorlar orasida obligatsiyaning nominal qiymatiga tegishli oraliq davri uchun hisoblangan foiz daromadni qo'shgan holda sotiladi.

Hisoblangan foiz daromadi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$D=N \cdot C \cdot ((T-T_i)/365)$$

bunda: D – hisoblangan foiz daromadi; N – obligatsiyaning nominal qiymati; C – foiz stavka miqdori, yillik foiz hisobida; T – obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha oldi-sotdi bitimi tuzilgan sana; Ti – oraliq davrining boshlanish sanasi; i – oraliq davrining tartib raqami.

Bir obligatsiya bo'yicha to'plangan foizli daromad hajmi bir tiyingacha aniqlik bilan belgilanadi (yiriklashtirish matematik yaxlitlash qoidalari asosida amalga oshiriladi). Bunda matematik yaxlitlash qoidasi sifatida shunday yiriklashtirish usulini tushunish lozimki, unda agar yaxlitlanadigan raqamdan keyingi birinchi son 1 dan 4 gacha teng bo'lsa, butun tiyinning ahamiyati o'zgarmaydi va agar yaxlitlanadigan raqamdan keyingi son 5 dan 9 gacha teng bo'lsa, u birga ko'paygan holda o'zgaradi).

Korporativ obligatsiyalarni to'lash shartlari, shu jumladan hisob-kitoblarning shakli, kredit tashkilotlarining to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, ularning joylashgan joyi, Korporativ obligatsiyalar to'lanishiga kelib tushadigan pul vositalari ko'chirilishi lozim bo'lган hisobvaraqlarning bank rekvizitlari, to'lov shoxobchalarining manzili (naqd pul shaklida to'langanda).

Korporativ obligatsiyalar pul bo'lмаган vositalar bilan to'langan taqdirda korporativ obligatsiyalar to'lanishi mumkin bo'lган mol-mulk, to'lov shartlari bunday to'lov sharoitida rasmiylashtiriladigan xujjatlar (mol-mulkni qabul qilish – topshirish dalolatnomasi va hokazo) bilan, shuningdek bunday mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun jalb qilinadigan baholovchi (baholovchilar) to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

– baholovchining to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi;

– baholash faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyaning raqami, berilgan sanasi va litsenziyaning amal qilish muddati, ko'rsatilgan litsenziyani bergen organ).

Obligatsiyalarni joylashtirish davomida obligatsiya uchun to'lovlar naqdsiz hisob-kitoblar orqali O'zbekiston Respublikasining pul birligida (so'mda) amalga oshiriladi.

Bunda tashkil etilgan bozorlarda oldi-sotdi bitimlarini tuzish paytida ular yuzasidan hisob-kitob qilish muddatlari qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining qoidalari, boshqa hollarda esa oldi-sotdi shartnomalari bilan belgilanadi.

Obligatsiyalar sotishdan tushgan mablag'lar ochiq aksiyadorlik jamiyatining «Boshqa

majburiyatlar» hisobvarag’iga o’tkaziladi.

AJ obligatsiyalarni joylashtirishdan olingan mablag’lar hisobini O’zR Markaziy bankining amaldagi me’yoriy hujjatlariga muvofiq yuritadi.

Obligatsiyalar bo’yicha pulsiz vositalar bilan to’lovlar ko’zda tutilmagan. Obligatsiyalarni joylashtirish uchun belgilangan muddat ichida jami joylashtirilgan obligatsiyalarning miqdori obligatsiyalarning umumiyligi sonining 60 foizidan kam bo’lgan taqdirda, obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan, deb tan olinadi.

Obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan, deb tan olinganligini oshkor qiluvchi ma'lumot korxona tomonidan matbuotda chop etiladi.

Korxona tomonidan ushbu obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan, deb topilgan sanasiga markaziy ro’yxatga oluvchidan obligatsiyalar egalarining reestri so’raladi. Reestr olingan sanadan boshlab 10 ish kuni mobaynida reestrda qayd etilgan shaxslarga obligatsiyalarning nominal qiymati va ularga hisoblangan foiz daromadlari to’lab beriladi.

Obligatsiyalarning chiqarilishi amalga oshmagan, deb topilganligi yuzasidan olingan reestrda obligatsiya egasining bank rekvizitlari to’liq va/yoki axborot noaniq bo’lmasligi (hisob raqami, bank kodi va boshqalar) sababli obligatsiyaning nominal qiymati va uning bo’yicha hisoblangan foiz daromadining to’lovi kechiktirilishi, shuningdek bunday kechiktirishning oqibatlari yuzasidan AJ javobgar bo’lmaydi.

Bunday holatlarga yo’l qo’ymaslik uchun obligatsiyalar egalari o’zlarining bank rekvizitlari ko’rsatilgan holda AJga xat yuborish huquqiga egadirlar.

Obligatsiyalarni AJ tomonidan qayta sotib olinishi naqdsiz hisob-kitoblar orqali O’zbekiston Respublikasining milliy valyutasida (so’mda) amalga oshiriladi.

Ushbu chiqarilishdagi korporativ obligatsiyalar bo’yicha ta’minot bergen yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini o’z ichiga olgan to’liq firma nomi, ta’minot turi, pul ko’rinishidagi ta’minot miqdori.

Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar muomalaga ta’minotsiz chiqarilmoqda. Obligatsiyalar, korporativ obligatsiyalar chiqarilishi to’g’risidagi qaror qimmatli qog’ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazida ro’yxatdan o’tkazilgan kundan boshlab bir yil muddat ichida joylashtiriladi.

Obligatsiyalarni joylashtirishni boshlanish sanasi, O’zR qonunchilik talablariga muvofiq, korporativ obligatsiyalar chi’arilishi to’g’risidagi qarorida mavjud axborotdan har qanday manfaatdor shaxslarni foydalanishiga ruxsat etish tartibi ko’rsatilgan holda, obligatsiyalarni chiqarishning davlat ro’yxatidan o’tkazilganligi to’g’risida ma'lumotni AJ tomonidan matbuotda chop etilgan sanasidan boshlab o’n beshinchi kuni hisoblanadi.

Obligatsiyalarning muomala muddati, obligatsiyalar joylashtirishni boshlanish sanasidan boshlab 1825 (bir ming sakkiz yuz yigirma besh) kun.

Obligatsiyalar muomalasiga doir bitimlar yozma shaklda amalga oshiriladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkaziladi. Tashkil etilgan bozorlarda oldi-sotdi bitimlarini tuzish paytida ular yuzasidan hisob-kitob qilish muddatlari qimmatli qog’ozlar savdosi tashkilotchisining qoidalari bilan, boshqa hollarda esa oldi-sotdi shartnomalari bilan belgilanadi. Obligatsiyalar faoliyat ko’rsatayotgan fond birjasni yoki uyushgan birjadan tashqari savdo tizimlarida oldi-sotdi ob’ekti bo’lishi mumkin.

Obligatsiyalarning so’ndirilishi naqdsiz hisob-kitoblar orqali O’zRsining pul birligida (so’mda) amalga oshiriladi. So’ndirish muddati korporativ obligatsiyalar chiqarilishining joylashtirilishi boshlangan paytdan boshlab belgilanadi va quyidagicha belgilanishi mumkin:

– kalendar sana bilan (ushbu kalendar sanani belgilash tartibi bilan);

– muayyan davr bilan (ushbu muayyan davrni belgilash tartibi bilan.). Obligatsiyalarni so’ndirish sanasi, joylashtirishni boshlanish sanasidan boshlab 1 825 (bir ming sakkiz yuz yigirma besh) kun o’tgandan keyin, 1 826 (bir ming sakkiz yuz yigirma oltinchi) kunida amalga oshiriladi.

Obligatsiyalarni so’ndirilishi pul mablag’i shaklida, obligatsiyalarning muomala muddatining 1825 kuniga qimmatli qog’ozlar markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan obligatsiya

egalarining ro'yxati (reestri)ga asosan to'lab beriladi.

Obligatsiya egasi obligatsiyaning nominal qiymatiga nisbatan belgilangan foizni (foizli daromadni) olish huquqiga ega.

Obligatsiya bo'yicha foiz stavkasi oraliq davrning birinchi kuniga amalda bo'lган O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasiga (yillik hisobida) teng.

Har bir oraliq davr uchun bitta obligatsiyaning daromad miqdorini aniqlashda quyidagi formuladan foydalilaniladi:

$$Ti - T(i-1) Ki = N * Ci * 365$$

bunda: Ki – oraliq davrdagi bir obligatsiyaning daromad miqdori, so'mda; N – obligatsiyaning nominal qiymati, so'mda; Ci – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasiga (yillik hisobida) teng bo'lган i-oraliq davrdagi foizli stavka miqdori, yillik hisobida; i – oraliq davrning tartib raqami; Ti – oraliq davrning tugash sanasi; $T(i-1)$ – oraliq davrning boshlanish sanasi; 365 – yildagi kunlarning bazaviy soni.

Bir obligatsiya bo'yicha to'plangan foizli daromad hajmi bir tiyingacha aniqlik bilan belgilanadi (yiriklashtirish matematik yaxlitlash qoidalari asosida amalga oshiriladi). Bunda

matematik yaxlitlash qoidasi sifatida shunday yiriklashtirish usulini tushunish lozimki, unda agar yaxlitlanadigan raqamdan keyingi birinchi son 1 dan 4 gacha teng bo'lsa, butun tiyinning ahamiyati o'zgarmaydi va agar yaxlitlanadigan raqamdan keyingi son 5 dan 9 gacha teng bo'lsa, u birga ko'paygan holda o'zgaradi).

Obligatsiya egasiga daromad solig'i to'lash bo'yicha imtiyozlar (daromad solig'ini to'lashdan ozod etish kiritilgan golda) qo'llanilgan taqdirda bunday obligatsiya egasi AJga oldindan xabarnoma taqdim etishi shart. Bunday xabarnoma-xat majburiy tartibda quyidagi axborotni o'z ichiga olishi lozim:

- imtiyoz qo'llanilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan me'yoriy hujjat nomi (ushbu me'yoriy hujjatning nusxasi xatga ilova qilingan holda);
- obligatsiya egasiga bunday imtiyoz qo'llanilishi uchun asos;
- obligatsiya egasining bank rekvizitlari.

Xabarnoma-xat oraliq davri tugashiga qadar kamida besh kalendar kundan kechiktirmasdan bankga taqdim etilishi shart.

Korporativ obligatsiyalar bo'yicha daromadlarni to'lash tartibi va muddati, har bir kupon bo'yicha daromadni to'lash tartibi va muddatini o'z ichiga olgan holda: obligatsiyalar egalariga foiz daromadlari oraliq to'lovlar ko'rinishida har oraliq davr yakunlangandan so'ng amalga oshiriladi.

Oraliq davrning to'lov miqdori obligatsiyalarga o'rnatilgan foiz stavkasi va oraliq davrning davomiyligidan kelib chiqib, obligatsiyaning nominal qiymatiga hisoblangan foizlar ko'rinishida belgilanadi.

Obligatsiyalar bo'yicha daromadlarni to'lash daromad hisoblangan oraliq davr tugaganidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar amalga oshiriladi, bunda ohirgi oraliq davr uchun to'lovlar mustasno. Oxirgi oraliq davr uchun to'lovlar ushbu obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga muvofiq obligatsiyalar nominal qiymatining qaytarilish muddatlarida amalga oshiriladi.

Obligatsiyalar bo'yicha foiz daromadlarini to'lovi grafigi AJ tomonidan ishlab chiqiladi va uning internet saytida obligatsiyalarni joylashtirish boshlangan sanadan keyin 10 kun ichida e'lon qilinadi.

Obligatsiyalar uchun foizlar to'lovining har bir oraliq davri yakunlangandan so'ng gazetada xamda bankning interne saytida obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan foizli daromadlar to'g'risidagi e'lon qonunchilikda belgilangan muddatlar ichida beriladi.

Markaziy depozitariy AJga obligatsiyalarning oraliq davrini oxirgi kuniga shakllantirilgan obligatsiya egalari ro'yxatini oraliq davr tugaganidan so'ng 5 (besh) ish kunidan kechiktirmasdan taqdim qiladi. Markaziy depozitariy tomonidan takdim qilingan obligatsiya egalari reestri asosida bank obligatsiyalar bo'yicha foizlarni olish huqu?iga ega shaxslarga

tegishli daromadlarni qisoblaydi. AJ tomonidan obligatsiyalar bo'yicha foizli daromadlarni to'lash oraliq davrdan keyin

10 (o'n) ish kunidan kechiktirmasdan investorlarning ularga xizmat ko'rsatuvchi banklarida ochilgan talab qilib olguncha hisobvaraqlariga o'tkazish orqali amalgga oshiriladi.

AJ foizli daromadlarni to'lash uchun olingan reestrida obligatsiya egasining bank rekvizitlari to'liq vag`yoki axborot aniq bo'lmasligi (hisob raqami, bank kodi va boshqalar) sababli hisoblangan foiz daromadining to'lovi kechiktirilishi, shuningdek bunday kechiktirishning oqibatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun obligatsiya egalari o'zlarining bank rekvizitlari ko'rsatilgan ma'lumotnomalarini bankka oldindan yuborish huquqiga egadirlar.

Shuningdek, AJ foizli daromad to'lanishi uchun reestr markaziy ro'yxatga oluvchi tomonidan o'z vaqtida taqdim etilmaganligi yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Korporativ obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish ehtimoli

va shartlari, xususan: muddatidan oldin so'ndirishning bahosi (qiymati), korporativ obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirishga undan oldin taqdim etilishi mumkin bo'limgan muddat, shu bilan birga emitent tomonidan muddatidan oldin so'ndirish to'g'risidagi axborotni oshkor qilish tartibi:

– mazkur obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish k'zda tutilmagan bo'lib, quyidagi holatlar bundan mustasno;

– jamiyat tugatilayotgan taqdirda;

– jamiyat obligatsiyalari chiqarilishi amalga oshmagan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra haqiqiy emas, deb tan olingan taqdirda.

Jamiyat obligatsiyalarni muddatidanoldin so'ndirishida markaziy depozitariyga obligatsiyalarni harakatsizlantirish hamda obligatsiyalarni harakatsizlantirish sanasiga obligatsiyalar egalari reestrini tuzish bo'yicha topshiriqnomaga beradi.

Jamiyatning obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish to'g'risidagi axboroti matbuotda o'matilgan tartibda oshkor qilinadi.

Bunda obligatsiya egalari mablag'lar o'tkazilishi lozim bo'lgan o'zlarining xizmat ko'rsatuvchi banklardagi asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ko'rsatilgan holda mablag'larni qaytarilishi to'g'risida ariza bilan korxonaga murojaat qilishlari lozim.

Bu holatlarda korxona obligatsiyalar egalariga obligatsiya nominal qiymatini hamda obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan foiz daromadlarini ariza olingan paytdan e'tiboran 5 (besh) ish kuni mobaynida to'lab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi axborotning oshkor qilinishi O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalgga oshiriladi.

7- mavzu. Ulush munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash

1.Baholash maqsadi, narxni shakllantiruvchi omillar va aksiyalarni baholash uchun zarur hujjatlar

Aksiyalarni baholash quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

Oldi-sotdi, meros qoldirish, in'om etish va boshqalar bo'yicha bitimlar tuzishda aksiyalar qiymatini baholash;

Korxonalar tuzilmasi o'zgargan sharoitda – qo'shilish, yutib yuborish va boshqalarda aksiyalarning bozor qiymatini baholash;

Qo'shimcha muomalaga chiqarish yoki qimmatli qog'ozlar emissiya qilish uchun aksiyalarni baholash;

Pul evaziga qaytarib olishda bozordagi qiymatini aniqlash uchun aksiyalarni baholash;

- tashqi investitsiyalashni jalb qilish uchun aksiyalarni baholash;
- kredit olishda garov qiymati sifatida aksiyalarni baholash.

Bozor tomonidan aksiyalar qiymatini baholashda ko'plab omillar hisobga olinadi. Ularning orasida emitent kompaniyalarning moliyaviy ahvoli, uning foydaliliga kutilayotgan dividendlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Butun dunyoda aksiyalar qiymatini baholash uchun ikki parametr keng qo'llaniladi: dividend daromadlilik va aksiyalar narxining aksiyalar foydasiga nisbati. Bundan tashqari, korporativ qimmatli qog'oz sifatida aksiyalarning o'ziga xosligi shundaki, aksiyadorlarning huquqlari hajmi unga tegishli aksiyalar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun aksiyalarni baholashda paket miqdori (nazorat darajasi) o'ta muhim parametr hisoblanadi, chunki miqdori bo'yicha turlicha paketlarda aksiyalar qiymati ham turlicha bo'ladi.

Aksiyalarning baholash qiymatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

- talab va taklif nisbati;
- aksiyalar likvidligi;
- o'xshash aksiyalar kotirovkasi;
- daromadlilik yoki kelgusi daromadning joriy qiymati;
- aksiyalar ishonchliliği.

Chegirma va ustamalar nuqtai nazaridan (E.E Yaskevich tasavvuriga ko'ra) aksiyalar paketlarining yakuniy qiymatini hisoblashning umumiy formulalari quyidagi ko'rinishlarda keltirilishi mumkin:

– majoritar (yirik) aksiyalar paketlari uchun:

$$Q_a = S_a * [(U - N_a) * (1 + K_n) + N_a] * (1 - K_l) * (1 - K_b) * (1 - K_t) - P_k \quad (7.1)$$

– minoritar (mayda) aksiyalar paketlari uchun:

$$Q_a = S_a * U * (1 - K_n) * (1 - K_l) * (1 - K_b) * (1 - K_t) - P_k \quad (7.2)$$

Bu yerda: U_a – baholanayotgan aksiyalar paketining solishtirma og'irligi; U – 100% majoritar paket sifatida korxona (biznes) ning umumiyligi; N_a – nooperatsion aktivlar qiymati; K_n – nazorat uchun chegirma (yoki ustama); K_l – ichki omillar ta'sirini hisobga oluvchi likvidlik uchun chegirma; K_b – boshqa omillar ta'sir uchun chegirma; K_t – tashqi omillar ta'sirini hisobga oluvchi likvidlik uchun chegirma; P_k – kotirovkalanmaydigan aksiyalar paketlari uchun bevosita pulli chegirma (uni hisobga olish zarurati matn bo'yicha quyida keltirilgan).

Aksiyalarni baholash uchun zaruriy hujjatlar:

1.Ta'sis hujjatlardan nusxalar (Ustav, Muassislik shartnomasi, Ro'yxatdan o'tganlik haqida guvohnoma)).

2.Emissiyalarning qisqacha bayonlari va qimmatli qog'ozlarni chiqarish yakunlari haqida hisobotlardan nusxalar.

3.Kompaniyaning faoliyat turlari va tashkiliy tuzilmasi.

4.Ko'chmas mulkka oid ijara shartnomalarining nusxalari (agar mavjud bo'lsa).

5.Oxirgi 3-5 yil uchun buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari (yoki oldingi davrlarning mumkin bo'lgan miqdori):

○ buxgalteriya balansi

○ foyda va zararlar to'g'risida hisobot

6.So'nggi auditorlik xulosasi (agar auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan bo'lsa).

7.Asosiy fondlar axborotnomasi.

8.Mulkarning inventar ro'yxati.

9.Jami aktivlar (ko'chmas mulk, zaxira, veksellar, nomoddiy aktivlar va b.) haqida ma'lumotlar.

10.Kreditorlik qarzi kengaytmasi.

11.Debitorlik qarzi kengaytmasi:

- yuzaga kelish muddatlari bo'yicha;
- debtorlik qarzi bo'yicha;
- shubhali qarzlar ulushi.

12. Sho'ba kompaniyalar, xoldinglar mavjudligi haqida axborot (agar bo'lsa), ular bo'yicha moliyaviy hujjatlashtirish.

13. Yillar bo'yicha tovar/xizmatlar bo'yicha rejalashtirilgan yalpi tushum, zaruriy investitsiyalar, xarajatlar, sof foyda ko'rsatilgan holda yaqin 3-5 yil uchun biznes-reja.

2. Aksiyalar paketini baholash metodologiyasi

Daromad yondashuvda baholangandi quyidagi usullar qo'llaniladi:

- foydan kapitallashtirish usuli;
- pul oqimlarini diskontlash usuli.

Qiyosiy yondashuvda aksiya baholanganda uchta usuldan foydalaniladi:


- kapital bozor usuli;
- bitimlar usuli;
- tarmoqlar koefftsienti usuli.

Xarajatli (balansli, aktivlar qiymatga asoslangan) yondashuv ikkita usulni o'z ichiga oladi:

- sof aktivlar usuli;
- tugatish qiymati.

Imtiyozli aksiyalar qiymatini pul oqimi usulida topamiz: $R=D/(1+D/P)=D/r$, (7.3)
bu yerda R – imtiyozli aksiyani joriy qiymati;

D – kutilayotgan belgilangan dividend; r – joriy talab qilingan daromad. $r=1+d/p$,
bu erda d – aksiyaga xar yilgi dividend; p – aksiyaning bozor qiymati.



O'QUV MATERIALLARI

6.1 - rasm. Aksiyani baholash usullarini sxemasi.

Aksiyani tugatish qiymati

$$L = 0,5*(A1+A2-U)+0,5*(Ds + F1Gp + F2Mz) - Ob,$$

bu erda A1 va A2 – korxona balansi 1,2 bo'limlarini aktivlvrini qiymati; U - zarar;

Ds- korxonaning pul mablag'lari; Gp tayyor mahsulot;

Mz- moddiy zahiralar;

F1- tovar zahiralarining likvidlik koeffitsienti;

F2 – xom ashyo va materiallarni likvidlilik koeffitsienti;

Ob – sof aktivlar usulida aniqlangan korxonaning uzoq va yaqin muddatli majburiyatları.

Diskontlash oqimi usulida aksiyani qiymatini topamiz

$$R = [D1/(1 + r)] + [D2 / (1 + r)'] + \dots + [Dn / (I + r)^n], \quad (7.4)$$

bu erda Dn - t davr davomidagi kutilayotgan dividend.

Aksiya dividenti doimiy o'sish bo'lganda qiymati Gordon modeli asosida topiladi

$$P=[Do*(l+g)/(r-g)], \quad (7.5)$$

bu erda Do – oxirgi amaliy to'langan dividend;

r – talab etilgan daromadlilik stavkasi;

g – dividentning kutulayotgan o'sish sur'ati.

Ushbu tenglamani o'sishning oraliq davri uchun topishni taklif qilamiz

$$P=[(D1+ D2+ Dno)*(l+g)/(r-g)],$$

D1+ D2+ Dno - 1,2,...n davr oraliqlari dividendlari.

Agar investor norezident bo'lsa siyсиy vaziyat xam naxga ta'sir qiladi. Ishlvb chiqarish miqdori, mahsulotning narxi va aksiyani o'zini o'zi qoplash sharoitida aksianing qiymati

$$c = \frac{\sum_{k=1}^Y (P_k^{(d)} - P_k^{(l)} - E_k) \times \frac{1}{(1 + r^{(d)})^k}}{A}$$

bunda, $P_k^{(d)}$ – korxonaning natijasi bo'yicha divident kirimlari summasi; $P_k^{(l)}$ – mahsulotning sotuvidagi imtiyozli narxdagi investor foydasi; E_k – korxona qayta tashkil etishdagi xarajatlar summasi; A – chiqarilgan oddiy aksiyalar miqdori; k – hisobotning oraliq vaqt intervali; Y – loyihani oqlash davri; $r^{(d)}$ – hisobot davridagi kapitalni nisbiy qadrsizlanish kattaligi.

7.1 - jadval.

Aksiya paketiga egalik imkoniyati va baholash usullari

Aksiya paketi miqdori, %	Aksiya paketiga egalik imkoniyati	Aksiya baholash usuli
10 dan kam	Korxona ustidan nazorat divident olish va yirik aksionerga aksiyasini sotish imkon mavjud.	Dividend yondashuvi.
10 dan 25 gacha	Korxonani qarorlariga ta'sir qilish bor, umumiy majlis o'tashabbuskori bo'lish imkoniga ega.	Dividend yondashuvi.
25 dan ko'p	Korxonani rivojlantiri qarorlarini mustaqil qabul qilish imkoniga ega, ko'p xolla direktorlar kengashiga nomzod huuqi bor.	Aksiyalar daromadliligi asosida baholash usuli.

O'QUV MATERIALLARI

51 dan 75 Gacha	Oddiy xolatda xam ma o'tkazishi mumkin, korxona direktorlar ustidan nazorati ma	Dividend yondashivi yoki kelg pul tushumlari.
75 dan ko'p	Maxsus rezolyutsiya korxonani tugata oladi, direktor kengashiga ko'p o'rinni egallaydi va direktor lovazimini o'zi egallash mumkin.	Kelgusi pul tushumlari va tuga qiymati, dividend yondashuv

Dividend daromadi bo'yicha baholash formulasi

$$\frac{D}{A+r}$$

O'QUV MATERIALLARI

bunda, S – aksiyaning hisob narx; D – oddiy aksiyaning dividentlari; A – oddiy aksiyalarning chiharilagn mihdori; r – daromadni hisobga oluvchi foiz stavkasi; Kelgusi pul tushumlari bo'yicha baholash formulasи

3.Oddiy aksiyalarni baholash usullari

Oddiy aksiyalar qiyamatini baholashning asosiy usullari quyidagilar hisoblanadi: nominal; bozor, balans, tugatish, investitsiyaviy.

Nominal usul aksiyalarning e'lon qilingan qiymatiga asoslanadi. Nominal yoki umumiy qiymat aksiyalarning asosiy tafsiflaridan biri sanaladi. Barcha joylashtirilgan aksiyalarning nominal qiymatlari miqdori aksionerlik jamiyatining ustav kapitalini tashkil etadi. Barcha joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati aksionerlik jamiyatini ustav kapitalining 25% idan oshmasligi lozim. Barcha oddiy aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim. Bir turdag'i imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati ham bir xil bo'lishi talab etiladi.

Aksiyalarning barcha nominal qiymatlari miqdori jamiyatning ustav fondini belgilab beradi.

Bozor usuli – QQBda hukmon bo'lgan aksiyalar kursi. Aksiyalarning nominal qiymati, odatda, uning bozor qiymati bilan ustma-ust tushmaydi. Yaxshi ishlayotgan aksionerlik jamiyatida u odatda yuqori, moliyaviy va ishlab chiqarish qiyinchiliklarini boshidan kechirayotgan korxonalarda esa – past bo'ladi. Bozorda aksiyalar narxi talab va taklifning o'zaro munosabatlashuvi natijasida belgilanadi. Mazkur o'zgaruvchilar korxonalar foydaliligi istiqboliga bog'liq bo'ladi.

Aksiyalarning kurs qiymati o'sishi investor daromadining salmoqli qismini tashkil qilishi mumkin. Buni amalga oshirish uchun aksiyalarni sotish zarur. Aksincha holatda keyinchalik qimmatli qog'ozlar kursining tushib ketishi mumkinligi bo'yicha xavf mavjud bo'ladi.

Balans usuli – kompaniyaning aksionerlik kapitalini o'lchash usuli, kompaniya jami aktivlarining imtiyozli aksiyalarning egalari tomonidan kiritilgan kapital va barcha majburiyatlar miqdoriga nisbatiga teng.

Qayd qilish joizki, korxonalar aktivlarining balans qiymati bo'yicha aksiyalarni baholash ancha taxminiy hisoblanadi, chunki qabul qilingan hisob siyosati (amortizatsiya hisoblash usuli, mahsulotlar sotish va tovar-moddiy zaxiralar hisobi, asosiy mablag'larni qayta baholash) ga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi va aksiyalarning ta'minlanganligi ko'rsatkichi sifatida real foydalanilishi mumkin.

Tugatish usuli – majburiyatlar so'ndirilgandan va imtiyozli aksiyalarning egalariga to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng aktivlarni mumkin bo'lganlar ichida eng foydali narxda sotishdan keyin qolgan kompaniya aktivlari summasi

Shu bilan birga unutmaslik lozimki, kompaniyani tugatish haqida qaror qabul qilish uchun umumiy yig'inda aksionerlarning kamida 75% i ushbu qarorni ma'qullashi talab etiladi. U holda aksiyalarning tugatish qiymati (TQ) quyidagi formula bilan hisoblanadi: $Q = (Q^{(l)} - M - Q^{(p)}) / A$

bu yerda: Q – aksiyalarning hisob-kitob narxi; $Q^{(l)}$ – jamiyatning barcha majburiyatlarining

aktivlarining tugatish qiymati; M – jamiyatning barcha majburiyatlarining

O'QUV MATERIALLARI

miqdoriy kattaligi; $Q^{(p)}$ – barcha imtiyozli aksiyalarning umumiyl nominal qiymati; A – to‘langan oddiy aksiyalar soni.

Investitsiyaviy usul – investor nuqtai nazaridan qimmatli qog‘oz fond bozorida o‘zining tavsiflariga mos ravishda sotilishi lozim bo‘lgan qiymat.

U yillik dividendning aksiyalarning joriy narxiga nisbatida sifatida aniqlanadi

$$\text{va foizlarda yoziladi: } r_d = \frac{\text{Div}}{P} \cdot 100\%$$

Bu erda: r_d – dividend stavkasi; Div – dividend; R – aksiyalarning joriy narxi.

Ushbu ko‘rsatkichni hisoblashda real to‘langan dividend qiymatidan

ko‘proq, prognoz qiymatdan kamroq foydalaniladi. Masalan, $\text{Div} = 50$ so‘m, $R = 1000$ so‘m... U holda

$$r_d = \frac{5}{100} \cdot 100\% = 5\%$$

$$\begin{array}{r} 10 \\ 00 \end{array}$$

Keyingi ko‘rsatkich – aksiyalarning qoplash muddati. U yillarda o‘lchanadi va aksiyalar joriy narxining (R), agar barcha foyda dividend sifatida to‘lanadi deb tasavvur qilinsa, korxona ishlab topgan bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan sof foydaga (E) nisbatli bilan aniqlanadi, E – bu bir aksiya uchun jami sof foyda, u dividend va ishlab chiqarishga qayta investitsiya qilinadigan foydaga bo‘linadi. Masalan, $R = 1000$ so‘m, $E = 200$ so‘m, u holda

$$\frac{P}{E} = \frac{1000}{200} = 5 \text{ yil}$$

Keyingi analitik ko‘rsatkich – aksiyalar joriy narxining (R) uning balans qiymatiga (V) nisbatli. Yaxshi ishlayotgan korxonalar uchun R ko‘rsatkichi V dan katta bo‘lishi lozim va mos ravishda R/V nisbatli – birdan katta. Biroq agar mazkur ko‘rsatkich haddan tashqari katta bo‘lsa, u holda bu bozorda aksiyalar kursi ortiqcha baholanganligidan darak beradi. Umuman olganda, 1,25-1,3 darajasidagi koeffitsient qiymatini chegara sifatida ko‘rib chiqish mumkin, undan yuqorisida esa, odatda, aksiyalar narxining spekulativ o‘sishi boshlanadi.

G'arb mamlakatlarida aksiyalar "sifati"ni baholash amaliyoti yuzaga kelgan, bu ular tomonidan o'zlashtirilgan muayyan reyting bilan belgilanadi. Aksiyalar reytingi ularning mumkin bo'lgan daromadliligi darajasini anglatadi. Bu reytinglar analitik kompaniyalar tomonidan beriladi. Jahan amaliyotida bunday kompaniyalarning ancha taniqlilari sifatida "Standard & Poor" va "Moody's Investors Service"ni tilga olib o'tish joiz. Har bir analitik kompaniya reyting darajasini belgilash uchun o'z ramzlaridan foydalanadi. Masalan, "Standard & Poor" kompaniyasi oddiy aksiyalar uchun quyidagi ramzlarni qo'llaydi: A+ (eng yuqori reyting), A (yuqori), A- (o'rtachadan yuqori), V+ (o'rtacha), V (o'rtachadan past), V- (nizqiy), S (juda past).

Qimmatli qog'ozlarga u yoki bu reyting o'zlashtirilishi ularga nisbatan investorlar munosabatini o'zgartiradi va mos ravishda ularning narxi va daromadliligiga jiddiy ta'sir qiladi.

4.Imtiyozli aksiyalarni baholash

Odatda, fiksirlangan dividendlarning muntazam to'lovi (kompaniyaning direktorlar kengashi qaroriga ko'ra) nazarda tutilgan aksiyalar imtiyozli aksiyalar deb ataladi. Dividendlar to'lovi va aktivlarga talablar qo'yilishiga ko'ra imtiyozli aksiyalar oddiy aksiyalarga nisbatan ustunlikka ega.

O'z navbatida, imtiyozli aksiyalarning haqiqiy qiymati quyidagi tenglama orqali topiladi:

$$S_{ia} = \frac{D}{r^{ia}} \cdot \frac{1}{(1 + r)^t}, \quad (4.6)$$

vu erda: D_{ia} – bitta imtiyozli aksiya uchun yillik dividendlarning oldindan e'lon qilingan miqdori.

Soddallashtirilgan shaklda bu tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S_i = \frac{D_i}{r^a} \cdot \frac{a}{a}. \quad (4.7)$$

Deyarli barcha imtiyozli aksiyalar emitentning muddatidan avval ularni to'lov evaziga qaytarib olish (so'ndirish) huquqini nazarda tutadi va ko'plab

O'QUV MATERIALLARI

imtiyozli aksiyalar asta-sekin to‘lov evaziga qaytarib olinadi. Muddatidan avval to‘lov evaziga qaytarib olinishi mumkin bo‘lgan imtiyozli aksiyalarning haqiqiy qiymatini baholashda so‘ndirishning cheklangan muddatiga ega obligatsiyalar qiymatini baholash uchun qo‘llaniladigan tenglamaning modifitsikatsiyalangan versiyasidan foydalanish mumkin. Ushbu tenglamada davriy to‘lanadigan foizlar o‘rniga davriy to‘lanadigan dividendlardan foydalanish, so‘ndirish vaqtি uchun obligatsiyalar qiymati o‘rniga esa Sqay “qaytarib olish narxi” ni qo‘llash talab qilinadi, xolos.

Bunda

ko‘rib chiqilayotgan	imtiyozli aksiyalar	uchun
qo‘llaniladigan diskont	stavkasidan foydalanish	asosida barcha
to‘lovlar		

diskontlanadi:

$$S_{np} = \boxed{\frac{\sum_{t=1}^T \frac{D_{np}}{(1+r)^t} + \frac{S_{otz}}{(1+r)^T}}{(1+r)}} \quad .(4.8)$$

To‘lov evaziga qaytarib olinayotgan imtiyozli aksiyalarning haqiqiy qiymatini baholash uchun muddatidan avval to‘lov evaziga qaytarib olish huquqi mavjud obligatsiyalar qiymatini aniqlashdagi kabi yondashuvdan foydalaniladi.

5.Aksiyalar jozibadorligining miqdoriy chegaralari

Baholanayotgan aksiyalar (ulush) paketlarining ahamiyatliligi (An) – paketning Paketning ahamiyatliligini miqdoriy baholash uchun quyidagi ifoda taklif etiladi:
An = Smaks / (1 - Sa), (4.9)

Bu erda: Smaks – “bitta qo‘lda” bo‘lgan baholanmaydigan aksiyalar paketlarining maksimal solishtirma og‘irligi; Sa – baholanadigan paket solishtirma og‘irligi.

Ushbu ifoda (4.9) baholanadigan paket uchun ahamiyatlilikning maksimal qiymatini o‘rnatishga imkon beradi, biroq u miqdori bo‘yicha ikkinchi va uchinchi “bitta qo‘lda” bo‘lgan baholanmaydigan aksiyalar paketlari (S_{maks2} ; S_{maks3}) uchun ham, shuningdek, nazorat paketiga egalik qilish uchun kurashayotgan aksionerlar koalitsiyasining aksiyalar paketi (S_{koal}) uchun ham qo‘llanilishi mumkin.

Quyida keltirilgan grafikda (1-rasm) aksiyalar paketining ahamiyatliligi chegaralari keltirilgan. Qayd qilish joizki, unda imtiyozli va davlat aksiyalari ishtiroy etmagan vaziyatlardagi ahamiyatlilik miqdori berilgan (xususan, baholanayotgan aksiyalar paketining o‘zi – davlat aksiyalari bo‘lishi mumkin).

Grafikda aksiyalar paketlari jozibasizligi (minimal qiymati) ning yuqori va quyi sohalari belgilangan. Grafikda (qo‘lda qo‘shaloq chiziqlar bilan) aksiyalar paketlari qiymati minimal (mutlaq jozibasizlik sohalari) bo‘lgan solishtirma og‘irligi 0,25 dan kam minoritar paketlar uchun 2 soha ajratilgan. Ushbu sohalarda aksiyalar paketlari ahamiyatlilikini topishda likvidlik va nazorat uchun maksimal chegirmalar muhim o‘rin tutadi.

Grafikda (qo‘lda bittalik chiziqlar bilan) solishtirma og‘irligi 0,75 dan kam (qisman jozibasizlik sohalari) minoritar va majoritar paketlar uchun 2 soha ajratilgan. Ushbu sohalarda aksiyalar paketlari ahamiyatlilikini topishda mazkur paketlarning ahamiyatli qismiga proportsional chegirma va ustamalar muhim o‘rin tutadi.

Masalan, 0,4 solishtirma og‘irligiga ega paketni sotishda va Smaks = 0,5 da paketning ahamiyatliligi: An = $0,50 / (1 - 0,40) = 0,833$

Bu paketdan blokada ($0,75 - 0,50 = 0,25$) uchun faqat bir qismini (0,25) qo‘llash kerak, shuning uchun bu qismga nazorat uchun maksimal, qolganlari uchun esa ($0,50 - 0,25 = 0,25$) – minimal ustama beriladi. Grafikdagi chiziqsiz sohalar aksiyalar paketlarining maksimal jozibadorlik diapazonlarini ko‘rsatadi.

8-mavzu. Hosilaviy va boshqa turdag'i qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash

Reja:

- 1. Hosila va maqsadli qimmatli qog'ozlarni baholash asoslari**
- 2. Maqsadli qimmatli qog'ozlarni baholash**
- 3. Opcion shartnomalarni baholash**
- 4. Fyuchers shartnomalarini baholash**

Tayanch iboralar: derivativlar, maqsadli qimmatli qog'ozlar, vaucher, veksel, opson, konosament, fyuchers shartnomasi.

1. Hosila va maqsadli qimmatli qog'ozlarni baholash asoslari

Hosila va maqsadli qimmatli qog'ozlarni baholash ularning o'ziga xosliklari va xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan.

Hosila qimmatli qog'ozlar – bu ularning egasiga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond qimmatliklari (opsonlar, fyucherslar va b.) ni xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi ixtiyoriy qimmatli qog'ozlardir. Hosila qimmatli qog'ozlar (hosila moliyaviy instrumentlar yoki muddatli shartnomalar) – qimmatli qog'ozlarning ancha o'ziga xos turidir. Ular fond bozori rivojlanishi, kelishilgan muddatda savdo bitimlarini rasmiylashtirish uchun qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni kengaytirish va takomillashtirish natijasida vujudga kelgan. Hosila moliyaviy instrumentlar uchun bazaviy aktiv tushunchasi – narxining kelgusi o'zgarishiga muddatli shartnomaga tuzilayotgan aktiv dolzarb hisoblanadi. Bazaviy aktiv sifatida aksiyalar, indekslar, turli moddiy va nomoddiy aktivlar, muayyan mulqiy huquqlar namoyon bo'lishi mumkin.

Maqsadli qimmatli qog'ozlar — bu muayyan maqsadda (garov, tovarning ombordaligini tasdiqllovchi guvohnoma, tashish uchun yuklarni qabul qilib olinganligi bo'yicha dalolatnoma va boshqalar) chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir. Maqsadli qimmatli qog'ozlar orasida garovga oid, konosamentlar, varrantlar yoki tovar omborxonasi guvohnomasi, vaucherlar kabi turlari farqlanadi.

Hosila va maqsadli qimmatli qog'ozlarni baholash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- baholash maqsadi, qiymat turi, uslubiy yondashuv va baholash usullarini aniqlash;
- fond bozori tendentsiyalarining qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati darajasiga ta'sirini, bazaviy aktiv qiymati o'zgarishini, shuningdek, muqobil moliyaviy instrumentlar narxi dinamikasini baholash;
- emitentning fond bozoridagi holatini va fond operatsiyalari natijalarini aniqlash;
- qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini hisoblash.

2. Maqsadli qimmatli qog'ozlarni baholash

Haridorga etkazib berish uchun tovari tashuvchiga berilganligini tasdiqllovchi *konosamentning* (tovar taqsimlovchi transport qimmatli qog'ozlari) bozor qiymati yuk turi, tashish masofasi va shartlariga bog'liq bo'ladi. Konosament – dengiz yoki tashuvchisi yoki uning vakolatli vakili tomonidan beriladigan qimmatli qog'ozlardir (yuk egasi yoki uning vakiliga). Bu dengiz tovar taqsimot hujjati quyidagilarni tasdiqlaydi:

- a) tashish shartnomasi tuzilganligi dalili;
- b) yukni jo'natish uchun qabul qilinganligi dalili;
- v) tasarruf etish huquqi va konosament egasining yukka egalik huquqini;

g) konosamentga egalik va tasarruf egalik huquqini.

Konosament – dengiz tashuvchisining yuk tashish shartnomasida tasdiqlangan shartlar asosida yukni etkazib berish bo'yicha muqarrar majburiyatidir. Tashilayotgan yuk haqida ma'lumotlar mayjud emasligi konosamentni qimmatli qog'oz maqomidan mahrum etadi. Konosament ko'rsatuvchiga, order yoki nomlanishli kabi turlarda bo'lishi mumkin.

O'tkazish (tsessiya) huquqiga ega tovar taqsimot qimmatli qog'ozlari sanaladigan ombor guvohnomalarining bozor qiymati tovar va undan foydalanish maqsadlariga bog'liq bo'ladi. Ular tovar omorida saqlash uchun joylashtirilgan aniq mahsulot (tovar) ga beriladi. Mazkur qimmatli qog'ozlardan foydalanish maqsadlariga qarzlarni garov ta'minoti, kreditorlik qarzi restrukturizatsiyasi, qarzlar bo'yicha hisoblashishlar, o'zaro hisob-kitoblar, tovar operatsiyalari taalluqli sanaladi. Oddiy va ikkilangan ombor guvohnomalari bir vaqtning o'zida ombor hujjatlarining turlari va qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Ikkilangan ombor guvohnomalari oddisiiga nisbatan yuqoriroq bozor qiymatiga ega bo'ladi.

Ikkilangan ombor guvohnomasi ikki qismdan tarkib topadi – warrant (garov qismi), uni garovga berish va o'tkazish mumkin, ikkinchisi esa tovar taqsimot qismi. Guvohnomaning ombor qismi mustaqil muomala qilishi mumkin bo'lgan order hisoblanadi. Warrant garov predmetini tasarruf etish huquqini beradi. Agar tovarning garov qiymati kredit summasidan oshsa, u holda uning ombor qismini tovar qiymati va kredit miqdori o'rtasidagi farqqa teng narxda sotib yuborish mumkin. Kreditni qaytarish muddat kelguniga qadar kredit shartnomasi bo'yicha talab huquqida yon bosish bilan warrantlar bo'yicha ham yon bosish mumkin. Warrantni ajratish asosida qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimi emas, balki garov munosabati yotadi. Mustaqil qimmatli qog'oz sifatida warrant ikkilangan guvohnoma bilan aloqasiz sotilishi mumkin emas.

Korxonalarining qarzdorligini restrukturizatsiya qilishda tomonlar kelishuviga ko'ra bajarilmagan pul majburiyatlari tovar garovi bilan ta'minlanadi, bu kreditorga ikkilangan ombor guvohnomasidan ajratilgan warrant (garov guvohnomasi) berish bilan birga qayd qilinadi. Qarzdorning tasarrufida qolgan ombor qismi qarzdorlikning rekonstruksiyalangan qiymatining guvohnoma bilan tasdiqlangan tovar narxi o'rtasidagi farqqa tengoldiq qiymat bo'yicha

ixtiyoriga o'tkazilishi mumkin. Ombo qismi o'z qiymatini yo'qotmasligini ta'minlash maqsadida saqlash uchun joylashtirilgan tovar bahosi tovar garovi bilan ta'minlangan majburiyatlari (qarzdorlik) summasidan yuqori bo'lishi zarur. Masalan, Rossiya davlat ombori ikkilangan ombor guvohnomasi berish bilan omborda saqlashni tashkil qilib, bu guvohnomalarining bozor qiymati saqlash qiymati va saqlanayotgan qimmatliklarning narx darajasi bilan bevosita bog'liq.

Garov kabi maqsadli qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini aniqlash alohida o'ziga xoslikka ega. Garov qimmatli qog'ozlari – bu pul majburiyatlari bajarilgandan so'ng ipoteka bilan ta'minlangan mulkni olish huquqini, ipoteka haqida shartnomada ko'rsatilgan mulk garovi huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlardir.

Vaucherlar xususiylashtirish jarayonida foydalilaniladigan o'ziga xos qimmatli qog'oz sanaladi. Ularning bozor qiymati mulk munosabatlari o'zgarishlaridagi aniq shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

3.Opcion shartnomalarni baholash

Opcion – muayyan muddat davomida oldindan belgilangan narxda qimmatli qog'ozlarning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi shartnomadir. Opcion xaridori bitimni operatsiyani amalga oshirish huquqini oladi. Uning uchun mazkur huquqni amalga oshirishda yoki ushbu shartnomaga muddati tugashi bo'yicha opcion shartnomaga amal qiladi. Opcion shartnomaga sotuvchisi xaridor talabi bo'yicha bitim tuzishga majbur sanaladi. Opcion xaridori sotuvchidan kompensatsiyalanishi zarur bo'lgan muayyan mulkni oladi. Buning uchun

opsion mukofoti mavjud bo'lib, u odatda bitim tuzish vaqtida xaridor tomonidan sotuvchiga to'lanadigan muayyan summadir. Bu mukofotning boshqa nomi – *opsion narxidir*. Qimmatli qog'ozlarni etkazib berish bo'yicha muddatli shartnomalar sifatida opsiyoning bozor qiymati mukofot miqdori bo'yicha xaridor va sotuvchi kelishuviga yoki opsiyon narxiga bog'liq bo'ladi. Kutilayotgan natijaning mavhumlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, opsiyonning bozor qiymati ham shuncha yuqori bo'ladi va aksincha.

Opsiylarning bozor qiymati ularning turi (*call* yoki *put*), pozitsiyasi (ochiq yoki yopiq) va bazaviy aktiv narxiga bog'liq bo'ladi. *Call* opsiyolari kelgusida muayyan vaqtida oldindan kelishilgan narx bo'yicha aktivlarni xarid qilish, *put* opsiyolari esa – aktivlarni sotish huquqini beradi. Opsiya xaridi *put* va opsiyon sotilishi *call* noteng qimmatli pozitsiyalar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. *Put* opsiyon xaridori kelgusida bitim tuzishni tanlash imkoniyati uchun mukofot to'laydi va bazaviy aktivni sotishga majbur emas. *Call* opsiyon sotuvchisi aksincha bazaviy aktivni sotish majburiyati uchun mukofot oladi. Shunday qilib, *Put* opsiyon xaridori shartnomani tuzish vaqtida kelgusida bitimni foydali tuzish evaziga mukofot to'laydi. *Call* opsiyon sotuvchisi aksincha kelgusida bitimni bajarishga to'g'ri kelmasligini chandalagan holda mukofot oladi. Vaholanki, *Call* opsiyon sotuvchisi ham, *Put* opsiyon xaridori *ham* kelgusida bazaviy aktiv narxi pasayishini chandalaydi.

Opsiya shartnomasi jarayonida qo'llaniladigan muhim tushuncha ijro narxi sanaladi. Bu bazaviy aktivning fiksirlangan narxi bo'lib, xaridor va sotuvchi o'tasidagi shartnomasi unga nisbatan tuziladi. Odatda, ijro narxi standartlashtirilgan bo'ladi va bazaviy aktiv narxiga bog'liq ravishda muayyan oraliqlarda belgilanadi.

Opsiya shartnomasini tuzishda yuzaga keladigan asosiy masala – opsiyon narxi (mukofot) ni aniqlashdir. Opsiya shartnomasining narxi (mukofot) ni aniqlash bo'yicha ko'plab modellar mavjud. Ularning ichida Bleka-Shoulz modeli eng mashhurlaridan biri sifatida tilga olinadi. Opsiya narxi tuzilmasida ichki va tashqi qiymat ajratib ko'rsatiladi. *Ichki qiymat* – bu opsiyon ijro narxi va bazaviy aktivning joriy narxi o'tasidagi farqdir. *Call* opsiyon xaridori uchun aktiv narxi qancha yuqori bo'lsa, uning ijro narxi shuncha katta bo'lishi afzalroq, chunki u kelgusida ushbu aktivlarni yanada past narxda sotib olish huquqiga ega bo'ladi. *Call* opsiyon sotuvchisi uchun esa mazkur vaziyat buning aksinchesi sifatida gavdalananadi. Shunday qilib, opsiyon "yutuqli" bo'lgandagina (*in the money*) ichki qiymatga ega bo'ladi. Qolgan barcha holatlarda opsiyonning ichki qiymati nolga teng.

Vaqt qiymati – bu shartnomani bajarish huquqini tasarruf etish imkoniyati uchun ichki qiymatga qo'shimcha tarzda opsiyon xaridori to'laydigan, sotuvchisi esa oladigan mukofotdir. U kutish narxi yoki imkon narxi deb ham ataladi. Opsiya onni bajarish kunigacha bo'lgan davr qancha ko'p bo'lsa, uning ichki qiymati shuncha ko'p bo'ladi. Vaqt qiymatiga bazaviy aktiv narxining o'zgaruvchanligi ham ta'sir qiladi. Kurs tebranishlari farqi kotirovkalarining tarixiy o'zgarishlari asosida hisoblanadi. Bazaviy aktivning narxi qancha yuqori bo'lsa, opsiyonning vaqt narxi ham shuncha yuqori bo'ladi, shuningdek, opsiyon bajarilishining "yutuqli" bo'lish ehtimoli ortadi. Mos ravishda opsiyon sotuvchisi katta narx so'raydi, chunki riskning yuqori darajasini kompensatsiyalashi lozim. Foiz stavkasi opsiyonning ichki qiymatiga ta'sir qiluvchi omillardan biri sanaladi. YUqori foiz stavkalari *call* opsiyon qiymati oshishi va *put* opsiyon qiymati pasayishiga olib keladi. Bu muqobil mablag'lar joylashtirish daromadliligi o'sishi oqibatida yuzaga keladi.

Bazaviy aktivlari aksiyalar sanaladigan opsiyolar uchun mukofot hajmiiga dividendlar miqdori ta'sir qiladi. Dividendlarning har bir to'lovi aksiyalarning bozor qiymatini pasaytiradi. Lekin ijro narxi standartlashtirilgan va o'z navbatida o'zgarmasdir. Shuning uchun *call* opsiyolari narxikamayadi, *put* opsiyon esa aksincha o'sadi. Opsiya qiymatini baholash inflyatsiya sur'ati va valuta kursi o'zgarishi hisobga olingan holda bir nechta nisbiy o'zgaruvchilar (mazkur shartnomasi tuzilgan opsiyon ijro narxi, ijro muddati, aktivlar riski) asosida amalga oshirilishi mumkin.

4.Fyuchers shartnomalarini baholash

Fyuchers shartnomasi (*fyuchers*) – bu investor fiksirlangan bazis narx bo'yicha aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond, moddiy qimmatliklar (valuta, depozitlar, banklararo kreditlar, tovarlar va b.) ning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir. Fyuchers opsiyondan ijro majburiyligi bilan ajralib turadi. Tovar, valuta, foiz, indeks va boshqa fyuchers shartnomalari mavjudligi qayd qilinadi. Aksionerlik jamiyatining qimmatli qog'ozlari uchun fyuchers shartnomalarining bozor qiymati asosan emitentning moliyaviy holati, qimmatli qog'ozlami etkazib berishgacha muddatgacha kelishilgan qimmatli qog'ozlami etkazib berishning bazis narxi darajasi bilan bog'liq.

Fyuchers shartnomalar qat'iy standartlashtirilgan va qimmatli qog'ozlar sotuvchilarini hamda xaridorlarining aniq talablarini aks ettiradi. Muayyan turdag'i qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini amalga oshirish uchun standart muddatli shartnomalar (*fyucherslar*) asosan quyidagihami o'zida jo etadi: qimmatli qog'oz turi; fiksirlangan sotish narxi; qimmatli qog'ozlar miqdori; bitim summasi, shartnomani bajarish sanasi; hisob-kitob shartlari.

Fyuchersli shartnoma - ikki tomon o'rtasidagi aktivlarni almashtirish yoki kelajakda baho va vaqt yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqida tomonlar kelishilgan holda imzo chekadigan shartnoma. An'anaviy fyuchers shartnomasi bilan savdo qilingan ko'p hollarda bir taraf ikkinchi tarafning tovari qo'yish yoki xizmatni kelajakda belgilangan vaqtida almashtirish taklifiga rozi bo'ladi, ikkinchi taraf tomonlar orasidagi shartnomaga binoan qo'yilgan tovar uchun haq to'lashga kelishiladi. Birinchi taraf fyuchers kontraktining sotuvchisi, ikkinchi taraf uning haridori.


Mazkur bo'limda fyuchers kontraktlari maqsadiga muvofiq bo'lган bir nechta har xil, masalan, tez buzuladigan tovarga, buzulmaydigan tovarga va moliyaviy aktivlar singari aktivlarga fyuchers shartnomasi bilan uning zamirida yotgan asos orasiga asosiy arbitraj mutanosibligini o'rnatish yo'li bilan tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, bo'limda ko'rsatilgan mutanosiblikda transaktsiya xarajatlari va savdoga hamda fyuchers narxiga oid ta'qilqlar ham o'rganiladi. Va nihoyat, bo'limda narxlarning shakllanishiga daxldor fyuchers shartnomalari ayrim ma'lumotlarga sharh beriladi.

Fyuchers, forward va option shartnomalari. Fyuchers, forward va option shartnomalari hosila shartnomalari hisoblanadi, chunki ular o'zlarining baholarini (qiymat) shartnomaning asosi bo'lган aktivlardan chiqaradi. Ammo bu shartnomalarning ishlashida bir nechta ososli tafovutlar (farq) mavjud.

Fyuchers shartnomalar. Har bir fyuchersli shartnomaning ikki tarafi mavjud: aktivni kelajakda ko'rsatilgan vaqtida qo'yishga rozi bo'lган shartnomaning sotuvchisi va to'plangan bahoni to'lashga, qo'yilgan aktivni olishga rozi bo'lган shartnomaning xaridori (10.2-rasm).

10.2-расм.

Фьючерсли контрактлардан пул оқими



Fyuchersli shartnomada xaridor yoki sotuvchi vaziftdan xedjirlash maqsadida foydalaniши mumkin. Unda bo'lgan xuddi shu aktiv bo'yicha fyuchers shartnomasi tuzilganidan so'ng aktivning narxi o'zgarishi, birining hisobidan ikkinchisi yutuq olishi mumkin. Agar tayanach aktivning bahosi shartnoma tuzilganidan keyin oshsa, xaridor sotuvchining hisobidan yutuq oladi. Agar aktivning bahosi tushib ketsa, unda yutuqni xaridor hisobidan sotuvchi oladi.

Fyuchers va forward shartnomalar. Fyuchersli va forwardli shartnomalar yakunlovchi natijalarda o'xshash bo'lsa ham, forwardli shartnoma kontrakt tuzganlar shartnoma muddati tugamagunicha o'z vazifalarini bajarishni talab qilmaydi. Vazifalarni bajarish (forward shartnomasi doirasidagi hisob) odatda, yutqizgan taraf (ya'ni baho yo'naliшини noto'g'ri belgilagan taraf) g'olibga shartnomadagi va faktik baho orasidagi farqni to'lashni nazarda tutadi. Fyuchers shartnomasida bu farq hisoblangan har bir davrda alohida to'lab boriladi va chiqqan farq g'olib hisobiga o'tkaziladi, ayni vaqtida yutqazgan taraf hisobiga kamayadi. Bu jarayon bozor bahosiga monand qayta baholash deb nomlanadi. Shartnoma shartlarini bajarishning sof natijasi ikkala yondashuvda har bir xil, birining muddati boshqa, ikki xil shartnoma bir xil narxga olib kelishi mumkin. Bu farqni quyidagi misolda oltinga fyuchers shartnomasi tasvirida ko'rish mumkin.

Oltinga fyuchers shartnoma. Oltinga uch bosqichli fyuchers sharnomasi 415 doll. qiymatga ega bo'lsin. Quyidagi jadvalda sotuvchi va xaridorning fyuchers va forward sharnomalari bo'yicha pul oqimi (CF – Cash Flow) keltirilgan. Quyidagi 10.1-jadvalda uch yil davomida oltinning bahosi o'zgarishiga qarab oluvchi va sotuvchining forward va fyuchers sharnomalardagi pul oqimlari keltirilgan.

1-jadval
Fyuchers va forward shartnomalarini qiyoslash

Vaqt davri	Oltinning bahosi (doll.)	Oluvchining CF: forward shartnoma (doll.)	Sotuvchining CF: forward shartnoma (doll.)	Oluvchining CF: fyuchers shartnoma (doll.)	Sotuvchining CF: fyuchers shartnoma (doll.)
1	420	0	0	5	-5
2	430	0	0	10	-10
3	425	10	-10	-5	5
Sof natija		10	-10	10	-10


Sotuvchining xaridorga kelgan sof pul oqimi 10 dollarni tashkil etadi, lekin pul oqimining muddati har xildir. Forwardli shartnomada shartlarni bajarish to'lovlarni yopish vaqtiga to'g'ri keladi. Fyuchersli kontaktida esa har davr uchun daromad va zarar hisoblanadi.

Fyuchers vqa forward shartnomalarining option bilan qiyoslash. Fyuchers va forward shartnomalari orasidagi tafovut nozik farqlanib turganida, bu kontaktlar va option orasidagi farq anchagina sezilarlidir. Option shartnomada xaridor shartnomaning o'ziga tegishli qismini bajarishni zimmasiga olishi majburiy emas. Option shartnomada tomonlar erishgan kelishuvga ko'ra ma'lum bahoda sotib olish – koll va aktivni kelishilgan narxda sotish esa – put deb ataladi. Ko'rindiki, optionning xaridori shartnoma shartlarini agar unda bunga qiziqish bo'lsa, bajaradi (ya'ni, agar aktivning bahosi ijro bahosidan koll-optionsonda ortiq bo'ladi, yoki aksincha, put-optionsonda). Albatta, optionning xaridori bu ustunlik uchun darhol to'laydi. Fyuchersli shartnomada xaridor ham, sotuvchi ham shartnomadagi o'ziga tegishli shartlarni bajarishni bo'yniga oladi. Ko'rindiki, xaridor sotuvchi hisobidan ustunlikka ega

emas va o'zi fyuchers shartnoma uchun darhol to'lashi shart emas. 10.3-rasmida to'lovlar diagrammasi taqdim etilgan bo'lib, unda ikki shartnoma bo'yicha xaridor foydasiga to'lovlar farqini ko'rish mumkin:

10.3-расм.

Фьючерс шартномаси ва опцион-колл савдоси



шартномаси bo'yicha savollarni nazorat qiladi.

Mazkur bo'limda fyuchers shartnomasining ayrim institutsional tomonlari o'rganiladi.

Standartlashtirish. Savdolashadigan fyuchersli kontraktlar shu shartnomalar asosida amalga oshiriladigan ishlarning osonlashuvini va baholashni standartlashtirilishini ta'minlaydi. Standartlashtirish bir necha darajaga egadir.

Aktivlarning sifati va ta'rifi. Aktivning shartnoma bilan qoplanishi mumkin bo'lgan shakli aniq belgilanadi. Masalan, Nyu-york tovar birjasida tozalanmagan neft shartnomasi (New York Mercantile Exchange - NYMEX), tarkibida 0,42 % yoki undan kam miqdorda oltingugurt bo'lgan xom neft bilan ta'minlab turishni talab qiladi. Chikago savdo birjasi (Chicago Board of Trade - CBOT) davlat xazinasiga oid obligatsiyalarning fyuchers kontarkti savdosi bilan shug'ullanadi 100 000 doll. nominal qiymatdagi yopilish muddati 15 yildan oshgan obligatsiyalar bilan ta'minlashni talab qiladi.

Aktivning hajmi. Aktivlar bilan savdo qiladigan har bir fyuchers shartnomasi aktivlarning aniq hajmi (soni) bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Masalan, Chikago birjasida savdo kiluvchi oltinning fyuchers shartnomasi muddat oxirida 100 untsiya oltin quyishni talab qiladi.

Standartlashtirishning maqsadi o'sha aktiv bo'yicha fyuchers shartnomalarini o'zaro almashishidan iborat. Bu likvidnostni taminlaydi, shu bilan birga fyuchers shartnomasi bilan savdo qiladigan tomonlarga ular tushgan vaziyatdan engilroq chiqish imkonini beradi.

Narhlarning o'zgarishiga limitlar. Fyuchers shartnomalari bilan almashuvda bunday kontraktlarning ko'pchiligidagi odatda narhning o'zgarishiga limitlar o'rnatiladi. Masalan, Nyu-York savdo birjasida (New York Mercantile Exchange — NYMEX) apelsin sharbati bilan ta'minlash bo'yicha fyuchers shartnomasi narhining kundalik o'zgarishi bir funtga 5 tsentni tashqil etadi yoki shartnomaga 750 doll. (u 15 000 funtni qoplaydi). Agar

shartnomaning narhi uning limiti kattaligidan pasaysa yoki ortib ketsa, savdo kunning oxirigacha to'xtatiladi, birja bu masalaning echimini hal qilishdan "dam olishi" yoki mazkur shartnoma bo'yicha savdoni kun davomida qayta tashqil etishi ham mumkin. Narhning o'zgarishiga limitlarning kiritilishga savdoda sarosima bo'l shining oldini olish aktivlarni yolg'on ma'lumotlar yoki mish-mishlar asosida yoki to'g'ri ma'lumotlardan hayajonlanishga yo'l qo'ymaslik asos bo'ladi. Agar investorlarning favqo'lodda ma'lumotlar yuzasidan qaror qabul qilishga vaqtлari etarli bo'lsa, unda narhlarning o'zgarishiga munosabat asosli va aqlii bo'ladi, deb hisoblanadi.

Savdo uchun marja talablari fyuchers kelishuvlarida haridor tomonidan sotuvchi adresiga amalga oshirilgan qandaydir to'lovlar yo'q va bitim tuzish momentida sotuvchi aktivlarning jismoniy boshqarganini isbotlashi shart emas. Xdr ikki tomon fyuchers shartnomasining o'ziga tegishli shartlarini bajarishlari uchun ulardan mablag'larini marja hisobiga depozitga qo'yish talab qilinadi. Shartnoma tuzishda depozitga qo'yish uchun talab qilinadigan summa "dastlabki marja" (initial margin) deb ataladi. Narhning navbatdagi o'zgarishida kantraktlar bozor bahosiga mos ravishda qayta baholanadi, foya yoki zarar investorning xtssobiga yoziladi. Investor marja hisobidan dastlabki marja kattaligini oshiruvchi har qanday so'mmani olishi mumkin.

Agar investor bahoning uning noxush o'zgarganligi munosabati bilan zarar ko'rsa, uning marjasini qisqaradi. Investorning hisobida hamisha fyuchers mavkeini ushlab turish uchun mablag' bo'lishi kerak. Marjaning investor ushlab turishi lozim bo'lган minimal darajasi "qo'llab-kuvvatlovchi marja" (maintenance margin) deb ataladi va u odatda dastlabki marjadan past bo'ladi. Agar marja hisobida mablag'lar qo'llab-kuvvatlovchi marjadan kam qiyamatga ega bo'lsa, investor hisobdagagi mablag'ni (margin call) ko'paytirib qo'yish haqida ogoxlantiriladi. Kiritilishi kerak bo'lган bu qo'shimcha mablag' "variatsion marja" (variance margin) nomi bilan tanish. qo'llab-kuvvatlovchi marja har xil shartnomalar uchun, hatto har xil savdogarlar uchun farqlanadi.

Fyuchers shartnomalari narkining shakllanishi. Fyuchars shartnomalarining ko'pchiligi arbitraj asosida baholanishi mumki, ya'ni nvestorlar tashqil etolmaydigan, o'z ichiga fyuchers shartnomasi va aktivlar bazasini kamrab olgan darajani (holatni), dastlabki investitsiyasi bo'lмаган hollarda xavfsiz foydani shakllantiruvchi narkni (yoki narkning diapazonini) chiqarishi mumkin. Keyingi bo'limlarda baho bilan bog'liq bu mutanosibliklar bir necha fyuchers shartnomalari uchun ko'rib chiqiladi.

Tez buzuladigan tovarlar. Tez buzuladigan tovarlar, deganda qoidalardagi izoxli holat, fyuchers shartnomalari arbitraj asosida baholanishi tushuniladi. Chunki bahoni belgilash uchun tovarni saqlash imkoniyati bo'lishi kerak. Tez buzuladigan tovarlar bilan ta'minlashga fyuchers shartnomasi to'zish uchun baho quyidagi faktorlar bo'yicha aniqlanadi.

Bahoning o'zgarish limiti: likvidlikga ta'siri. Bahoga o'zgartirish kiritish limitlarining mantig'i shundan iboratki, ular bozor uchun tormoz vazifasini o'taydi va savdodagi sarosimaning oldini oladi. Ulardan foydalanishga qo'yish aniq emas, chunki ba'zida savdo volatili kattartirishi va narkning o'zini oklamaydigan yuqori yoki past darajadagi tebranishiga olib kelishi mumkin. Bahoning o'zgarishi limiti bilan bog'liq muammolar quyidagilardan iborat: ular narklar orasidagi ratsional o'zgarishlar (tovarga bo'lган talab va taklif asosidagi tebranishlarga) bilan irratsional o'zgarishlarni farqlamaydi. Ko'rindiki, investorlarga juda kerak bo'lган paytda limitlar narhlarning harakati likvidnostiga chegara qo'yishi va narklarni tarir qilishni sekinlashtirishi mumkin. Narkning o'zgarishiga chek qo'yish haqidagi masalani shakllantirish uchun narkining savdo bilan bog'liq cheklanishlarsiz o'zgarishiga limiti bo'lган aktiv uchun ko'p yoki kamrok to'lashni xoxlashlarini surash taklif etiladi. Siz bu savolga qanday javob berishingiz, kam volotili (savdoga qo'yilgan chegara tufayli) bilan kam likvidnost orasida kelishib tanlashga bog'liq bo'ladi.

Spot tayanch tovarlarning kutilayotgan narhi. Agar fyuchers shartnomasining muddati tugaguncha fyuchers tovar (tayanch tovar) asosida yotgan spot narnining oshishi kutilayotgan bo'lsa, unda tovarning fyuchers narhi amaldagi spot-narhiga nisbatan ortadi. Agar spotning narhi pasayishi kutilayotgan bo'lsa, unda fyuchers narhi bu spot-narhdan past bo'ladi.

Fyuchers holatini qabul qilganda xavf uchun to'lanadigan mukofot. Fyuchers shartnomasining sotuvchi va haridor singari ikki tarafi mavjud ekan, xavf uchun mukofotning razmeri va yo'naliishi har xil holatlarda turfa bo'ladi va haridor sotuvchiga xizmat taklif qiladigan tarzda qaralyaptimi yoki aksinchami ekanligiga bog'liq bo'ladi. Qishlok xo'jalik mahsulotlarini etkazib berishdagi fyuchers shartnomasi munosabatlarida fermer yoki etkazib beruvchilar fyuchers shartnomasining asosiy sotuvchilari hisoblanadilar va individual investorlar - haridorlar bo'ladi, keyingilari birinchilarga o'z xizmatlarini taklif etadi, shuning uchun ular rag'batlantirilishi kerak. Bunda fyuchers narhi kutilayotgan spot narhdan past bo'ladi.

Fyuchers narhi = spot narhi - xavf uchun kutilayotgan mukofot

Fyuchers va spot narhlarining o'zaro aloqadagi bu shaklida narhlar "normal deport"ni keltirib chiqaradi yoki spot narhidan yaxshigina chegirma qiladi (normal backwardation).

Fyuchers shartnomalari munosabatlarida, ularning xaridori sanoat iste'molchilari bo'lganda, (shokolad chiqaruvchi Hershey kompaniyasi yaxshi misol bo'lishi mumkin, o'zi uchun qulay narxda shakar etkazib berishga fyuchers shartnomasini sotib olgan), sotuvchilar esa sanoat investorlari, xaridorlarga xizmati taklif etiladi va sotuvchilar xavf uchun ijobiy mukofotga kelishilgan holda mukofot talab qilishlari mumkin. Bunday holatda fyuchers bahosi spotning kutilayotgan narxidan yuqori bo'ladi, fyuchers narxlar, "normal kontango" (normal contango), yoki spot narxiga (normal) qo'shimcha bo'ladi.

Fyuchers tovarlari zamonaviy bozorida ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi, umuman aytganda, sotuvchilar orasida ham, xaridorlar orasida ham bo'lolmaydilar, sof imtiyoz xaridorlarga ham, sotuvchilarga ham bo'lishi mumkin. Xavf uchun mukofot ijobiy yoki salbiy bo'lishi kerak deyishga qandaydir aprior sabab yo'q. Aslida, sotuvchi yoki xaridor xedjirlashga murojaat qilmay narxda savdolashsalar, ya'ni maxsulot narxini yoki ishlab chiqarish faktori ehtiyojni qoplashini kafolatlasalar, unda sof daromad, xavf uchun nolli mukofot bilan ta'minlash ham nolga teng bo'lishi mumkin. Bu holatda fyuchersning bahosi spotning kutilayotgan bahosiga teng bo'lishi kerak.

Fyuchers uchun bahoni spotning kutilayotgan bahosiga qiyoslashning uch imkoniyati 10.4-rasmda tavsiya etilgan. Bozordan tovar fyucherslari uchun olingan empirik ma'lumotlar aralash natijani beradi. Xautxakerning dastlabki tadqiqotlarida (Houthaker, 1957) tovarga fyuchers narxlari odatda o'rtaча deportni tashkil qilgan holda spotning kutilgan narxlaridan past bo'lgan. Ammo, Telser (Telser? 1958) bug'doy va jo'xori ta'minoti bo'yicha fyuchers bozoriga nisbatan bu ma'lumotga qarama-qarshi ma'lumotni ko'rsatgan.

Buzulmaydigan tovarlar. Buzulmaydigan (saqlashga yarokli bo'lgan) tovar bilan tez buzuladigan tovar orasidagi tafovut quyidagi l ar da ko'rinadi: buzulmaydigan tovarlar spot bahosi bo'yicha sotib olinishi mumkin va fyuchers shartnomasi muddati tugagunicha saklanadi. Ya'ni amaliy jixatidan fyuchers shartnomasini sotib olish va muddati tugagach qabul qilishga ekvivalent. Ikkala variant Ham bir xil natija berar ekan, tovarga egalik nuqtai nazaridan, muddat tugagach, fyuchers shartnomasi, agar u tgli baholangan bo'lsa, tovarni sotib olish va saqlash strategiyasi qancha tursa, shuncha bo'lishi lozim. Oxirgi strategiya harajatlarning qo'shimcha shaklining ikki turi bilan ajraladi.

8.4-rasm

Tez buzuladigan tovarga fyucherslar

$F=E(S_1)+ \text{xavf (risk) uchun mukofot}$			
	Kutilayotgan gipoteza	Normal deport	Normal kontango
Ruxsat berish (qabul qilish)	Investorlar xavfga e'tirozsiz (neytral)	Xedjerlar sof qisqa holatga egalar. Olib sotarlar sof uzun holatga egalar	Xedjerlar sof uchun holatga egalar. Olib sotarlar sof qisqa holatga egalar
Fyuchers bahosi	$F=E(S_1)$	$F < E(S_1)$	$F > E(S_1)$

1. Hamon tovar muddati tugaganidan keyin emas, xozir olinishi kerak ekan, moliyalashtirish mahsulotni xozir sotib olishning o'zlashtirilishi bilan bog'liq qo'shimcha harajatlari chiqadi.

$$\text{Qo'shimcha foiz stavkalari} = \text{spot bahosi} \times [(1 + \text{foiz stavkasi})^{\text{fyuchers shartnoma davri}} - 1]$$

2. Agar tovarni fyuchers shartnomasi muddati tugaguncha saqlash bilan bog'liq harajatlar mavjud bo'lsa, ular ham strategiyada aks ettirilishi lozim. Bundan tashqari, tovarga jismoniy egalik qilish natijasida foyda chiqishi mumkin. bu foyda "qo'laylikdan foyda" deb nomlanadi (convenience yield) va u fyuchers narhini pasaytiradi. Saqlashning sof harajatlari saqlashning umumiy harajatlari bilan qo'laylikdan daromad orasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Agar F - fyuchers shartnoma narhi, S - spot narhi, r - yillik foiz stavkasi, t - fyuchers shartnoma muddati va k - yillik saqlash harajatlari bo'lsa, mazkur tovar uchun qo'laylikdan olinadigan sof daromad (spot narhidan foiz sifatida), ikkita ekvivalent strategiyevi va ularning harajati quyidagicha yozilishi mumkin:

1-strategiya. Muddat tugagach ta'minotni qabul qilish va fyuchers shartnomasini F (pul shaklida)ga sotib olish.

2-strategiya. Mahsulotni sotib olish va qo'shimcha harajatlarni qoplash uchun tovarning spot narhiga (S) teng mikdorda qarz olish:

$$\text{Foizli harajatlar} = S[(1 + g)^t - 1],$$

$$\text{Saqlash harajatlari, qo'laylikdan olingan sof daromad} = Skt.$$

Agar bu ikki strategiya bir xil harajatlar bilan bog'liq bo'lsa, unda:

$$F = S + S[(1+r)^t - 1] + Skt = S[(1 + g)^t + kt].$$

Mazkur ifoda o'zida fyuchers narhi bilan spot narhi fundamental arbitraj aloqasini aks ettiradi. Bundan chekinishning har qanday turi arbitraj chiqarish uchun imkon yaratishi lozim (ya'ni xavf bulmaganda strategiyani va ijobjiy foyda yaratadigan qo'shimcha investitsiyani qo'llash). Bu arbitraj imkoniyatlari 10.5-rasmida yoritilgan.

8.5-rasm

**Buzulmaydigan tovarlar bilan ta'minlashga fyucherslar,
pul shakllanishi va arbitraj**

$$F = E(S_1) + \text{хавф (риск) учун мукофот}$$

Vaqt	Arap Faoliyat	CF	Faoliyat	Arap F < F* CF
Hozir	1. Fyuchers shartnomani sotish	0	1. Fyuchers shartnomani sotib olish	0
	2. Risksiz stavka bo'yicha spot bahosini qarzga olish	S	2. Tovarni qisqa sotish	S
	3. Spot bahosi bo'yicha tovarni sotib olish	- S	3. Risksiz stavka bo'yicha ssuda	- S
t vaqtida	1. Tovarni olish, saqlash xarajatlarini to'lash	- Skt	1. Berilgan ssudani to'lash	
	2. Fyuchers shartnomasi bo'yicha ta'minlash	F	2. Fyuchers shartnomasi bo'yicha ta'minlashni qabul qilib olish	- F
	3. Qarzni to'lash	- S(1+r) ^t	3. Qarzga berilgan tovarni va saqlash xarajatlarini qabul qilib olish	Skt
NCF	F - S[(1+r) ^t - kt] > 0		S[(1+r) ^t + kt] - F < 0	

Dastlabki tayanch ma'lumotlar:

F^* = fyuchers shartnomasining nazariy bahosi;

F = fyuchersning haqiqiy bahosi;

S = tovarning spot bahosi;

r = xavfsiz (risksiz) foiz stavkasi (yillik);

t = fyuchers shartnomasining tugash muddati;

k = zahiralarni saqlash xarajatlari, qulaylikdan sof daromad (spot narxidan % sifatida).

Tayanch taxminlar:

1. Investor qarzga berishi qilishi yoki xavfsiz stavka bo'yicha qarz olishi mumkin.

2. Tovarni sotib olish yoki qisqa sotish bilan bog'liq transaktsion xarajatlar yo'q.

3. "Qisqa" sotuvchi qisqa sotuv munosabati bilan iqtisod qilingan saqlash

xarajatlarining barchasini olishi mumkin.

Bu arbitraj bir necha taxminlarga asoslangan. Birinchidan, investorlar bitta stavka – xavfsiz stavkasi bo'yicha o'zlashtiradilar va qarzga beradilar. Ikkinchidan, fyuchers kontrakti baholanmaganda, fyuchers kontraktining xaridori (arbitrajer) tovarning qisqa savdosini amalga oshirishi va saqlash xarajatlarini tovar egasi hisobidan qoplash hisobiga iqtisod qilishi mumkin. Bu taxmin qanchalik haqiqiy emasligiga bog'liq holda narxlar chegarasi arbitrajning bajara olmaydigan chegarasigacha kengayadi.

Agar fyuchers narhi bu chegaradan chiksa, 10.6-rasmida ko'rsatilganidek, arbitrajning imkoniyatlari kelib chiqadi.

Davlat xazinasidagi obligatsiyalar fyuchersi. SVOTda savdo qiluvchi davlat hisobidagi obligatsiyalar fyuchersi dastlabki, eng kamida 15 yil davomida avvaldan sotib olish imkoniyati bo'lmaganda, yopilish muddati 15 yildan ortiq bo'lган har qanday davlat obligatsiyalarini ta'minlashni talab qiladi. Har xil yopilish muddatiga va kuponlarga ega

bo'lgan obligatsiyalar har xil narhda bo'ladi, SVOT uchun obligatsiyalar harakteristikasiga ularning bahosini taxrir qilish ishlari mavjud. Konversion faktorni o'zicha hisoblash oson va taxminda ta'minlash oyining birinchi kunida obligatsiyalarning qiymatiga asoslangan. Barcha yopish muddatlari uchun foizlar yillik 8% (yarim yillik qiyin foyiz sifatida). Quyida keltirilgan misolda kupo stavkali obligatsiyalar uchun konversion faktor 20 yillik yopilish muddatida 9% hisoblanadi.

Endi davlat xazinasi obligatsiyalar fyucherslari uchun konversion omillarni hisoblashni ko'rib chiqaylik.

20 yillik obligatsiyalarni 9 foizli kupon stavkasi bilan ko'rib chiqamiz. Obligatsiyalarning nominal qiymati 100 dollarga va stavkasi 8% teng bo'lsin. U holda obligatsiyaning keltirilgan qiymati quyidagiga teng bo'ladi:

$$\sum_{t=5}^{20} \frac{4,50}{(1,08)^t} + \frac{100}{(1,08)^{20}} = 111,55 \text{ дол.}$$

Bu obligatsiya uchun konversion faktor 111,55 doll.ni tashqil etadi. Umuman olganda, u kupon stavkasining ortishi, shu bilan birga qo'yilgan obligatsiyaning yopilish muddati kattarishi bilan oshib boradi.

Fyuchersning davlat hisobidagi obligatsiyalarini ta'minlashga berilgan harakteristika (ya'ni har qanday turdag'i davlat obligatsiyalarini kontrakt talabini bajarish uchun qo'yilaverilishi mumkin) fyuchers kontraktini sotuvchiga imtiyoz beradi. Albatta, konversion faktorlarni hisoblash maqsadida taxrirdan keyin obligatsiyalarning eng arzonlari qo'yilishi mumkin. Ta'minlashga bunday option fyuchers shartnomasida hisobga olinishi lozim.

Davlat hisobidagi obligatsiyalar fyuchers shartnomasiga kiritilgan qo'shimcha option ham mavjud bo'lib, davlat aktsiyalari fyuchersi bozori kunduzi soat ikkida yopilishi fakt bo'lgani bilan obligatsiyalarning sotilishi kunduzi soat to'rtgacha davom etadi. Kech soat sakkizgacha sotuvchi obligatsiyalarni ta'minlash haqidagi rejalarining kliring to'lovi haqida e'lon qilishi shart emas. Agar kunduzi soat ikkidan keyin obligatsiyalar narhi pasaysa, unda sotuvchi obligatsiyalarni bugan arzonroq sotishi haqidagi fikrining kliring to'lovi haqida e'lon qilishi mumkin. Agar narh pasaymasa, sotuvchi keyingi kunni kutishi mumkin. Bu option "oldindan aytib bo'lmaydigan o'yin" (wild card play) deb ataladi.

Xazina obligatsiyalar fyuchers shartnomasini baholash. Davlat xazina obligatsiyalar fyuchers shartnomasini baholash xuddi fond indeksida fyuchersni baholash shaklida amalga oshiriladi. Ya'ni fond indeksining dividend daromadi urnida davlat xazinasi obligatsiyalarning kuponlarning keltirilgan qiymati.

$$F^* = (S - PVC)(1 + r)^t,$$

bu erda F^* - xazina obligatsiyalarni ta'minlash uchun fyuchers shartnomasining nazariy fyuchers bahosi; S - xazina obligatsiyalarning spot bahosi; PVC = fyuchers shartnomasi muddatida kuponlarning keltirilgan qiymati; r = fyuchers muddatidagi xavfsiz stavka; t - fyuchers shartnomaning amal qilish muddati.

Agar fyuchers shartnomasi o'z nazariy narxdan chetlashsa, 10.7-rasmdagi arbitraj imkoniyati paydo bo'lishi kerak.

Bu bahoda hozirgina tilga olingan ikki option - nisbatan qimmat bo'lмаган obligatsiyalar ta'minoti optioni va oldindan aytib bo'lmaydigan o'yin optioni etiborsiz qoladi. Ular sotuvchiga fyuchers shartnomasi imtiyozini beradi va bu shartnomada xisobga olinishi lozim. Ularni bahoga tortish imkonini beruvchi usullardan biri nisbatan arzonroq bo'lgan obligatsiyalarni spoti va kuponlarning keltirilgan narxidan amaldagi baho sifatida

foydalanimishdan iborat. Fyuchers narx baholanganda standartlashtirilgan fyuchers narxni olish uchun uni konversion faktorga bo'lish mumkin.

Tayanch taxminlar:

1. Investor qarz berishi yoki xavfsiz stavka bo'yicha qarz olishi mumkin.
2. Aktsiyalarning sotuvi va qisqa sotuvi tufayli transaktsion xarajatlarning yo'qligi.

Valyutaga fyucherslar. Valyutaga fyuchers shartnomada chet el valyutasini bugungi narxda sotish yoki sotib olish xaqidagi shartnoma ifodalanadi. Valyutaning spot va fyuchers narxi ko'rish uchun, avvalo, chet el valyutasiga egalik investorga xavfsiz foiz stavkasni (R_f) berishini ta'kidlash joiz. Bu mazkur valyutaning o'z mamlakatining xududida xavfsiz maxalliy valyuta (R_d) ishlab olishning ustun kelishi hisoblanadi. Investorlar valyutani spot stavkasi bo'yicha sotib olishlari mumkinligini, shu bilan birga, xavfsiz stavkalar bo'yicha investitsiyaga chegara qo'yilmaganini hisobga olib biz spot va fyuchers narxi orasidagi bog'liqlikni yuzaga chiqarishimiz mumkin. Foiz stavkalarining paritenti ichki va chet el bozorida foiz stavkalarini bilan fyuchers va spot narxlar orasida differentsial aloqa bog'laydi.

$$\frac{\text{Фьючерс баҳо}}{\text{Спот баҳо}} = \frac{1+R_d}{1+R_f}$$

bu erda fyuchers narxi - fyuchers shartnomasidagi chet el valyutasi birliginining maxalliy valyuta birligiga teng olinadigan soni; spot narxi - maxalliy valyutaning fyuchers shartnomasidagi chet el valyutasi birliginining spot shartnomasi buyicha soni.

Tasavvur qilaylik, AQShda yillik foiz stavkasi 5% ga teng, Germaniyada esa 4%. Valyuta kursi spoti 0,65 doll. nemislarning bir markasiga teng, deylik.

Bir yil muddat uchun fyuchers bahosi partent fizlar stavkasiga asoslangan holda natija quyidagicha bo'lishi kerak:

$$\frac{\text{Fyuchers баҳо}}{0,65} = \frac{1,05}{1,04}$$

Shu tariqa nemis markasining fyuchers narhi 0,65625 doll.ga teng.

Nima uchun u kattalik fyuchers narhi bo'lishi kerak? Agar fyuchers narhi 0,65625 doll.dan yuqori bo'lganda, aytaylik, 0,67 doll.darajasida bo'lganida, investor fyuchers kontraktini sotib xavfdan to'liq himoyalanishi, narh shakllanishida ustunlikka erishuvni, shu bilan birgayuqori xavfsiz stavkada daromad olishi mumkin edi. Xavfsiz vaziyat daromad berganda, xavfsizlik stavkasining ustunlik darajasi arbitraj vaziyat deb ataladi. Bu arbitraj dastlabki investitsiya bulmagan holatlarda 0,0143 doll. foyda olib keladi. ko'rindiki, arbitraj jarayoni albatta fyuchers narhlarining bir xil darajagacha pasayishiga olib keladi.

Agar fyuchers narh 0,65625 doll.dan past bo'lganda, jarayon xuddi shu oxirginatija bilan butunlay teskari harakter kasb etgan bo'lardi. Bu bilan investorlar o'zlariga hech qachon xavfni yaqinlashtirmaslik, pul kuymaslik imkoniga erishadilar, lekin muddat tugashi bilan ijobjiy pul tushumiga kelishga ham erishadilar.

Arbitraj keng miqyosdagi aktivlar fyuchers narhlarining determinantini o'lchash imkonini beradi. Ammo fyuchers narhlariga ham ayrim xayratlanarli xususiyatlar ta'sir ko'rsatadi. Ulardan biri - fyuchers shartnomalarini bozor bahosi asosida qayta Baholashni talab qilish fakta bo'lib, ayni vaqtida forward shartnomalari uchun bu narsa talab qilinmaydi. Boshqacha xususiyati, fyuchers shartnomalari uchun bahonio'zgartirish limiti savdo

chegormalarida namoyon bo'ladi. Navbatdagi bo'limda bahoga har birining har tomonlama maxsus ta'sir xususiyati kurib chiqiladi.

Shu bobda avval aytib o'tilganidek, fyuchers shartnomalari bozor narhiga monand ravishda qayta baholashni talab qiladi, ayni vaqtida, forward shartnomalari bunga muhtoj emas. Agar foizlar stavkasi doimiy bo'lsa va fyuchers va forward uchun oxirgi muddat bir xil bo'lsa, ular orasidagi narxga farq bo'lishi mumkin emas. Foiz stavkalari kutilmagan tarzda o'zgarsa, forward narhlari fyuchers narhlaridan farqlanishi mumkin. bu reinvestitsiyalar haqidagi taxminlar bilan, ya'ni fyuchers shartnomasidan qilinishi kerak bo'lgan oraliq daromad va stavkalarning zaimstvovaniesi haqidagi oraliq zararni yopish uchun zarur bo'lgan taxminlar bilan bog'liq. Fyuchers narhlari foiz stavkalari tomonidan keltirilgan bu o'zgaruvchanlikning ta'siri spot narhi va foiz stavkalari orasidagi o'zaro aloqa bilan bog'liq bo'ladi. Agar ular qarama-qarshi tomonlarga o'zgarsa(fond indeksi va davlat hisobidagi obligatsiyalar holatiga o'xshab), unda foiz xavfi fyuchers narhlarini forwardnikidan yuqori qiladi. Agar ular ikkalasi ham bir yo'nalishga o'zgarsalar(ayrim real aktivlar holatidek), unda foiz xavfi narh xavfini faktik jixatidan neytrallashtirishga va fyuchers narhini forwardnikidan pasaytirishga qodir bo'ladi. Empirik tadkikotlarda ko'p hollarda forward va fyuchers narhlari orasidagi tafovut ancha kam bo'ladi va uni bartaraf qilib yuborish ham mumkin.

Fyuchers va forward shartnomalari orasida ularning narhini otklaneniega olib keladigan va kredit xavfi bilan bog'liq bo'lgan boshqa farqlar ham mavjud. Chunki fyuchers birjasi fyuchers shartnomasi shartlarining qisman bajarilishiga kafolat beradi, ammo bu erda nisbatan katta bo'lman kredit xavfi bor, chunki birja sotuvchi va haridorlar uchun shartnomaning shartlarini tomonlardan biri bajarilmasligiga imkoniyat yaratadi. Forward shartnomasi individual sotuvchi va haridor urtasida tuziladi. Ko'rindiki, korvad shartnomasini baholashda hisobga olinishi kerak bo'lgan katta defolt xavfi uchun potentsial mavjud.

Fyuchers kontraktlarida narh o'zgarishi va marja talablariga limitlarning mavjudligi odatda baholashda va arbitraj shartlarini to'zishda e'tibordan chetda koladi. Ammo ularning baholashga ta'siri imkoniyatlari qoladi - natijada savdoga ko'rsatilgan cheklovlardan etarli darajada malollik qoladi. Masalan, narh o'zgarishlariga limitlarning bo'lishining ikki xil yakuni bor. Birinchisi, narhni bozor ma'lumotining reaktsiyasidan himoya qilish yo'li bilan volatilnostini pasaytirish qobiliyatidan iborat. Bu bilan fyuchers shartnomalarini qiymatini nisbatan oshiradi. Boshqasi fyuchers shartnomalari likvidnostini pasaytirishdan iborat. Bu o'z navbatida narhni nisbatan kamaytirishi mumkin. sof natija ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin.

9-Mavzu:Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi xulosa (hisobot)

Reja:

- 1. Baholash hisobotini tarkibi**
- 2. Baholash faoliyatini huquqiy-me'yoriy tartiblashtirish**
- 3. Baholovchilar ishi sifatini nazorat qilishning ichki qoidalari**

Tayanch iboralar: baholash haqida hisobot, baholash o'bekti, mulkni baholash, baholash sanasi, pul oqimi.

1.Baholash hisobotini tarkibi

Baholashhaqida hisobotbaholovchining baholash faoliyati natijasi hisoblanadi. Siz oladigan hisobot rasmiy hujjat maqomiga ega bo'ladi. Baholash haqida hisobotdan sudda ko'chmas mulk, biznes va mulkchilikning boshqa shakllari

qiymatini yoki mulkka etkazilgan zararni baholash qiymatini aniqlash bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish jarayonida foydalanishingiz mumkin. Hisobot "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Foydalaniladigan baholash standartlari: O'zR DMQ tomonidan tasdiqlangan baholash faoliyati subyektlari tomonidan qo'llanilishi majburiy baholash Standartlari.

Baholash haqida hisobot mazmuni baholash obyekti, aniqlanayotgan qiymat turi, baholash maqsadiga bog'liq bo'ladi, lekin ularning barchasida qator majburiy ma'lumotlar mavjud bo'lishi talab etiladi:

1. Tuzilgan sana va Hisobotning tartib raqami;
2. Baholovchi tomonidan baholash obyekti baholash o'tkazish uchun asoslar;
3. Baholash obyekti qiymatini belgilash sanasi;
4. Baholash maqsad va vazifalari;
5. Qiymat turi;
6. Baholovchi haqida ma'lumot;
7. Baholash obyektining aniq tavsifi, yuridik shaxsga tegishli baholash obyektiga nisbatan esa – yuridik shaxs rekvizitlari va mazkur baholash obyektining balans qiymati;
8. Baholash obyektining mutanosib qiymat turini aniqlash uchun baholash Standartlari, mazkur baholash obyekti baholash o'tkazishda ulardan foydalanish asoslari, manbalari ko'rsatilgan holda baholash obyekti baholash o'tkazish uchun qo'llanilgan ma'lumotlar ro'yxati, shuningdek, baholash obyekti baholash o'tkazishda qabul qilingan farazlar;
9. Baholash obyekti qiymatini aniqlash ketma-ketligi va uning yakuniy miqdori, shuningdek, olingan natijani qo'llashdagi cheklov va chegaralar;
10. Baholovchi tomonidan foydalaniladigan va baholash obyektining sifat va miqdoriy tavsiflarini belgilovchi hujjatlар ro'yxati, baholash obyekti suratlari, Baholovchi hujjatlari.

Baholash haqida hisobotning namunaviy mundarijasi:

1. Umumiylar ma'lumotlar
2. Baholash jarayonining asosiylar tushunchalari va metodologiyasi
3. Baholash obyekti va uni o'rabi turgan muhit tahlili
4. Bozor vaziyati tahlili
5. Eng yaxshi va eng samarali foydalanish tahlili
6. Baholash obyektining bozor qiymatini aniqlash
7. Baholash natijalarini muvofiqlashtirish
8. Qiymat haqida yakuniy xulosa
9. Baholash haqida ariza
10. Foydalanilgan manbalar ro'yxati

Baholash haqida hisobot doimo raqamlanadi, sahifama-sahifa tikiladi, imzolanib, tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi.

2. Baholash faoliyatini huquqiy-me'yoriy tartiblashtirish

Mavjud sharoitdan kelib chiqqan xolda, qonuniy hujjatlар yaratilib, korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish jarayonlarida chet e'l investitsiyalarini jalb qilish va investitsion klimatni yaxshilash borasida hukumat tomonidan doimiy ravishda me'yoriy xujjatlar ishlab chiqib, qabul qilinmoqda. Bu islohotlar o'zida yangi normativ aktlarni qabul qilishga, mavjud bo'lgan me'yorlarga

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga, davlat korxonalarini xususiy mulkga aylantirishda yordam beradi.

Chet e'l investorlarining davlat tasarrufidan chiqarish va korxonalarini xususiy lashtirish jarayonida, chet e'l investorlarining taklif va fikr mulohazalari vazirliklarva idoralar tomonidan o'rganilmoqda. Umumiy taklif va fikr mulohazalar natijalari tahlil qilinib o'rganilgandan so'ng, korxona akciya paketlarini o'zlashtirishda yoki ob'ektni umumiylar tarzda sotib olishda ularga yangi imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berishga qarorlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida baholash faoliyatini "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 26 apreldagi PQ-335-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" va 2008 yil 24 apreldagi PQ-843-sonli "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan hizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi qarorlari huquqiy tartiblashtiradi, baholash faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Baholash faoliyati litsenziya asosida amalgam oshiriladi. Baholash faoliyatini litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Baholash faoliyatini litsenziyalashni amalga oshiruvchi organ (bundan buyon matnda litsenziyalovchi organ deb yuritiladi) baholovchi tashkilotning qonun hujjatlarida belgilangan litsenziya talablariga va shartlariga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Baholovchi tashkilot baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxsdir. Baholovchi tashkilot o'z faoliyatida mustaqildir. Xizmatlarning iste'molchisi (bundan buyon matnda buyurtmachi deb yuritiladi) yoki boshqa manfaatdor shaxslarning baholovchi tashkilot faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Baholovchi tashkilot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi va o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin, ochiq aksiyadorlik jamiyati bundan mustasno. Bunda quyidagi majburiy shartlarga rioya etilishi kerak:

baholovchilarining shtatdagi eng kam soniga doir, qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi;

baholovchi tashkilotda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan miqdordagi ustav fondining mavjudligi;

baholovchi tashkilotda baholovchi tashkilotning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchiug'urta polisining mavjudligi.

Baholovchi (baholovchilar) faqat bitta baholovchi tashkilotning muassisi (ishtirokchisi, aksiyadori) bo'lishi mumkin.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining baholovchi tashkilotni tashkil etishi, shuningdek baholash faoliyatini amalga oshirishi taqiqlanadi.

Baholovchi belgilangan tartibda litsenziyalovchi organ tomonidan berilgan baholovchining malakasertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir. Baholovchi baholash ishlarini o'tkazishga, agar u baholovchi tashkilotning shtatida turgan bo'lsa yoki baholovchi tashkilot u bilan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma tuzgan bo'lsa, baholovchi tashkilot tomonidan jalb etilishi mumkin. Baholovchi nazorat qiluvch yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'tkazadigan tekshirishlarda va boshqa tadbirlarda baholovchi tashkilot hamda ushbu organlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosidagina mutaxassis sifatida ishtirok etishi mumkin.

Baholovchining yordamchisi baholovchining malaka sertifikatiga ega bo'lmanan va baholovchining baholash ob'ektini baholashdan o'tkazish bilan bog'liq topshiriqlarini bajaradigan, baholash ob'ektini baholash to'g'risidagi hisobotni (bundan buyon matnda baholash to'g'risidagi hisobot deb yuritiladi) hamda baholashni o'tkazish bilan bog'liq boshqa rasmiy hujjatni imzolash huquqiga ega bo'lmanan jismoniy shaxsdir.

Baholovchi yordamchisining mehnat shartlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, baholovchi tashkilot bilan tuzilgan mehnat shartnomasida (kontraktda) belgilab qo'yiladi.

Baholovchining yordamchisi sifatida ishlangan vaqt baholovchining malaka sertifikatini olish uchun zarur bo'ladigan ish stajiga qo'shiladi.

Baholash ob'ektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- alohida moddiy ob'ektlar (ashyolar);
- shaxsning mol-mulkini tashkil etuvchi ashyolar majmui, shu jumladan muayyan turdag'i (ko'char yoki ko'chmas) mol-mulk;
- mol-mulkka yoki mol-mulk tarkibidagi ayrim ashyolarga bo'lган mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar;
- talab qilish huquqlari, majburiyatlar (qarzlar);
- ishlar, xizmatlar, axborot;
- intellektual mulk ob'ektlari va qonun hujjatlariga fuqarolik muomalasida bo'lishi mumkinligi belgilangan boshqa fuqarolik huquqlari ob'ektlari.

Baholash maqsadlariga qarab baholash ob'ekti xususida bozor qiymati yoki bozornikidan farqlanuvchi qiymat qo'yiladi.

Baholash ob'ekti qiymati turlarining qo'llanish sohasi va ularning farqlanuvchi xususiyatlari baholash standartlari bilan belgilanadi. Baholash ob'ektini baholash pul shaklida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Baholash faoliyati to'g'risida qonuni baholash ob'ektining bozor qiymati va bozornikidan farqlanuvchi qiymati belgilab bergan. Shunga muvofiq, baholash ob'ektining bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko'ra mazkur baholash ob'ektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lган holda o'z manfaatlarini yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi. Agar biron-bir baholash ob'ektining baholashda majburiy o'tkazish talabi mayjud bo'lган normativ hujjatda yoki baholash ob'ektining baholash to'g'risidagi shartnomada (matnda bundan buyon shartnoma deb yuritiladi) qiymatning aniq turi ko'rsatilgan bo'lmasa, mazkur ob'ektning bozor qiymati belgilanishi lozim. Mazkur qoida normativ hujjatda baholash ob'ekti qiymatining turini aniqlovchi, ushbu Qonunda yoki baholash standartlarida nazarda tutilmagan atamalarda foydalanilgan taqdirda ham qo'llanishi kerak.

Baholash ob'ektining bozornikidan farqlanuvchi qiymati deganda mazkur baholash ob'ektining baholash ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilganidan farqli shartlarida o'tkazilgan eng ehtimol tutilgan baho tushuniladi.

Baholashni o'tkazishni davlatga to'la yoki qisman qarashli baholash ob'ektlari bitim tuzishga jalb etilgan taqdirda, shu jumladan:

- baholash ob'ektlarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, ishonchli boshqaruvga topshirish yoki ijara qilish maqsadida ularning qiymati aniqlanayotganda;

- baholash ob'ektlaridan garov narsasi sifatida foydalananayotganda; baholash ob'ektlari sotilayotganda yoki o'zga shaxsga boshqacha tarzda o'tkazilayotganda;
- baholash ob'ektlari bilan bog'liq qarz majburiyatlaridan boshqaning foydasiga voz kechilayotganda;
- baholash ob'ektlari yuridik shaxslarning ustav fondlariga ulush tariqasida berilayotganda majburiydir.

– Baholash o'tkazish baholash ob'ektining qiymati to'g'risida nizo chiqqan taqdirda ham, shu jumladan:

- mol-mulk natsionalizatsiya qilinayotganda;
- ipoteka krediti berilayotganda;
- taraflardan birining talabiga binoan er-xotinning mol-mulki bo'linayotganda; mol-mulk mulkdorlaridan davlat ehtiyojlari uchun sotib olinayotgan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha tarzda olib qo'yilayotganda; soliqlarva boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri to'lanishi ustidan nazorat o'tkazilayotganda majburiydir.

Ushbu moddaning amal qilishi davlat unitar korxonalari, muassasalari va tashkilotlari o'rtasida ularga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi bilan berkitib qo'yilgan mol-mulkni tasarruf etishda kelib chiqadigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Baholovchi tashkilot quyidagi qo'shimcha professional xizmatlar ko'rsatishi mumkin:
baholash to'g'risidagi hisobotlarning ishonchlilagini ekspertiza qilish; investitsiya loyihamalarini ishlab chiqish va tahlil qilish, biznes-rejalar tuzish; baholash jarayonini avtomatlashtirish va baholash faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish;

baholash faoliyati sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va ularning natijalarini tarqatish, professional xizmatlar ham ko'rsatishi mumkin.

Baholashfaoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Baholovchi tashkilot shartnomani bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida buyurtmachiga zarar etkazilganligi uchun uning oldida javobgar bo'ladi. Buyurtmachiga etkazilgan zararning, shu jumladan boy berilgan foydaning o'rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, baholovchi tashkilot tomonidan qoplanishi kerak.

Baholovchi baholash ob'ektni baholashni sifatsiz o'tkazganligi yoki lozim darajada o'tkazmaganligi, maxfiy ma'lumotlarni oshkor etganligi natijasida etkazilgan zarar yoki baholovchi tashkilotning zarar ko'rshiga olib kelgan boshqa xatti-harakatlar uchun baholovchi tashkilot oldida qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Baholovchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mol-mulkni baholash standartlari quyidagilarni belgilaydigan o'zaro bog'liq normalar va qoidalar kompleksini ifodalaydi:

- baholash tushunchalari va printsiplari;
- baholash faoliyatida qo'llanadigan atamalar va ta'riflar;
- qiymat turlariga qo'yiladigan talablar; boshlang'ich axborotga qo'yiladigan talablar; baholashni o'tkazish tartibi;
- baholash usullarini qo'llash xususiyatlari;
- baholash natijalarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar;

– boshqa talablar.

3.Baholovchilar ishi sifatini nazorat qilishning ichki qoidalari

Baholovchilar ishi sifatini nazorat qilishning ichki qoidalari Milliy standarti (MS)ning asosiy maqsadi - baholovchi tashkilotlarning ichki qoidalarni ishlab chiqishga nisbatan yondashuv va tamoyillarini, shuningdek mazkur qoidalarni qo'llashda ichki nazoratni tashkil qilish va tartibga solish talablarini birhillashtirishdir.

MSning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- baholovchi tashkilotlar ichki qoidalarni ishlab chiqishning yagona tamoyillarini belgilash;
- ichki qoidalarni ishlab chiqishda baholovchi tashkilotlarga qo'yiladigan majburiy talablarni belgilash;
- baholovchilar va baholovchi tashkilotlarning boshqa hodimlari tomonidan ichki qoidalarni talablariga rioya qilinishi ustidan ichki nazoratni amalga oshirish tartibini tavsiflash.

Baholovchi tashkilotlar ichki qoidalari amaliy foyda berishi kerak, ya`ni ular: O'zbekiston Respublikasining baholash to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kelishi va o'zaro bog'liq bo'lismeni ta'minlashi; aniq ifoda qilinishi, to'liq va ravshan bayon etilishi; mazkur qoidalarni masalalarini to'liqligicha qamrab olishi, bayon etilgan tamoyil va qoidalarni mantiqan rivojlantirishi; ulardagi barcha atamalar bir hil talqin qilinishi lozim.

Baholovchi tashkilotlarning ichki qoidalari o'z vazifalariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

- a) mulkni baholash bo'yicha umumiyligi qoidalardan iborat qoidalari;
- b) mulkni baholashni o'tkazish tartibini belgilovchi qoidalari;
- v) baholash hisobotlarini tuzish tartibini belgilovchi qoidalari;
- g) ekspert hulosalarini tuzish tartibini belgilovchi qoidalari;
- d) mahsus qoidalari;
- j) kadrlarni tayyorlash va o'qitish qoidalari;
- z) boshqa qoidalari.

Mulkni baholash bo'yicha umumiyligi qoidalardan iborat ichki qoidalari baholovchilar o'rtasidagi, shuningdek baholovchi tashkilot hodimlari va rahbariyati o'rtasidagi uzaro munosabatlarni tartibga solish uchun mo'ljallangan.

Mulkni baholash bo'yicha umumiyligi qoidalardan iborat ichki qoidalari ro'yhati quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- a) ichki qoidalarni ishlab chiqishga oid konsepciya va yondashuvni tavsiflovchi qoidalari, shu jumladan ularning tuzilishini belgilovchi hujjat;
- b) baholovchingin hulq-atvori etikasini belgilovchi qoidalari;
- v) baholashni sifatli o'tkazish ustidan ichki nazoratni yuritish tartibini hamda baholovchilar mas`uliyatini tartibga keltiruvchi qoidalari va boshqa qoidalari.

Baholovchi tashkilotlarning mulkni baholashni o'tkazish tartibini belgilovchi ichki qoidalari ro'yhati quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- a) baholovchi mas`uliyatini tartibga soluvchi qoidalari;
- b) mulkni baholashni o'tkazish tartibini belgilovchi qoidalari;
- v) baholash uchun zarur ma`lumotlarni olish tartibini belgilovchi qoidalari;
- g) uchinchi shahslar ishidan foydalanish tartibini belgilovchi qoidalari va boshqa qoidalari.

Baholash hisobotlari va ekspert hulosalarini tuzish tartibini belgilovchi ichki qoidalari baholovchi takshilotning mulkni baholash natijalari bo'yicha baholash hisobotlari hamda o'tkazilgan ekpertiza (tekshiruv) natijalari bo'yicha ekpert hulosalarining mazmuni va

tuzilishiga doir ichki talablaridan iborat bo'lishi lozim.

Mazkur ichki qoidalar ro'yhatiga quyidagilar kirishi mumkin:

a) baholash hisobotining ishonchliligini ekspertizadan o'tkazish qoidalari;

b) baholash faoliyati sohasida ahborot tehnologiyalarini joriy etish va baholash jarayonini avtomatlashtirish qoidalari;

v) baholash faoliyati sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va natijalarini oshkor etish qoidalari.

Baholovchi tashkilot ichki qoidalari tuzilmasi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

a) tartibga soluvchi parametrlar - O'zbekiston Respublikasi Mulkni baholashning milliy standartlariga hamda ichki qoidalarni ishlab chiqishda foydalanilgan halqaro baholash standartlariga tayangan holda ishlab chiqiladi;

b) umumiy qoidalar - ichki qoidalarni zarurati, ulardagi asosiy atamalar va tushunchalarning ifoda etilishi, qo'llanilish sohasi;

v) maqsad va vazifalar - qoidalarni belgilash va ular yordamida hal etilishi ta'minlanadigan ma'lum muammolar;

g) boshqa qoidalarni bilan o'zaro bog'liqlik - boshqa qoidalarda belgilangan tegishli bandlarga tayangan holda ishlab chiqiladi;

d) asosiy tamoyillar va uslubiy qo'llanmalarni belgilash - baholovchi

tashkilot tomonidan mulkni baholashni o'tkazish jarayoniga, qabul qilingan uslubiy qo'llanmalar (tavsiyalar) va qoidalarni bo'yicha ko'rib chiqiladigan muammolarni hal etishning tehnik usullariga tavsif beriladi;

e) rasmiylashtirish - baholovchi qoidalarda belgilangan talablarga ko'ra tuzishi kerak bo'lgan hujjatlar ro'yhati.

Ichki qoidalarni bajarilishini nazorat qilish baholash faoliyatini amalga oshirishning barcha bo'g'inlarida, baholovchidan tortib baholovchi tashkilot rahbarlarigacha tashkil etilishi lozim.

Baholovchi tashkilot tomonidan baholash faoliyatini amalga oshirish jarayonida nazorat ishlarini olib borish uchun baholashni o'tkazish sifatini nazorat qilish hizmati tashkil etilishi mumkin. Baholashni o'tkazish sifatini nazorat qilish hizmati tarkibidagi nazorat ishlarini olib boruvchi mutahassislarini professional darajada tayyorlashga nisbatan ichki talablar baholovchi tashkilotning kadrlarni tayyorlash va o'qitish bo'yicha ichki qoidalarda belgilanadi.

Baholovchi tashkilot hodimlari zimmasiga ichki qoidalarni ovoza qilmaslik va ularni mazkur baholovchi tashkilot faoliyatidan tashqarida qo'llamaslik majburiyati yuklatiladi, qonunchilikda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash haqida hisobot baholovchingin baholash faoliyati natijasi hisoblanadi. Siz oladigan hisobot rasmiy hujjat maqomiga ega bo'ladi. Baholash haqida hisobotdan sudda ko'chmas mulk, biznes va mulkchilikning boshqa shakllari qiymatini yoki mulkka yetkazilgan zararni baholash qiymatini aniqlash bilan bog'liq ishlarini ko'rib chiqish jarayonida foydalanishingiz mumkin. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash haqida hisobot "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Foydalilanidigan baholash standartlari: O'zR DMQ tomonidan tasdiqlangan baholash faoliyati subyektlari tomonidan qo'llanilishi majburiy baholash Standartlari. Baholash haqida hisobot mazmuni baholash obyekti, aniqlanayotgan qiymat turi, baholash maqsadiga bog'liq bo'ladi, lekin ularning barchasida qator majburiy ma'lumotlar mavjud bo'lishi talab etiladi:

- Tuzilgan sana va Hisobotning tartib raqami;
- Baholovchi tomonidan baholash obyektida baholash o'tkazish uchun
- asoslar;

- Baholash obyekti qiymatini belgilash sanasi;
- Baholash maqsad va vazifalari;
- Qiymat turi;
- Baholovchi haqida ma'lumot;
- Baholash obyektining aniq tavsifi, yuridik shaxsga tegishli baholash obyektiga nisbatan esa—yuridik shaxs rekvizitlari va mazkur baholash obyektining balans qiymati;
- Baholash obyektining mutanosib qiymat turini aniqlash uchun baholash Standartlari, mazkur baholash obyektida baholash o'tkazishda ulardan foydalanish asoslari, manbalari ko'rsatilgan holda baholash obyektida baholash o'tkazish uchun qo'llanilgan ma'lumotlar ro'yxati, shuningdek, baholash obyektida baholash o'tkazishda qabul qilingan farazlar;
- Baholash obyekti qiymatini aniqlash ketma-ketligi va uning yakuniy miqdori, shuningdek, olingan natijani qo'llashdagi cheklov va chegaralar;
- Baholovchi tomonidan foydalaniladigan va baholash obyektining sifat va miqdoriy tavsiflarini belgilovchi hujjatlar ro'yxati, baholash obyekti suratlari, Baholovchi hujjatlari.

Baholash haqida hisobot doimo raqamlanadi, sahifama-sahifa tikiladi, imzolanib, tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi.

Uslubiy tavsiyalar baholash haqida hisobotlar ekspertizasi o'tkazish tamoyillarini, shuningdek, ekspert xulosasi mazmuni va rasmiylashtirilishiha talablarni belgilab beradi. Uslubiy tavsiyalar baholovchilarining o'zini-o'zi boshqaruvchi tashkilotlarining (keyingi o'rnlarda... BO'BT) ekspert kengashi a'zolari, shuningdek, baholash haqida hisobotlar ekspertizasini amalga oshiruvchi boshqa jismoniy va yuridik shaxslar, ekspertiza buyurtmachilari, baholovchilar va ekspertiza natijalaridan foydalanuvchilar foydalanishi uchun mo'ljallangan.

Baholash haqida hisobotlar ekspertizasi tamoyillari:

1. Baholash haqida hisobotda aniqlangan kamchiliklar mavjudligi asoslanganlik, yetarlilik, ishonchlilik va mavjudlik talablariga mos ravishda isbotlangan bo'lishi lozim.
2. Baholash haqida hisobot ekspertizasini olib borishda baholovchi tomonidan qo'llash mumkin bo'limgan (jumladan tekinga), shuningdek, baholash sanasidan so'ng ma'lum bo'lgan axborotlardan foydalanilishiha yo'l qo'yilmaydi.
3. Ekspert xulosasi tarkibida jiddiy nuqsonlar (xatolar) ga ishora qiluvchi baholash haqida hisobot qaydlari mavjud bo'lishi lozim.
4. Baholash haqida hisobotning to'g'rilangan nusxasiga ekspert xulosasida baholash haqida hisobotning oldingi versiyasida bo'lgan, lekin ekspert xulosasida ko'rsatilmagan xatolarni ko'rsatib o'tish tavsiya qilinmaydi, baholash haqida hisobotni tuzatish oqibatida ma'lum bo'lgan xatolar bundan istisno sanaladi.
5. Baholash haqida hisobot ekspertizasi takror baholash o'tkazishni taqozo qilmaydi.
6. Agar ekspert-baholovchida boshqacha deb hisoblash uchun asos bo'lmasa, baholash haqida hisobot ekspertizasi baholash haqida hisobotda baholash obyektlari tavsiflari ishonchli deb olish asosida o'tkaziladi. Agar lavozim majburiyatları ijrosi yuzasidan ekspertizani amalga oshirayotgan ekspert baholovchi lavozim yo'riqnomasida yoki ekspertiza shartnomasida boshqa holat nazarda tutilmagan bo'lsa, baholash haqida hisobot ekspertizasida baholash obyektlarini ko'zdan kechirish talab qilinmaydi.
7. Baholovchilar tomonidan baholash o'tkazish shartnomasi talablariga rioya qilinayotganligini tekshirish baholash haqida hisobotning respublika baholash faoliyati to'g'risidagi qonunchiligiga zid bo'limgan baholash o'tkazish shartnomasi bo'yicha belgilangan shartlarga mutanosibligini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.
8. Baholash haqida hisobot ekspertizasi baholash faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning barcha talablarini tekshirishni o'z ichiga olishi lozim va faqat ayrim talablarni, masalan, faqat umumiy talablarni tekshirishdan iborat bo'lishi mumkin emas.

Baholash haqida hisobot haqida ekspert xulosasiga kiritiladigan qaydlarga qo‘yiladigan talablar:

- Mazkur qaydlar baholash faoliyati sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan foydalanuvchiga ularning mohiyatini va baholash obyektlarining yakuniy qiymati miqdoriga ta’siri jiddiyligini tushunishga imkon berishi lozim.
- Qaydlar ekspert xulosasidan foydalanuvchiga bevosita baholash haqida hisobotni o‘qib chiqishga zarurat paydo qilmagan holda baholash haqida hisobotda
 - mavjud kamchiliklar haqida imkon qadar tasavvur berishi lozim.
 - Qaydlar har xil talqingga yo‘l qo‘ymasligi lozim.
 - Qaydlar yanglish holatlarga olib kelmasligi lozim.
 - Qaydlarda haddan ziyot ortiqcha axborotlar bo‘lmasligi lozim.
 - Qaydlar umumqabul qilingan baholash amaliyotiga muvofiqlikda kamchiliklarni bartaraf etishga zamin yaratishi lozim.
- Qaydlarda baholash haqida hisobotning xatolik mavjud sahifasi va parchasiga havolalar keltirilishi lozim.
 - Baholash haqida hisobotda mavjud bo‘lmagan axborotlardan foydalanilganda mualliflik yoki tayyorlash sanasi haqida xulosa qilishga imkon beruvchi axborot manbalariga havola qilingan holda qaydlar asoslanadi. Internet tarmog‘ida e’lon qilingan yoki O’zbekiston Respublikasi hududida tarqatiladigan nodavriy matbuot nashrida chop etilgan axborotdan foydalanilgan holatda ekspert xulosasiga mutanosib material va bosma mahsulotning nusxalari ilova qilinishi lozim.
 - Qaydlarga xatoliklarni tuzatishning aniq uslubiy usullari haqida talablar kiritilmasligi lozim, lekin xatoliklarni tuzatishning ehtimoliy usullari haqida axborot keltirilishi mumkin.

Ekspert-baholovchi xohishiga qarab natijaviy qism quyidagilardan tarkib topishi mumkin:

- baholash haqida hisobotda yo‘l qo‘ylgan xatolikning (ularning mavjudligida) jiddiylik darajasini ko‘rsatish;
- baholash haqida hisobotda keltirilgan vazifalarini bajarishda baholash obyekti qiymatining yakuniy miqdoridan foydalanish mumkinligi yoki mumkin emasligi haqida xulosa.

Ekspert xulosasiga rioya etish va rioya etmaslik haqida qaydlar kiritilgan holda baholash faoliyati to‘g‘risida qonunchilik va baholash shartnomasida baholash haqida hisobotga qo‘ylgan talablar ro‘yxatini o‘zida aks ettiruvchi nazorat varag‘i kiritilgan bo‘lishi mumkin. Ekspert xulosasiga ilovalarda baholash haqida hisobotda mavjud bo‘lmagan, ekspert xulosasida qilingan xulosa va qaydlarning to‘g‘riligini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa materiallarning nusxalari keltirilgan bo‘lishi talab qilinadi. Ekspert xulosasi sahifama-sahifa yoki varaqma-varaq raqamlangan, tikilgan va ekspert-baholovchi tomonidan imzolangan bo‘lishi lozim.

Xatolik turlari:

- Baholashda qo‘llaniladigan ma’lumotlar bo‘yicha axborot manbalari yo‘qligi.
- Baholashda qo‘llanilgan ma’lumotlarning aniq hisob-kitob bilan asoslanmaganligi.
- Sabab-oqibat aloqalarining buzilishi (biri boshqasidan kelib chiqmaydi).
- Hisobotdagi ziddiyatlar.
- Xato metodologiya.
- Arifmetik xatolar.
- Rasmiy talablarning buzilishi.
- Hisobot bo‘limlari bo‘yicha xatoliklar:

Baholash obyekti tavsifi va tahlili

- Tarkibida bir aksiya baholanadigan aksiyalar paketi aniqlanmagan.
- Aksionerlik kapitali tuzilmasi tavsifi mavjud emas, bu nazoratsiz tusdagi chegirmalarning to‘g‘riligi haqida mulohaza qilishga imkon bermaydi.
- Baholanayotgan paket tarkibida imtiyozli va oddiy aksiyalar miqdori ko‘rsatilmagan.
- Imtiyozli aksiyalar mavjud bo‘lgan holda paket hajmida ovozga ega aksiyalar ulushi aniqlanmagan.
- Ko‘rib chiqilayotgan korxona sohasi/bozori tag‘lili, korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining o‘rtacha bozor ko‘rsatkichlari mavjud emas.
- Baholanayotgan aksiyalar, korxonalarini ro‘yxatga olish ma’lumotlari haqida axborotlar keltirilmagan.
- Korxonalar rivojlanish tarixi, faoliyat turlariga tavsif keltirilmagan.
- Etkazib beruvchilar va xaridorlar tarkibiy tuzilishi tahlil qilinmagan.
- Tannarx tuzilmasi tahlilga tortilmagan.
- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tuzilmasining izchil tahlili mavjud emas.
- Past rentabelli korxonalar uchun faoliyat samaradorligining pastligi sabablari bo‘yicha tahlil amalga oshirilmagan.
- Korxonalar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasini mazkur dinamikani belgilab beruvchi sabab va omillar yuzasidan tahlili o‘tkazilmagan.
- Chegirmalar miqdoriga, likvidsizlikka va baholanayotgan paketning nazorat qilib bo‘lmaydigan xarakteriga ta’sir qiluvchi korxona xususiyatlari tahlil asosida o‘rganilmagan.
- Korxonaning bozorda joy tanlashi, raqobat ustunliklari, raqobat muhiti, korxona rivojlanish istiqbollari tahlil qilinmagan. Bu tanlangan o‘xhashliklar va pul oqimlari proqnozi to‘g‘riligi haqida kelgusida mulohaza qilishga imkon bermaydi.

Natijalarni muvofiqlashtirish va chegirmalarni belgilash:

- Baholashning turli yondashuvlarini qo‘llash asosida olingan natijalarning qiymat jihatidan farqlanishi sabablari tahlil qilinmagan.
- Bir yondashuv doirasida turli usullar bilan olingan natijalar yondashuvlar tarkibida solishtirish o‘rniga yanglish ravishda yakuniy muvofiqlashtirishga kiritilgan.
- O‘xhash kompaniya va bitim usulidan foydalanishda nazorat darajasiga tuzatish kiritilmagan.
- Past likvidlikka chegirmalar asoslanmagan.
- Nazoratning turli darajalari uchun olingan alohida yondashuvlar asosida baholash natijalari yanglish tarzda muvofiqlashtirilgan.

Boshqa qaydlar

- Yondashuvdan voz kechish asoslanmagan.
- Oddiy va imtiyozli aksiyalar qiymatidagi tafovut e’tiborga olinmagan.
- Hisoblash uslubiyati, hisoblash asoslariga tavsif berilmagan, bu olingan qiymatlar to‘g‘riligi haqida mulohaza qilishga imkon bermaydi.

Rasmiylashtirish belgilari

- Baholash maqsad va vazifalari aniqlashtirilmagan.
- Baholash obyektining balans qiymati keltirilmagan.
- Hisobotni tuzish sanasi keltirilmagan.
- Baholash o‘tkazish sanasi (qiymatni aniqlash sanasi) qayd qilinmagan.
- Qo‘llanilgan tushunchalar amaldagi qonunchilikka mos kelmaydi.
- Hisobot raqamlanmagan, tikilmagan, imzolanmagan va muhr bilan tasdiqlanmagan.

- Hisobotning so‘nggi ma’lumotlaridan foydalanishdan voz kechish va hisoblash asosi sifatida baholash o’tkazish sanasi uchun eskirgan ma’lumotlardan foydalanish asoslanmagan.

10-mavzu. Qimmatli qog’ozlar qiymatini uning narxi bilan bog’liqlikda baholash kontseptsiyasi

Reja:

- 1. Qimmatli qog’ozlar qiymati va narxining ekvivalentligi.**
- 2. Qimmatli qog’ozlar qiymatini uning narxi bilan bog’liqlikda baholash zarurati.**

Tayanch iboralar: qimmatli qog’ozlar qiymati, baho, baholash, baholash faoliyati, narx, xarajatlar.

1. Qimmatli qog’ozlar qiymati va narxining ekvivalentligi.

Mulk qiymatini baholashni tashkil etishda O’zbekiston Respublikasining «Baholash faoliyati to’g’risida»gi Qonuni aloxida o’rin tutadi, unda baholash faoliyati, baholash ob’ektlari, baholash ob’ekta qiymataning turlari va ularni ko’llash sohalari tushunchalari bilan bog’liq masalalarning keng doirasi qonun yo’li bilan tartibga solish mexanizmlari izoxlangan¹. Qonunda «baholash ob’ektining bozor qiymati» (7-modda) va «baholash ob’ektining bozornikidan farqlanuvchi qiymati» (8-modda) tushunchalari muhim hisoblanadi.

Qonunda baholash standartlari aniq ifodalangan bo’lib (9-modda), ular quyidagilarni belgilaydi:

- baholash tushunchalari va tamoyillarini;
- baholash faoliyatida qo’llaniladigai atamalar va ta’riflarni;
- qiymat turlariga ko’yiladigan talablarni;
- boshlang’ich axborotga ko’yiladigan talablarni;
- baholashni o’tkazish tartibini;
- baholash usullarini qo’llaiish xususiyatlarini;
- baholash natijalarini rasmiylashtirishga qo’yiladigan talablarni;
- boshqa talablarni.

Qonunda baholashni o’tkazish davlatga to’la yoki qisman qarashli ob’ektlari biror bir bitim tuzishga jalb etilgan takdirda va shu jum ladan:

- baholash ob’ektlarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, ishonchli boshqaruvga topshirish yoki ijara berish maqsadida ularning qiymati aniqlanayotganda;
- baholash ob’ektlaridan garov narsasi sifatida foydalanilayotganda;
- baholash ob’ektlari sotilayotganda yoki o’zga shaxsga boshqacha tarzda o’tkazilayotganda;
- baholash ob’ektlari bilan bog’liq qarz majmuriyatlaridan boshqaning foydasiga voz kechilayotganda;
- baholash ob’ektlari yuridik shaxslarning o’z foidasiga ulush tariqasida bsrilayotganda majburiyligi belgilab ko’ylgan

¹ O’zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to’g’risida”gi qonuni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2009 y. 15-son, 178-modda.

Bundan tashqari qonunga binoan baholashni o'tkazish, baholash ob'ektining qiymati to'g'risida imzo chekkan takdirda ham shu jumladan;

- mulk natsionalizatsiya qilinayotganda;
- ipoteka krediti berilganda;
- taraflardan birining talabiga binoan mulk bo'linayotganda;
- mulk mulkdorlardan davlat zhtiyojlari uchuy sotib olinayotganda yoki qonun xujjatlarida nazarda tutilgai boshqacha tarzda olib ko'yilayotganda;
- soliqlar na boshqa majburiy to'lovlari to'g'ri to'lanishi ustidan nazorat o'tkazilayotganda baholash ishlarini o'tkazish majburiyligi belgilangan.

Qonunda baholovchingin huquqlari, majburiyatları, mustaqilligi, baholovchi tashkilotlarning tarkibiy tuzilishi, unga bo'lган talablar va baholash hisobotlari alohida o'ren tutadi. Shu sababli Ushbu Qonunning 2009 yilda qayta ko'rib chiqilib bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan:

4-moddada baholovchi tashkilot, baholovchi va baholovchingin yordamchisi to'g'risida alohida tushuncha va talablar berilgan. Bu bilan baholovchingin bilim malakasi yuqori bo'lishi, malaka sertifiqatiga ega bo'lishi, baholvchi tashkilot esa faoliyatini yuritish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lishi bundan tashqari bu moddaning 3-qismida baholovchingin yordamchisining xuquqlari va majburiyatları xaqida belgilab qo'yilgan.

Mulk bozor munosabatlari ob'ekti sifatida muomalada bulishi uchun u, ma'lum xossa (xosiyat)larga, sifat va mikdoriy kursatkichlarga, iktisodiy mexanizmga, yuridik konstruktsiyam, informatsion ta'minotga va anik mulkdorga ega bulishi zarur.

Mulkning sub'ektga (mulkdorga) tegishliligi yoki tegishli emasligi yuridik nuktai nazaridan ma'lum bir xajmda (mikdorda) va me'yoriy qiymatda tasdiklanishi, kafolatlanishi, ta'minlanishi va amalga oshirilishi zarur. Aynan shunday xolat mulkning qiymatini baxolash va narxini shakllantirish xamda ularni xnsobga oluvchi mulk va u bilan boglik turli xukuk (ya'ni mulqiy xukuk)lar zaruratini va ularning xossalari yuzaga keltiradi. Bu esa uz-uzidan mulk va u bilan boglik turli xukuklarni (mulk va mulqiy xukuklarning xossasi nuktai nazaridan) kapital (ne'mat, moddiy va nomoddiy boylik), mulk bozori ob'ekti (tovari), munosabatlar vositasi (instrumenti), bunda axborot manbai va retseptori (sezgir kabul kilib oluvchi) bulishiga asos buladi. Bularning barchasi tegishli axborot bilan ta'minlangan mulk va mulqiy xukuklarning ijtimoiy-iktisodiy- xukuqiy-informatsion realizatsiyasini keltirib chikaradi. Bunda mulk va u bilan boglik xukuklar kapital sifatida bulishi uchun mulk va mulqiy xukuklari qiymatga ega bulishi zarur. Mulk va mulk xukuklari bozor tovari bulishi uchun esa boshlangich (start) bozor qiymatini baxosiga xamda bozor kon'yunkturam (talab va taklif) va psixologiyasi asosida shakllangan narxga ega bulishi lozim. Mulk va u bilan boglik xukuklar mulk bozori (MB) va mulk qiymatini baxolash xizmatlari bozorida (MK.BXB) shchtisodiy va xukuqiy munosabatlar vositasi, axborot manbai va retseptori sifatida namoyon bulishi uchun iktisodiy mazmunga, yuridik konstruktsiyaga va informatsion (axborot) ta'minotiga, ya'ni ij-timoiy-iktisodiy-xukuqiy-informatsion muomala mexanizmiga, xamda kdymat va narxga ega bulgan munosabatlar ob'ekta bulishi zarur.

Shunday kilib, mulk narxi mulk (jumladan mulqiy xukuklar) bozori tovari va mulk qiymati esa uning qiymatini baxolash xizmatlari bozori ob'ekta xisoblanadi. Bu bozorlar tabiatan, mazmunan va shaklan farkdansada, lekin ular bir-biri bilan uzviy boglikdikda faoliyat yuritadi. Chunki aynan ushbu bozorlar yordamida mulk qiymati uning narxiga va aksincha (ya'ni mulk narxi uning bozor qiymatiga) yunalishda transformatsiyalanadi. Bunda narxning kanchalik ob'ektivligi va qiymatning kanchalik adolatliligi xamda ularning kanchalik uzaro boglikligi darajasi tegishli mezonlar (kriteriyalar) asosida baxolanadi.

Yukorida keltirilgan tushunchapar mulk va unga oid turli xukuk iktisodiyoti nazariyasi namoyondalari karashlari xamda ularga asoslangan mulk va unga oid xukuk qiymatini

baxolash nazariyasi koidalariga moe umumlashtirilgan bulib, ular mulk va unga bulgan xukuklarni bozor munosabatlari, qiymatni baxolash va narxni shakllantirish ob'ektlari sifatida namoyon bulishi mazmun-moxiyatini ohib berishga xizmat kilishi mumkin. Bunda mumtoz karashlar muxim axamiyatga ega. Masalan, A.Smit23 fikricha: "Har kanday aloxida olingan tovar (ob'ekt) bozor narxi uning bozorga olib chikilgan mikdori va ushbu tovarning tabiiy narxi yoki tulik qiymatini tulab berishga tayyor bulganlar tomonidan unga bulgan talab nisbati bilan anikdanadi." Ushbu ta'rifga kura, tovarning (tovar sifatida mulkning xam) tabiiy narxi deganda erkin (ochik va effektiv) bozorda tabiiy xolda talab va taklif asosida (ularning oniy vaktdagi muvozanati mivdorida) shakllanadigan narx tushuniladi.

Effektiv bozorda tovar (mulk)ning shakllangan bunday narxi uning moddiy boylik (ne'mat, kapital, investitsiya) sifatidagi qiymatiga vakting xar bir momentida moe kelishi mumkin, bu esa natijada bozor va uning ob'ekta tugrisidagi barcha axborot bozor narxlari bevosita va tulik uz aksini topadi degan xulosaga uning "Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov" nomli mashxur asarvda keltirilgan.

2. Qimmatli qog'ozlar qiymatini uning narxi bilan bog'liqlikda baholash zarurati.

Narx iqtisodiy mazmuniga kura, bozorda turlarining ko'pligi bilan ajralib turadi.

Narxning shakllanishida iste'molchilarining ta'siri sezi-larli bulib, bunda nafakat iktisodiy, balki psixologik omillar xam e'tiborga olinishi lozim. Bu erda asosan iste'molchilarining narxini kabul kilish psixologiyasi yoki narxga munosabati xisobga olinadi. Narxlarni belgilashda iste'molchilar talabi, rakobat, xarajatlar kabi omillar narx strategiyasi tarkibida taxlil qilinadi.

Ta'kidlash zarurki, yukorida sanab utilgan narx va qiymat turlari bozor iktisodiyoti amaliyotidagi ularning mavjud umumiylaridan ancha kam bulib, ularni zarur bulsa tegishli adabiyotlardan kurish mumkin.

Iktisodiyotda amal kilib turgan barcha qiymat va narx turlari ularning xar biriga moe keluvchi tizimlar — qiymat tizimi va narx tizimi - tarkibiga kiradi. Bu tizimlar turli yunalishlar buyicha amal kiladi. Bunda qiymat va narx xar doim turlari buyicha uzgarib turuvchi va ixtisoslashuvi aniklashib boruvchi kategoriyalardir.

Fikrimizcha, yukorida aytilganlardan kurinib turibdiki, narx va qiymat uzaro boglikdik bulsada, lekin ular mazmunan turli tushunchalar ekanligini paykash mumkin. Ya'ni narx qiymat emas, zero ular ideal xolda teng bulishi mumkin. Odatda bu xol kamdan-kam uchraydi, uchrasa xam, ular muvozanati uzgaruvchan omillar ta'sirida tezda buziladi va x-k.

Mulk ijtimoiy-xukuqiy-iktisodiy-siyosiy-informatsion mu-nosabatlar ob'ekti sifatida erkin muomalada bulishi uchun tovar, kapital va muomala vositasi shakllarida namoyon bulib, ularning xar biri uz xossalariiga ega bulgan xolda sifatiy va mikdoriy kursatkichlarga, umuman olganda iktisodiy va informatsion ta'minotga xamda yuridik konstruktsiya va xukuqiy bazaga ega buladi.

Fukarolik xukuklarining ob'ektlari erkin muomalasi deganda ularni bir sub'ekt (shaxs)dan boshka shaxslarga berilishi yoki universal xukuqiy vorislik (meros kilib olish, yuridik shaxsni kayta tashkil etish) tartibida yoxud boshka usul bilan, agar ular muomaladan chikarilmagan yoki ularning muomalada bulishi cheklab kuyilmagan bulsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga utishi tushuniladi.

Fukarolik xukuklari ob'ektlarining bir sub'ektidan boshka sub'ektga konuniy utishini ta'minlashi uchun ushbu ob'ektlar qiymatini baxolash va narxni shakllantirish bozor ob'ektiga aylanadi.

Bunda ob'ektning bozor tovari, kapital va iktisodiy- ijtimoiy-xukuqiy-informatsion munosabatlar vositasi sifatida bozor qiymati va bozor narxi, ob'ektiv narx vaadolatli qiymat degan tushunchalar kelib chikadi. Ammo, globallashuv sharoitida MShcheXB va MB talablari va tizimli risk (global va regional inkirozlar soni va kulami)ning ortishi, natijada ushbu bozorlarda sun'iy ravishda ob'ektlar qiymati va narxi kontekstida real aktivlar buyicha "kupiklar" vujudga kelishi, xozirda bu tushunchalarning bir munkha zamonaviylashgan shakli sifatida xar kanday ob'ektning mazmunan bir-biridan farklanuvchiadolatli qiymati va ob'ektiv narxi degan terminlar kullanilishini talab etmokda. Bunday talab, xar kanday ob'ektningadolatli qiymatini baxolash va ob'ektiv narxini shakllantirishni bir-biri bilan bogliklikda amalga oshiri- lishini takozo etadi.

Demak aytish mumkinki, uz-uzidan xar kanday ob'ektning, jumladan mulk va mulqiy huquqning,adolatli qiymatini baxolash va ob'ektiv narxini shakllantirish muammolarini bir-biri bilan bogliqlikda echishning ilmiy kontseptsiyasi (terminologik apparat, jamlangan bilimlar va metodologiya) va xalkaro, jumladan Uzbekiston, amaliyoti muxim axamiyatga ega. Bunda kullaniladigan definitsiyalar va nazariy karashlar Uzbekiston uchun yangi bulgani uchun ularning jaxon amaliyotidagi mazmun-moxiyatini taxlil kilish asosida ularni Uzbekiston sharoitiga moe ravishda shakllantirish vazifasi muxim axamiyat kasb etadi. Bu vazifa nafakat Uzbekiston me'yoriy-xukuqiy xujjalarda uz aksini topgan (2-ilova4) yoki kiritilishi kutilayotgan atama va tushunchalarga, balki baxolash institutlari, mulkdor va bozor vositachilari tomonidan yaqin kelajakda keng kullanilishi mumkin bulgan maxsus terminologik apparatning zaruriy xajmdagi tuplamiga xam taallukli. Chunki fakat bir-biri dan farkdi bulgan mulk qiymatini baxolash va narxini shakllantirish faoliyatları buyicha jaxon tajribasidagi mavjud terminologiya va karashlarni xamda bunda qiymat narx emasligini xisobga olib anik tushunib olgan xoldagina Uzbekistonlik olim va mutaxassislar ular uchun yangi bulgan bilim va kontseptsiyalarni tula uzlashtirishi mumkin. Fakat katiy terminologiya va karashlarga asoslangan konun va standartlar chikaruvchi organlar mulk qiymatini baxolash va narxini shakllantirish mazmuni va faoliyatiga moe keladigan metodologiya, konuniyatlar va xulk-atvor koidalari ni ifodalashga kodir buladi. Shu aytilganlar va Uzbekistondagi konun xujjalarda ba'zi terminologik disproportsiyalar mavjudligi⁵ munosabati bilan, kuyidagilar maksadga muvofik.

Agarda qiymat va narxning uzaro boglikligini xisobga olsak, narx qiymatning bozor munosabatlarida kon'yunkturaviy belgilanadigan pul birligidagi ifodasi deb kabul kilinishi mumkin. Bunda ta'kidlash zarurki, iktisodiyot fanlari doirasida mulk qiymati va narxi tushunchalari uzbek va rus (jumladan barcha xorij) tillarida chop etilgan adabiyotlarda ma'lum darajada farklansada, lekin xorijda ularning kullanilishi uxshash. Masalan, uzbek tilidagi adabiyotlarda, narx va baxo sinonim terminlar deb talkin kilinadi. Zero, rus tilidagi iktisodiy adabiyotlarda esa chet ellardagidek (AKD1, Evropa mamlakatlari, Yaponiya va x.k. mamlakatlari)⁷ qiymat (ruscha "stoimost", inglizcha "cost", "value", "appraisal", "assess") va uning moliyaviy (puldagi, valyutadagi) baxosi (ya'ni xisoblanib topilgan baxo - ruscha "otsenka", inglizcha "estimation", "valuation", "mark") xamda narx (ruscha "tsena", inglizcha "price") turli tushuncha deb ta'kidlanadi. Rus tilidagi "sebestoimost" degan suz esa uzbek tiliga, negadir, "tannarx" deb tarjima kilingan. Fikrimizcha, aynan bunday tarjima Uzbekistonda qiymat, narx va baxo tushunchalariga ma'lum darajada chalkashlik kiritmokda. Shu munosabat bilan va jaxon baxolash amaliyotida qiymat narx emas deb kabul kilinganligini xisobga olib, fikrimizcha, "tannarx" suzini rus tilidagi "sebestoimost" va ingliz tilidagi "cost", "appraisal", "assess", "value" suzlariga moe ravishda "maxsulot yoki mulkni sotib olish, yaratish, ishlab chikarish xarajatlarini jamlab xisoblab topilgan qiymati" (kiskacha - "sarfqiyomat" yoki jami sarf-xarajatlar sarxisobidan iborat qiymat mazmuniga monand "sarqiyomat") deb yuritsa maksadga muvofik.

Ushbu "sarfqiymat" degan suz ikki kiemdan - "sarf" (uning sinonimi bulgan "xarajat" yoki "sarfxarajat" suzi) va "qiymat" suzlarini birikmasidan - iborat bulib, fikrimizcha, mazmunan "tannarx" suzining urnini bosishi mumkin. Zero "tannarx" terminidagi "tan" (yoki tularok shakli "tana") suzi (terminning birlinchi uzagi) uzbek tilida, odatda, jonsiz mulkka (ya'ni jism, buyum, kuchmas, xarakatlanuvchi (kuchar, xarakatdagi), intellektual va shular kabi boshka mulk turlariga) emas, balki jonli mulk (xayvonotga, jonli mavjudodga) va odamga nisbatan ishlataladi. Shu bilan birga, "tannarx" terminining ikkinchi uzagi - "narx" - esa krorida aytiganidek "qiymat" suzi bilan mazmunan moe kelmaydi.

"Baxolash" (otsenka, appraise, estimation, valuation, mark) suzi bir necha ma'noni - narxni aniklash (baxolash), qiymatni belgilash (baxolash), naflik va kimmatlilik darajasiga baxo berish, mivdorni baxolash, nimanidir sifati yoki kadr-kimmati tugrisida xulosa chikarish jarayoni - ma'nolarni anglatadi. Bunda "baxo" atamasi baxolashning sharti va maksadi mazmuniga kdrab bir necha ma'noni - baxolash doirasidagi xarakatni, qiymat xakidagi xulosani yoxud tadkikot natijalari buyicha xulosalarni - anglatishi mumkin. Shunga kura, "baxolovchi" degan suz ruschada "otsenshchik" va inglizchada "appraiser" deb kabul kilingan.

Mulk qiymatining baxosi - bu baxolash ob'ekti bulmish mulk nafligi, foydaliligi, risklari va xarajatlarini xisobga olib uning pul birligida ifodalangan moliyaviy qiymati buyicha anik vakt davri uchun kuchga ega buluvchi ekspert xulosasi.

Bunda mulkning foydaliligi, nafligi unga talabgor shaxsning anik moddiy va ma'naviy talablari ifodasi. Kiyimat (value) - bu xaridor kdndaydir predmet yoki ob'ektni ayirboshlashga tayyor bulgan pul ekvivalenta.³⁴ Xarajat(cost) - bu badolanayotgan mulkka uxshash mulkni xarid kilish (sotib olish) ulchovi. Narx(price) - bu avvalgi vakt davrlarida uxshash ob'ektlarni sotib olish uchun tuzilgan bitimlar buyicha kancha mablag sarflanganligini ifodalovchi tarixiy fakt.

Ta'kidlash joizki, sotuvchi xoxlagan narx va bozor kon'yunk-turasi asosida tarixiy fakt sifatida avvalgi vakt davrlarida belgilangan narx xar doim xam ob'ekt qiymatining baxolash vaktidagi real ulchovini ifodalayvermaydi.

Shu bilan birga, aytish lozimki, mulk ob'ektining narxi uning ichki qiymati bilan kamdan-kam vaktlarda moe keladi va mulk bozori kon'yunkturasiga boglik xolda bu qiymatidan ortik yoki kam bulishi mumkin.

Bozor kon'yunkturaei asosida muvozanatlashgan narx buyicha sotuvchi va xaridor urtasida tuzilgan bitamda kuyidagi shartlarga rioya kilinadi:

- * sotuvchi va xaridorning (taraflar) motivatsiyalari uzaro moe keladi;
- * taraflar etarlicha axborotga ega va uz manfaatlariga moe ravishda xarakat kiladilar;
- * kilingan taklifga nisbatan bozor reaktsiyasini >fganish uchun etarlicha vakt mavjud;
- * tulovlar nakt pul yoki pul ekvivalenta bilan amalga oshiriladi;
- * sotuvchiga begonalashtirilgan mulk uchun kompensatsiya kelishilgan bitimdagি narxda xech kanday kushimcha shartlarsiz tulik ifodalangan;
- * xaridor mulkni bozorga xos moliyalashtirish shartlarida sotib olishga kodir.

Mulkning bozor qiymati xar doim xam erishlavermaydigan ideal standart bulganligi sababli, uni bozor narxi xar doim xam ushbu qiymatga teng bulmaydi. Chunki mulkning bozor qiymati odatda ushbu bozor uchun odatiy bulgan potentsial xaridor nuktai nazaridan ekspert (baxolovchi) tomonidan yashchn kelajakda mumkin bulgan bozor narxini prognoz kalgan xolda anivdanadi.

Mulk qiymatini bozorga ta'sir etuvchi turtta fundamental omil shakllantiradi:

- * tulov kobiliyatiga ega xaridolar tomonidan mulkka bulgan talab;
- * foydalilik, daromad, naflilik;
- * taklifning cheklanganligi;

* mulk ob'ektlarining begonalashtirilishi.

Mulk xaridori uchun uchta koida printsipial axamiyatga ega: naf, daromad, foydalilikning optimal mivdori, uni ishonchli va davomiy ravishda olinishi.

Baxolash qiymatini kuyidagi omillar belgilaydi:

** Naf, daromad, foydapilikka boglik xaridor talabi;

** Xrzirgi vaktdagi va kelajakdagi naf, foydalilik, daromad;

** Uxshash ob'ektlarni yaratish xarajatlari;

** Kutilayotgan va kelajakdagi naf, daromad, foydalilikni olishdagi risklar;

** Uxshash ob'ektlarga mulk bozorida bulgan talab va taklif nisbati. Mulk ob'ektlariga bulgan talab naf va foydalilik bilan bir katorda potentsial xaridorlar tulov kobiliyati, pulning kadr-kimmati, investitsion imkoniyatlar va muxdtga boglik- Taklif narxlari uxshash ob'ektlarni yaratish bilan boglik xarajatlarga boglik. Sotuvga chikarilgan mulkning mivdori daromadga ta'sir kursatadi. Agarda taklif talabdan ortib ketsa, xaridor narxlarni belgilaydi, aks xolda esa xaridor maksimal narxni taklif kilishga tayyor buladi. Bunda sotuvchi uz mulkini uni yaratishga ketgan xarajatlarsummasiga teng minimal narxda sotishi mumkin;

** Yangi mulkdor bulgan xaridorning mulkni tasarruf kilishi yoki unga egalik kilish darajasi;

** Baxolanayotgan mulk qiymatiga ta'sir kiluvchi likvidlik. Odatda likvid mulk ob'ekti uchun xaridor kushimcha xak tulashga tayyor buladi. Zero bunday mulk bozorda kayta sotilganda kushimcha kutish xarajatlarisiz tezlik bilan pulga transformatsiyalanadi.

Mulk qiymatini baxolashning muxim xususiyati - bu baxolashning kup kirraliligi bulib, unda kuyidagi bozor omillari xisobga olinadi: ob'ektni yaratish va sotib olish xarajatlari va risklari, uning kursatkichlari, xosiyat (xossa) va xususiyatlari, xayot

davri, baxolash vakti, nafligi va foydaliligi, rakobatdorligi, kon'yunkturasi, narxi va x.k.

Baxolash faoliyatida kullaniladigan yondashuv va usullarni tanlash baxolash jarayoni xususiyatlariga, maksadlari va tamoyillariga boglik ravishda amalga oshiriladi.

Baxolashdan maksad - buyurtmachining zarurati doirasida mulk ob'ekti qiymatini uning bozor narxlari bilan bogliklikda adolat nuktai nazaridan aniklash.

Mulk qiymatini baxolashdan manfaatdor bulgan taraflar baxolash maksadlarini belgilaydi.

Mulk qiymatini malakali (professional) baxolovchi aniklaydi.

Baxolash faoliyati mulk qiymatini baxolash xizmatlari bozorida maxsus baxolovchi institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Mulk narxi mulk bozorida uning kon'yunkturasi asosida shakllanadi.

